

SAIDOV SHAVKAT

**XORAZMSHOHLAR-
ANUSHTAKINLAR DAVLATI
(1077-1231)**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SAIDOV SHAVKAT

XORAZMSHOHLAR-ANUSHTAKINLAR
DAVLATI
(1077-1231)

Qayta ishlangan ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri

TOSHKENT- 2025

UO'K : 94(575.1)

KBK: 63.3(5)

S - 16

ISBN: 978-9910-8283-1-7

Ushbu monografiyasi XI asrning oxirlaridan XIII asrning boshlarigacha bo'lgan tarixiy davrda hukm surgan Xorazmshohlar – Anushtakinlar davlati tarixini yoritib berishga bag'ishlangan.

XI asrning so'nggi choragi va XIII asrning birinchi yarmida Xorazm Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatgan siyosiy kurashlar maydoniga aylandi. Saljuqiy sulton Malikshoh davrida Xorazmga noib qilib tayinlangan Anushtakin (1077-1097 Xorazmda yangi turkiy sulolaga asos solidi. Anushtakin siyosatini davom ettirgan avlodlari Qutbiddin (1097-1127), Otsiz (1127-1156) Elarslon (1156-1172), Takash (1172-1200), Sulton Muhammadlar (1200-1220) hukmronligi davrida Anushtakinlar davlati Sharqning qudratli saltanatiga aylanadi. Ammo, Muhammad Xorazmshoh davrida ichki ziddiyatlarning kuchayishi mamlakatning zaiflashuviga olib keldi.

XIII asr boshida saltanatning sharqiy qo'shnisi bo'lmish Mo'g'uliston hududlarida kuchli davlat tashkil topib (1206-yil) uning hukmdori Temuchin ("Chingizxon") boshiligidagi mug'illar istilosi natijasida Markaziy Osiyo misli ko'rilmagan istilochilik va talon-taroj maydoniga aylandi. Davomiy ichki tanazzul alomati mo'g'ullarning tinimsiz zarbalari ostida Xorazmshohlar saltanatining tarix sahnasidan tamom tushmog'i tomon davom etdi. 1221-1231-yillar davomida Sulton Jaloliddin Manguberdi tomonidan mo'g'ul istilochilariga qarshi olib borilgan qahramonona kurashlar ham samara bermadi.

Monografiya, Markaziy Osiyoda XI asrning oxirlaridan XIII asrning boshlarigacha bo'lgan davr tarixi bilan shug'ullanuvchi izlanuvchilar, olimlar, talabalar va qiziquvchilar uchun muljallangan bo'lib, o'quv mashg'ulotlarida qo'shimcha adabiyot sifatida foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi:

Ishaqov Mirsodiq Mirsultanovich
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Raximov Navro'zbek Shoxnazarovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent

Alimov Zuxruddin
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent

ISBN: 978-9910-8283-1-7

Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil 4-oktabrda kuni bo'lib o'tgan 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. 2025 y.

Muqaddima

XI asrning so'nggi choragi va XIII asrning birinchi yarmida Xorazm Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatgan siyosiy kurashlar maydoniga aylandi. Ayniqsa, bu davr ichida Qoraxoniylar saltanatining asta-sekin kuchsizlana borishi, Saljuqiylar davlati bilan uning ziddiyatlari, nihoyat, Qoraxoniylar bilan Saljuqiylarning qo'shma lashkarlari Qoraxitoylar zarbasiga bardosh berolmay talofatga uchrangani kabi voqea-hodisalardan Xorazmni mustaqil davlatga aylantirishga intilgan anushtakinlar ustalik bilan foydalandilar. Bir muddat Saljuqiylar tasarrufiga tushib qolgan Xorazmga Saljuqiy Malikshohning ishonchiga kirib, uning oftobachisi lavozimiga ko'tarilgan amaldori Anushtakin (1072-1092) noib etib tayinlanadi. Bu o'z ma'nosiga ko'ra, Xorazmda yangi turkiy sulolaga asos solinishi edi. Chunki Anushtakin o'zining tadbirkorligi, usta diplomatligi, g'ayrat-shijoati bilan tez orada Saljuqiylardan mustaqil siyosat yo'lini tutdi.

Anushtakin boshlab bergan mustaqil davlat tuzish g'oyasi an'anaviy Xorazmshox unvonini dadil tiklab, Xorazmda hukmdorlik qilgan Otsiz (1127-1156) davrida to'la amalga oshdi. Muhimi shundaki, Anushtakinning avlodlari uning o'limidan keyin (1097) Xorazmda vorisiy, sulolaviy hokimiyat barpo qilishga erishdilar. Bu esa Xorazmda o'zbek davlatchiligi asoslarining qadimiy an'anasini qayta tiklash, Xorazmda mustaqil davlatni yanada mustahkamlash vazifasi Otsizning o'g'li Elarslon (1156-1172) hamda nabirasi Takash (1172-1200) hukmronligi davrida o'z zamonasi uchun favqulodda jadal va muvaffaqiyatli amalga oshiradi. Nihoyat, Sulton Takashning o'g'li Xorazmshoh atrofidagi arkoni davlatning (uning asosiy qatlamini Takashning qipchoq urug'idan bo'lgan xotini, Muhammad Xorazmshohning onasi Turkon Xotun himoyasidan foydalangan qipchoq amirlari tashkil etar edi) beboshliklari, itoatsizliklari soliq tushumlarini o'zboshimchalik bilan tasarruf etishlari, harbiy jihatdan muhim o'rinlarni egallab, shohga nisbatan bepisandliklari kabi salbiy omillar juda katta ichki noqulayliklarga olib keldi. Gap shundaki, Muhammad Xorazmshohning qipchoq etnik guruhida mansub xotinlaridan tug'ilgan farzandlari uchun vorislik huquqini ta'minlash rejasi bu kuchlar uchun muhim edi. Muhammad Xorazmshohning turkman xotinidan tug'ilgan Jaloliddin katta o'g'il sifatida valiahd

bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik Turkon Xotunning va unga quloq soluvchi qipchoq amirlarining asl maqsadi edi. Buning ustiga Xorazmshohlar davlatining turli viloyatlardagi noiblari ham siyosiy jixatdan u qadar ishonchli bo'lmay qoldilar. Bunday xavfni oldini olishga qaratilgan urinishlaridan biri sifatida Muhammad Xorazmshoh tomonidan o'z kuyovi Samarqandga tayinlangan Usmonni isyonkorlikda ayblab, qatl etilishi (1212) misolida ko'rsatish mumkin.

Xorazmshohlar davlatidagi murakkab ichki ziddiyatlar avj olayotgan bir davrda XIII asr boshida saltanatning sharqiy qo'shnisi bo'lmish Mo'g'uliston hududlarida kuchli davlat tashkil topib (1206) uning hukmdori Temuchin Chingizxon misli ko'rilmagan istilochilik va talon-taroj maydoniga aylandi. Bunday murakkab vaziyatda Xorazmshoh Muhammad jiddiy taktik va strategik xatolarga yo'l qo'ydi. Mamlakat mo'g'ullar asoratiga tusha boshladi.

Davomiy ichki tanazzul alomati mo'g'ullarning tinimsiz zarbalari ostida Xorazmshohlar saltanatining tarix sahnasidan tamom tushmog'i tomon davom etdi. 1221-1231-yillar davomida Sulton Jaloliddin Manguberdi tomonidan mo'g'ul istilochilariga qarshi olib borilgan qahramonona kurashlar ham samara bermadi.

Hurmatli o'quvchi, yuqorida tasvirlangan voqealar tizimi ushbu mohografiyada tarix fanlari doktori Saidov Shavkat Jumabaevich tomonidan keyingi yillarda respublikamizda va xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar va qo'shimcha ravishda yozma manbalaridan tahliliy yo'l bilan olingan katta hajmdagi ma'lumotlar asosida yanada to'ldirilgan va batafsil bayon etilgan. Shu asosda ushbu kitob ikkinchi marta nashrga tavsiya qilinmoqda. Umid qilamizki, monografiyadan foydalanish tariximizga qiziquvchilarda, talabalarda va ilmiy jamoatchilikda tariximizning g'ururli va qayg'uli sahifalaridan biri bo'lgan, jahon voqealariga boy bo'lgan hayoliy va idrok etilgan bilimlar tizimiga ega bo'ladi.

Tarix fanlari doktori, professor

M.M. Is'hoqov

I-BOB. MUG‘ULLAR ICTILOSII ARAFASIDA XORAZM
I.1.Xorazmshohlar-Anushtakinlar davlatining tashkil topishi va
yuksalishi

Amudaryoning Orol dengiziga borib quyiladigan quyi qismi eng qadim zamonlardanoq Xorazm deb atalib kelingan. Tuprog‘ining juda unumdorligi, Sug‘d, Marg‘iyona, Parsava kabi qo‘shni madaniy tarixiy o‘lkalardan, shuningdek, urushqoq ko‘chmanchi chorvador qabilalardan keng qumliklar va dashtliklar ajratib turgan tabiiy-jo‘g‘rofiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bu yerda faqat o‘ziga xos hududiy madaniy o‘choq va etnik birlikning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Bu o‘lkada eng qadimgi davrlardan Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullar istilosiga qadar asosan beshta sulola vakillari hukmronlik qilganlar. Bular: Siyovushlar (er.av. XII-XI asrlardan to eramizning II-III asrlariga qadar. Bu masala ancha bahsli bo‘lib, olimlar bu sohada Beruniy ma‘lumotlariga asoslanadi (Saidov Sh.) Afrig‘iylar (305-995), Ma‘muniylar (995-1017), Oltintoshlar (1017-1034), Anushtakinlar (1077-1231) sulolalaridir.

Bu sulolalar vakillari garchi ma‘lum bir qisqa davrda chet el bosqinchilariga qaram bo‘lsa-da, ammo imkoniyat bo‘lishi bilan mavjud siyosiy sharoitdan ustalik bilan foydalanib, o‘z mustaqilligini tiklab olishga erishib kelganlar. Bu haqda mashhur turk tarixchisi, Xorazmshohlar davri bilimdoni Oydin Tonariy shunday deb yozgan edi: «Jo‘g‘rofiy ahvolining o‘ziga xosligi tufayli bu viloyatga tayin etilgan hokimlar oradan ko‘p o‘tmay muxtor bir vaziyatga ega bo‘lar, bu ahvoldan foydalanib, fursat topilishi xamon o‘z mustaqilliklarini e‘lon qilardilar»¹. Yna bir turk tarixchisi ushbu holatga baho berib shunday degandi: “Xorazmni boshqargan voliyalar, hokimlar davlatning boshqa barcha voliyalaridan farqli o‘laroq va Saljuqiylarning oldingi an‘analariga ham ko‘ra «Xorazmshoh» unvoniga ega edilar”²

¹ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999. – B. 7.

² Meryam Gurbuz.Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.46.

Shuni alohida qayd qilib o'tish o'rinliki, Xorazmda o'zbek davlatchiligining qadimiyatdan so'nggi bosqichga, to sovet mustamlakachiligi davrida tugatilgan Xorazm xalq sovet respublikasiga (1920-1924) qadar o'tgan tarixi davomida bu o'lkada yuksalish va taraqqiyotning eng yuqori darajasi Xorazmshohlar - Anushtakinlar (1077-1231) sulolasi hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Ularning hukmdorligi davrida Xorazm kichik viloyat maqomidagi mahalliy davlat darajasidan, XII asr oxiri XIII asr boshlariga kelib Sharqning eng qudratli saltanatiga aylandi. Mashhur sharqshunos, Turkiston tarixining bilimdoni V.V. Bartold Anushtakinlar sulolasi-ni: "...xorazmshohlarning to'rtinchi eng parloq sulolasi" deb ta'riflagan edi³.

Anushtakinlar tarix sahnasida to'satdan paydo bo'lmadilar. Sulola vakillari, sobitqadamlik bilan, uzoqni o'ylab qilingan diplomatik ustamonlik, mavjud siyosiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan oqilona faoliyat natijasida o'z maqsadlariga asta-sekinlik bilan erishib bordilar. Bunda ular, Saljuqiylar sulolasining zaif tomonlaridan ustalik bilan foydalandilar, Qoraxitoylar, Qoraxoniylar, G'uriylar, Abbosiy xalifalar bilan goh nozik diplomatik usul, goh kuch ishlatish oqibatida buyuk saltanatga asos soldilar. Shu davrning qudratli davlatlari Qoraxitoylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, G'o'riylarningning o'zaro kurashlari ulkan mintaqada siyosiy-ijtimoiy inqiroz va nizolarni yanada kuchaytirdi. Xorazmshohlar: "...davlatning tez yuksalishining eng muhim tayanchi askariy, harbiy kuchi va qo'shinning erishgan muvaffaqiyatlari edi. Buyuk Saljuqiy davlatining yiqilishi bilan mintaqada yuzaga kelgan alg'ov-dalg'ov, tartibsizlikka xos sharoitdan foydalana oldilar"⁴, - deb yozadi Meryam Gurbuz. Bunday bir sharoitda Markaziy Osiyoda yangi kuch Xorazmshohlar - Anushtakinlar davlati siyosat maydoniga dadil kirib kelib boshladi.

³ Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. – Москва, 1964. – С. 538.

⁴ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.46

Sulola asoschisi Anushtakin, o'g'uzlarning bekduli urug'idan bo'lib, saljuqiy hukmdor Sulton Malikshoh (1072-1092) saroyida tashtdorlik lavozimidan 1077-yili Xorazm shihnasi (boshqaruvchisi) lavozimiga tayinlanadi⁵. Anushtakin (1077-1097) o'z faoliyati davomida saljuqiylarning ishonchiga sazovar bo'ldi. Bu ishonch tufayli, uning avlodlari Xorazmda hukmronlik qilishni qonuniy meros sifatida qabul qilib oldilar. Anushtakinlar ma'lum bir davrgacha vaziyat taqozosi bilan saljuqiylarga xizmatda sadoqat ko'rsatdilar. Chunki, XI asr boshlaridan XII asr o'rtalariga qadar butun Sharqda, musulmon dunyosida saljuqiylardan qudratli bironta sulola va davlat bo'lgan emas. Hatto, xalifalik poytaxti Bag'dod ham, ular tasarrufida bo'lib, xalifa dunyoviy hokimiyatdan chetlashtirildi, amalda esa faqat diniy hokimiyatnigina ifodalardi, xolos. Saljuqiylar G'arbda O'rta yer dengizi va Yevropagacha cho'zilgan hududlarni egallab shonshavkatda buyuklik darajasiga ko'tarilgan edilar. Xorazmshohlar-Anushtakinlar sulolasi asoschilarining tarixiy xizmati shunda ediki, ular rasman saljuqiylarga qaram bo'lgan holda, amalda bo'lajak mustaqil Xorazm davlatining poydevorini yaratishga muvaffaq bo'ldilar.

Sulola asoschisi Anushtakindan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Qutbiddin Muhammad (1097-1127) mavjud vaziyatdan ustalik bilan foydalanib, hatto saljuqiylarning eng buyuk mavqeini xalqaro miqyosda va shuningdek, ichki tomonidan ham mustahkamlashga xizmat qildi. Saljuqiy hukmdorlarining ishonchiga sazovar bo'lgan Qutbiddin Muhammad Xorazmshoh amalda mustaqil Xorazm davlatiga asos soldi. Qutbiddin Muhammad o'ziga "Xorazmshoh" unvonini qabul qildi⁶. Uning saljuqiylarga qaramligi nomigagina, ya'ni har yili muayyan o'lpon to'lab turish tarzida bo'lgan.

Mazkur hukmdor to'g'risida «Tarxiy yodgorliklarda Xorazmshohning unvoni «Podsho qutb ad-Dunyo va ad-Din Abu al-Fath Mu'an Amir al-mo'minin» («Dunyo va din qutbi, g'alabalar otasi,

⁵ Bosvort K.E. Musulmon sulolari. – Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2007 yil. – B. 85

⁶ Вамбери Армений. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Биринчи жилд, Тошкент: 2019 йил. – Б.161.

mo‘minlar amiri xalifaning yordamchisi») so‘zlari ham Xorazmshohning obro‘i baland ekanidan shohidlik beradi», - deb yozgan Ziyo Bunyodov ⁷. «Qutbiddin Marvda ta‘lim olib, yaxshi ma‘rifat olgan, adab va din ilmlarini o‘rgangan edi. U har tomonlama iste‘dodli odam edi, olimlar va din arboblari uni yaxshi ko‘rishar, u ham ularni izzat-hurmat qilardi... Fuqarolariga adolatli, ular ham uni yaxshi ko‘rib, uning nomini aziz tutar edilar»⁸.

Qutbiddin Muhammad boshlagan xayrli ishlarni, uning o‘g‘li Al-Malik Abu Muzaffar Alovuddin Jaloliddin Otsiz davom ettirdi. U nihoyatda iste‘dodli, izzattalab, adabiyot-san‘atga homiylik qilishi bilan o‘z sulolasiga alohida shuhrat keltirdi⁹. Xorazmshoh Otsiz (1127-1156) hukmronlik davrini, asosan, ikki bosqichga bo‘lish mumkin:

1. 1127-1138-yillar

2. 1138-1156-yillar

Agar Xorazmshoh Otsiz hukmronligining birinchi davrida (1127-1138) Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilgan bo‘lsa, hukmronligining ikkinchi davrida (1138-1156) mustaqil Xorazm davlatiga asos soldi. Xorazmshoh Otsiz har bir qulay vaziyatdan foydalanib, birinchi marta xorazmshohlar davlatining hududlarini kengaytirish siyosatini boshlab berdi. Bu davrda Sharqdan kelgan yangi harbiy-siyosiy kuch ko‘chmanchi sulola bo‘lgan, islom dinida bo‘lmagan Qoraxitoylar hujumi natijasida musulmon davlatlari katta tahdid ostida qoladi. Ayniqsa, 1141-yilda Qoraxoniylar bilan Saljuqiylar qo‘shma lashkarlarining qoraxitoylar zarbasiga bardosh berolmay mag‘lubiyatga uchrashi natijasida musulmonlarning ko‘chmanchilarga qaramligi kuchayadi¹⁰. Saljuqiylar va Qoraxoniylarning zaiflashuvi Xorazmni mustaqil davlatga aylantirishga intilgan Anushtakiniylar uchun yaxshi imkoniyat yaratdi va Xorazmshoh Otsiz ushbu vaziyatdan ustalik bilan foydalandi.

⁷ Ziyo Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 9

⁸ Ziyo Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 8.

⁹ Вамбери Армений. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Биринчи жилд, Тошкент: 2019 йил. – Б. 161

¹⁰ Bosvort K.E. Musulmon sulolari. – Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2007-yil. – B. 87.

Xorazmshoh, Sulton farmonini (Sulton Sanjar- muallif) buzib, saljuqiylarga tobelikda bo‘lgan ko‘pgina yerlarni bosib oladi.

Sulton Sanjar ham Xorazmshoh Otsizning qudratini tan olishga majbur bo‘ladi. Shunday bo‘ldiki, Otsiz Sulton Sanjarni o‘limdan asrab qoladi¹¹. Bu holat Otsizning Sulton Sanjar e‘tiborida obro‘ini yanada oshirdi. Natijada siyosat maydonida kuchli davlat Xorazmshohlar davlati paydo bo‘ldi va mustahkamlandi. Strategik siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan Xorazmshoh Otsiz qo‘shni davlatlar bilan samarali diplomatik munosabatlarni o‘rnatishga intildi. V.V. Bartold uning qo‘shni davlat hukmdorlariga yozgan maktublarini «Sharqona diplomatiya namunasi» deb atagan edi¹². Bunday harakatlarning natijasida Jaloliddin Otsiz «kuchli, amalda mustaqil davlatga asos solgan»¹³.

Bu albatta, Xorazmshoh Jaloliddin Otsizning o‘z davridagi siyosiy vaziyatni chuqur anglagan mohir diplomat siyosiy arbob bo‘lganligidan dalolat beradi¹⁴. Xorazmshoh Otsiz ham barcha xorazmshohlar kabi yuksak madaniyatli hukmdor edi. “Alovuddin Otsiz otasiga o‘xshab, Marvda yaxshi ma‘lumot oldi. Otsiz musulmonlar podshohiga xos islom diniga va ilohiyot olimlariga homiylik qilishdan tashqari, turli fanlar va san‘at ahlini qadrlar, o‘zi ham forscha qasida va ruboiylar yozar, juda ko‘p buyuk shoirlarning hayotlarini yoddan bilardi. U Xorazm aholisiga g‘amxo‘r, adolatli podshohlik qildi. Fuqarolar Xorazmshoh Otsizni yaxshi ko‘rar, uning zamonida xalq xavf-xatardan mutlaqo holi, tinchlik va osoyishtalikda, adolatda yashadi”¹⁵.

Jaloliddin Otsiz vafot etgach, o‘g‘li El-Arslon 1156-yil 22-avgust kuni taxtga chiqdi (1156-1172). U ham o‘z sulolasi an‘analarini sodiqlik va sobitqadamlik bilan rivojlantirib, mamlakat sarhadlarini kengaytirish siyosatini davom ettirdi. El-Arslon 1167-yilga kelib

¹¹ Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.276.

¹² Ziyov Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 8.

¹³ Ziyov Bunyodov. – 41.

¹⁴ Машарипов Озод. Хоразм тарихидан саҳифалар. – Тошкент, 1994. –Б. 43

¹⁵ Ziyov Bunyodov. – B. 10.

Bayhaq va Sabzavor shaharlarini, shuningdek, eng yirik shaharlardan biri bo'lgan Nishopurni egalladi. Natijada, «Toj ud-Dunyo va ad-Din molik ut-Turk va al-Ajam» («Ajam va turklar podshosi») nomini oldi¹⁶. El-Arslon 1172-yil 17-mart kuni vafot etdi. El-Arslon o'limi oldidan kenja o'g'li Sultonshohni valiahd qilib tayinladi. Ammo davlat va harbiy ishlarga uning onasi Turkon Xotun bosh-qosh edi¹⁷ (Xorazmshoh Sulton Muhammadning (1200-1220) onasi emas - muallif).

Ammo Alovuddin Takash, ya'ni El-Arslonning katta o'g'li Xorazm xalqi va qo'shinlarining madadi bilan rasman 1172-yil 11-dekabrda Xorazm taxtiga o'tirdi. Oqibatda saltanatda aka-ukalar o'rtasida toj-u-taxt uchun yigirma yil davom etgan o'zaro urushlar boshlandi. Jaloliddin Mahmud Sultonshoh ibn El-Arslon (1172–1193) — Anushtakiniylar sulolasiga mansub shahzoda, Xorazmshoh El-Arslon va uning rafiqasi Turkon xotuning kenja o'g'li edi. U otasi vafotidan so'ng rasmiy valiahd sifatida Xorazmshohlar taxtiga da'vogarlik qilgan, biroq u bilan akasi Olovuddin Tekesh o'rtasidagi siyosiy kurash davlatda chuqur va uzoq davom etgan ixtiloflarga sabab bo'ldi. 1172-yil 17-mart kuni El-Arslonning vafotidan so'ng, uning vasiyatiga ko'ra Sultonshoh valiahd sifatida taxtga o'tiradi. Sultonshohning akasi Olovuddin Takash Jand viloyatida voliy bo'lib turgani uchun otasi o'limi oldidan Sultonshohni valiahd etib tayinlagan edi. Ammo, davlat va harbiy ishlarga uning onasi Turkon xotun bosh bo'lgan. Bu holat, albatta, valiahdning siyosiy mustaqilligini cheklab, uning hukmdor sifatidagi mavqeini zaiflashtirdi. Akasi Olovuddin Takash bu vaziyatni o'zining siyosiy imkoniyatiga aylantirdi. U Jand viloyatida voli bo'lib turgan bo'lsa-da, otasi vafotidan so'ng valiahd Sultonshoh hukmronligini tan olmadi. Takash Qoraxitoylardan harbiy yordam olib, poytaxt Gurganjga yurish qildi. Bu vaziyatda Sultonshoh va Turkon Xotun xavfsizlik maqsadida Nishopurga qochishga majbur bo'lishdi va u yerda Muayyid Ad-davla huzuridan siyosiy pano

¹⁶ Ziyoy Bunyodov. – B. 47.

¹⁷ Ziyoy Bunyodov. –B. 52.

topdilar. 1172-yil 11-dekabrda Takash rasmiy ravishda Xorazm taxtiga o'tirdi, biroq Sultonshoh bilan Takash o'rtasidagi kurash yana 20 yil davom etdi. Sultonshoh Xurosondagi bir qancha viloyat, shaharlarni egallab, Marv shahrini o'ziga qarorgoh qilgan. U Takashga qarshi kurashda goh qoraxitoylardan, goh G'uriylardan ko'mak olib turgan. Sultonshoh ancha vaqtgacha Xurosonda hukmronlik qilib, taxt uchun akasiga qarshi shiddatli kurash olib bordi. Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, Sultonshoh ham ancha qobiliyatli va ma'rifatli hukmdor edi. Ammo, hokimiyatga intilish hissi uning aqlidan ustun keldi. Uzoq kurashlardan keyin, ya'ni 1188-yil bahoriga kelibgina vositachilar ishtirokida aka-ukalar o'rtasida sulh tuzilib, Sultonshoh akasi Takash hukmronligini tan oldi. Bu voqea Xorazmshohlar davlatining siyosiy barqarorligini tiklashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sulton Takash ukasiga qarshi kurashish bilan birgalikda, saltanatni mustahkamlash va sarhadlarini kengaytirish siyosatini davom ettirdi. Takash davrida Dehiston qo'shib olindi. Sultonshoh ancha vaqtgacha Xurosonda hukmdorlik qilib, taxt uchun akasiga qarshi shiddatli kurash olib bordi. Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, Sultonshoh ham ancha qobiliyatli va ma'rifatli hukmdor edi. Ammo, hokimiyatga intilish hissi uning aqlidan ustun keldi. Uzoq kurashlardan keyin, ya'ni 1188-yil bahoriga kelibgina vositachilar ishtirokida aka-ukalar o'rtasida sulh tuzilib, Sultonshoh akasi Takish hukmdorligini tan oldi. Shundan keyingina, 1189-yil 4-iyulda Rodekon (Rodigon) shahrida Takashning sultonlik taxtiga chiqish marosimi o'tkazildi¹⁸. Ammo Sultonshoh buzg'unchilik ishlarini davom ettirib, akasiga qarshi kurashda g'uriylardan madad so'rab bordi. Biroq, u o'z maqsadiga erisha olmadi. Faqat 1193-yilda Sultonshohning vafoti ushbu ayovsiz kurashga xotima yasadi¹⁹.

Endi Xorazmshoh Takash hech qanday xavotirsiz o'z davlatini mustahkamlash va sarhadlarni kengaytirish siyosatini yanada kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1194-yili Marvni qo'shib oldi.

¹⁸ Ziyoyunov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 58.

¹⁹ Ziyoyunov. – B. 61.

Hatto, qoraxitoylar yurti Bolasog‘ungacha bo‘lgan hududlarni qo‘shib olish siyosatini olib bordi. 1194-yil 4-mart kuni Shimoliy Eron hududida bo‘lgan jangda saljuqiylarning so‘nggi hukmdori Tug‘rul-III qo‘shinlari tor-mor keltirildi va Eron hududlarida saljuqiylar hukmronligi tugadi, Hamadon va Iroq Ajami (Sharqiy Eron hududlari) yerlarini bo‘ysundirdi. Xalifa An-Nosir (1180-1225) qo‘shinlarini bir necha marta yengib, juda katta hududlarda o‘z hukmronligini o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi. “Xorazmshohlar davlatining bir qadar kuchayishi Alouddin Tekesh faoliyatining natijasi bo‘ldi. Bu esa uzoq davom etgan og‘ir janglar natijasida, shuningdek, yakka hokimlik uchun kurashlarda qo‘lga kiritildi”²⁰

Sulton Takash 1200-yil 3-iyulda Shahrison shahrida vafot etdi. Takash Xorazmshohlar saltanatining (imperiyasining) asoschisi edi. Shunday ulkan saltanat hukmdori bo‘lishi bilan birgalikda u adolatni yaxshi ko‘rardi. «Xorazmshoh Takash o‘z fuqarolariga nisbatan adolatli bo‘lgan, odatdan tashqari qobiliyatga ega, buyuk diplomat va lashkarboshi edi», deb ma’lumot beriladi tarixiy manbalarda²¹. Sulton Takash o‘z o‘g‘li Alovuddin Muhammadga mustahkam va ulkan saltanatni meros qilib qoldirdi. Uning davrida Qoraxitoylarga bir necha marta zarbalar beriladi.

Sulton Alovuddin Muhammad ham o‘z sulolasining ichki va tashqi siyosat bilan bog‘liq an‘analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirib, saltanat sarhadlarini yanada kengaytirdi. Sulton Muhammadning Islom olami oldidagi katta xizmatlaridan biri, musulmon o‘lkalarini tinimsiz talon-taroj qilayotgan, katta miqdorda o‘lpon olib, zulm qilayotgan ko‘chmanchi qavm bo‘lgan va islom olamida “kofir”lar deb talqin qilinayotgan Qoraxitoylarning zo‘rovonliklariga barham bergani bo‘ldi. Sulton Muhammad Yettisuv va Sharqiy Turkistonda qudratli davlat qurgan Qoraxitoylarga qarshi

²⁰ Машарипов Қ.Ю. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни.Т.ф.д (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим қилинган диссертация. – Тошкент, 2021. – Б. 82.

²¹ Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.276.

kurashish maqsadida o‘ziga ittifoqchilar izlay boshlaydi. Bu paytda Xorazmshoh Sulton Muhammad oldidagi eng katta tashvish unga qo‘shni bo‘lgan qoraxitoylarga qarshi kurash masalasi edi. 1205/1206-yillarda Xurosonni to‘liq egallab, janubiy sarhadlarning xavfsizligini ta‘minlagan Alovuddin Muhammad Qoraxitoylarga qarshi urush harakatlarini boshlaydi. Shunday bir vaziyatda Buxoro va Samarqand hukmdori, sultonlar sultoni, Qoraxoniylardan bo‘lgan xonlar xoni Usmon va Mavoraunnahrning e‘tiborli kishilari Xorazmshoh Muhammadga murojaat qilib, qoraxitoylardan himoyalanih maqsadida undan yordam so‘rashadi²². Bu paytda Mavoraunnahrning har bir shahrida qoraxitoyliklarning beklari bo‘lib, ular qo‘l ostidagi musulmonlarga jabr qilar, aholini talar va to‘plagan boyliklarini O‘zgand, Bolsog‘un va Qashqarga jo‘natar edilar²³. Samarqand hokimi Usmon Sulton Muhammadga maktub yozib, ularni “kofir”lar zulmidan ozod qilishni, qoraxitoylarga qarshi kurashda unga ittifoqchi bo‘lishini, qoraxitoylarga jo‘natilayotgan barcha to‘lov va o‘lponlarni unga berishini, Xorazmshoh nomiga xutba o‘qishini va tangalar zarb qilishini bildiradi²⁴.

Qoraxoniylar hukmdori Usmonning iltimosini qabul qilgan Xorazmshoh 1206-yilda Buxorodagi voqelarga aralashib, u yerda Buxoroning e‘tiborli kishilar yordamida malik Sanjar qo‘zg‘olonini bostiradi va shu bilan birga Qoraxitoylar hukmronligiga barham beradi²⁵. Sulton Muhammad Samarqand hokimi, qoraxoniylar hukmdori bo‘lgan Usmonga elchilar yuboradi. Usmon Xorazmshoh elchisi amir Dort-Aboni hurmat va ehtirom bilan qabul qilib, qoraxitoylarga qarshi ittifoq tuzadi²⁶. Shunday qilib, Xorazmshohlar va Qoraxoniylar bir tarafdandan va ikkinchi tarafdandan qoraxitoylar ham urushga jiddiy tayorgarlik ko‘ra boshlashadi. Ammo, jang vaqtida Xorazmshohning ayrim amirlarining xiyonati bois, Qoraxitoylar

²² Bunyodov Ziyov. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent, 1998-yil. – B.98.

²³ O‘sha asar va o‘sha bet.

²⁴ O‘sha asar va o‘sha bet.

²⁵ Alovuddin Atomulk Juvayniiy. Tarixi Jahongusho, II-jild. – Toshkent, 2015. – B.325.

²⁶ O‘sha asar. – B. 332.

g'alaba qozonadi. Hatto, Sulton Muhammad asirga tushadi. Ammo, tadbir ishlatib asirlikdan qochishga muvaffaq bo'ladi²⁷.

Gurganjga eson-omon yetib kelgach, o'zining asirga tushganligi yoki halok bo'lganligi haqidagi xabarlar ortidan Xorazm va Xurosonda ro'y bergan tartibsizliklar, isyonlarni bostirib, mavqeini yana mustahkamlab olgan Alovuddin Muhammad qoraxitoylarning zulmiga butunlay chek qo'yish maqsadida Samarqand hokimi Usmon bilan yana birgalikda harakat boshlaydi. Xorazmshoh qo'shinlari 1210-yilda Sirdaryoning kechib o'tib, Yettisuvdagi Ilamush sahrosida tajribali sarkarda Tayangu boshchiligidagi qoraxitoy armiyasini mag'lubiyatga uchratadi²⁸. Tayangu asir olinadi va keyinchalik Gurganjga olib ketilib, Amudaryoga cho'ktiriladi. Movarounnhrning barcha shahar va qishloqlari to Uzkontgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar-Anushtakinlar saltanatiga qo'shib olinadi²⁹. Bu fathdan keyin Sultonga atrofda hukmdorlarning itoat istagi yanada oshdi. Uning muborak muhriga "Allohning erdagi soyasi" deb yozdilar³⁰. Shu voqelardan keyin Xorazmshoh Muhammad o'z qizi Xonsultonni Usmonga nikohlab beradi va uni o'z o'rnida hokim qilib qoldiradi³¹. Xorazmga qaytishda Xonlar xoni Usmonni kuyov sifatida o'zi bilan birga Gurganjga olib ketadi va u yerda bir yil qolib ketadi*. Sulton Muhammad 1212-yilda Qoraxitoylar ustiga ustiga ikkinchi marta yurish qilish uchun harbiy qo'shini bilan Samarqandga kelganida, uning arkon-u-davlati orasida Usmonning yo'qligi ko'rgan mahalliy

²⁷ O'sha asar. – B. 332.

²⁸ O'sha asar. – B. 334.

²⁹ Bunyodov Ziyoy. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent, 1998-yil. – B.102.

*Xorazmliklarda azaldan ko'yovlarga nisbatan yaxshi bir odat bo'lgan, unga ko'ra ko'yov (yoki kelin) albatta, kamida bir yil davomida kelinning(kuyovning) ota-onasi, yaqinlari bilan gaplashmasdan yurgan, bu davrda kuyov aziz mehmon sifatida e'zozlangan, hurmat-e'tibor ko'rsatilgan. 1210-yilda Xorazmshoh ikkinchi marta Qoraxitoylar ustiga harbiy yurish uchun Samarqandga ketayotgan paytida, Usmonni ham olib ketmoqchi bo'ladi, ammo, onasi Turkon Xotun kuyovga nisbatan bir yillik "chilla" yoki "siylanish" vaqti bitmaganligi bois, Xorazmshoh bilan uni Samarqandga ketishiga izn bermaydi. Samarqandga kelgan ayonlar orasida Usmonni ko'rmagan mahalliy aholi, uning solamatligi yoki tirikligiga shubha qilib g'alayon boshlaydi. Shu bois Sulton Muhammad uni qizi bilan Samarqandga olib keltiradi (Saidov Shavkat- bu haqda batafsil ushbu maqolada ma'lumot bergan)

³⁰ Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.330.

³¹ O'sha asar. – B.330.

aholi o'z hukmdorining taqdiridan xavotirlanib, noroziligini boshlaydi³². Xorazmshoh Muhammad xalqning talabi bilan Usmonni Samarqandga olib keladi. Ammo, Usmonning Samarqandga kelishi Xorazmshoh foydasiga bo'lmaydi. Sulton Usmon shaharda yo'qligida Xorazmshohning bu yerdagi vakili Dort-Abo* hamda ularning odamlari nojo'ya ishlar qildilar, mahalliy aholiga jabr qildilar³³. Usmon Samarqandga qaytgach xorazmliklarni qirib tashlashni buyuradi. Hatto o'zi va yosh xotini - Xorazm malikasi Xonsulton bilan birga kelgan xorazmliklarni ham qirib tashlaydi. Xonsultonni esa boshqa xotini, Qoraxitoyliklar hukmdori Go'rxonning qiziga xizmatkor bo'lishga majbur qiladi. Ammo, Xonsulton tirik qolgan xorazm askarlari, sodiq kanizaklari va ba'zi samarqandliklarga tayanib, Samarqand ichidagi qa'laga kirib oladi. Ushbu vaziyatda xonlar xoni Usmon xorazmliklardan voz kechib, Go'rxonga elchi yuboradi va unga to'liq bo'ysunishini bildiradi. Mazkur voqealardan g'azab otiga mingan Sulton Muhammad katta qo'shin bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Juda qattiq janglardan keyin Samarqand qaytarib olinadi. Xonlar xoni Usmon asirga tushadi. Sulton uni afv etmoqchi bo'lganida, qizi Xonsultonning talabi bilan 1212-yilda qatl qilinadi³⁴. Shundan keyin, Usmonning barcha qarindoshlari va yaqinlari ham qatl qilinadi. Samarqand xonlarining boshqa shaharlardagi urug'-aymoqlari hamda qoraxoniylar sulolasining barcha vakillari yo'q qilinadi³⁵.

Mazkur g'alabadan keyin Xorazmshohlar davlati musulmon Sharqining eng qudratli davlatlaridan biriga aylanadi. Sulton Muhammad davrida (1200-1220) saltanat tarkibiga sharqda Yettisuv, Qoshg'ar, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlar, g'arbda Iroq (xalifalik), Kavkaz yerlarigacha, shimolda Dashti Qipchoq kengliklaridan, janubda to Hind okeani va Fors ko'rfazigacha bo'lgan

*Dort-Abo- Juvayniyda To'rt Abo deb berilgan (muallif)

³² Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.362.

³³ Bu ishlarni Dort-Abo ataylab, Xorazmshohning obro'zlantirish uchun qilgan degan da'volar ham aytiladi (muallif izohi)

³⁴ Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.363.

³⁵ Bunyodov Ziyο. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent, 1998-yil. – B.103

hududlar kirardi³⁶. Hatto eng chekka Ummon (Arabiston yarim oroli-muallif) yerlarida ham Muhammad nomiga xutba o‘qilardi³⁷.

Shunday ulkan hududda markazlashgan davlatning tashkil topganligi turli xalqlar o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarni nihoyatda rivojlanishiga olib keldi, o‘zaro urushlarga chek qo‘yilib, xalqning tinchligi ta‘minlandi. Mirzo Ulug‘bek bu holatni shunday ifodalaydi: «Mo‘tabar tarixlarda bitilmish va zikr etilmishkim, Sulton Muhammad Xorazmshoh zamonida Eron va Turon davlati bag‘oyat osoyishtalikda va so‘lim edi. Chunonchi, agar ko‘zi ojiz kampir qizil oltin to‘la tashtni boshiga qo‘yib Mashriqdan Mag‘ribga jo‘naydigan bo‘lsa, biror jonzot unga daxl qilmagan. Shox shu darajada kuchaydiki, mamlakatda birorta ham o‘g‘ri qolmadi»³⁸. Mo‘g‘ullar bosqini arafasida Xorazmda bo‘lgan arab sayyohi va geografi Ibn Yoqut ham Xorazmning yuksak darajada taraqqiy etgan o‘lka ekanligini qayd qilib o‘tgan edi³⁹.

G‘arb, xususan, rus tarixchilari Sulton Alovuddin Muhammad hukmronligi davrini o‘ziga xos «Renessans» davri, ya‘ni «Xorazm Uyg‘onish» davri deb ataganliklarini hisobga olsak, uning naqadar buyuk hukmdor bo‘lganligini ko‘ramiz. Sulton Alovuddin Muhammadning yuksak madaniyatli va ma‘rifatli shaxs bo‘lganligi shubhasizdir. U yoshligidanoq saljuqiylar davlati poytaxti Marvda, shuningdek, o‘sha davrda Sharqning eng go‘zal va katta shahari hisoblangan Xorazmshohlar poytaxti Gurganjda zamonasining buyuk allomalaridan yetarli bilim olgan.

Bu davrdagi voqea-hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va to‘g‘ri xolis xulosalar chiqarishi mumkin bo‘lgan inson Shahobiddin An-Nasaviy Sulton Muhammadning hukmronligini yuksak baholab shunday deydi: «Uning amalga oshirgan ishlari nihoyatda ulug‘ edi, otasi unga Xuroson va Xorazm hukmdorligini meros qoldirdi, u bunga

³⁶ Bunyodov Ziyo. – B. 51.

³⁷ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva, 1963. – S. 437.

³⁸ Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 125.

³⁹ O‘sha asar. – B. 125.

Iroq va Mozandarinni ham birlashtirdi. Shu bilan birga, qo‘l ostiga Kirmon, Kesh, Seyiston, G‘ur, O‘azni, Bomiyon mamlakatlarini, Hindistonning vodiylariga qadar maskanlarni qo‘shib oldi. Bu ishlarning hammasini qilichlar qindan chiqarilmasdan, hatto qinlar yelkalarga osilmasdan amalga oshirildi, bu mamlakatlarni ortiqcha kuchsiz, kurashsiz, zo‘ravonlik va vayronagarchiliksiz, faqat tahdid va qo‘rqitish bilan bosib oldi. U o‘z qo‘l ostiga to‘rt yuzga yaqin shaharlarni birlashtirdi. Boshqa birov bo‘lganda bu darajada muvaffaqiyatga erishishi qiyin kechardi, u esa bir og‘iz so‘z bilan qo‘l ostiga shuncha miqdordagi mulkni to‘pladi»⁴⁰.

Ulug‘ qobiliyatli sarkarda, mohir diplomat va ma‘rifatparvar hukmdor bo‘lmaganida, Sulton Alovuddin Muhammad bu qadar yuksaklikka ko‘tarilmagan, o‘zi esa, buyuk hukmdorga, Markaziy Osiyo, jumladan Xorazm, Xuroson va Movarounnahr yuksak fan va madaniyat markaziga aylanmagan bo‘lardi. Bularning barchasi Sulton Alovuddin Muhammadning adolatli hukmdor hamda fan va madaniyat homiysi bo‘lganligidan dalolat beradi. Uning vaziri Shahobiddin Xivaqiy o‘z davrining eng bilimli, ma‘rifatli davlat arboblardan bo‘lgan. Islom dini qonunlarini mukammal bilgan. Davlat boshqaruvining barcha masalalarida o‘ziga xos mustaqil fikrga ega bo‘lib, doim adolat yuzasidan ish ko‘rgan. An-Nasaviyning yozishicha, Xorazmshoh Sulton Muhammad barcha ishlarda dono vaziri Shahobiddin Xivaqiy bilan maslahatlashgan va uning fikrlariga quloq solgan.

Mo‘g‘ullar hujumi jarayonidagi voqealar bu ulkan saltanatning siyosiy asoslari ancha bo‘sh ekanligini ko‘rsatdi. Mamlakatdagi turli siyosiy kuchlar o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash, xalq millat uchun og‘ir kunlarda dushmanga qarshi yakdil bo‘lib birlasha olmaslik, aksincha, o‘zaro nizo, fisqu-fasodlarning yanada kuchayishi, oxir-oqibat saltanatni halokatga olib keldi. Zamondoshlarini va keyingi avlod vakillarini hayron qoldirib, juda qisqa muddatda (uch yil

⁴⁰ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 16.

davomida) magʻlub boʻlgan bu ulkan saltanatning va uning xukmdori Xorazmshoh Sulton Muhammadning achchiq taqdiri hozirgi avlod uchun achchiq saboq boʻlmogʻi lozim. Zero, tarix saboq olish uchun manbadir.

1.2.Xorazmshohlar davlati siyosiy hayotida Turkon Xotunning tutgan oʻrni

Xorazmshohlar davlati tarixida Sulton Alovuddin Takash (1172-1200) Xorazmshohning xotini malika Turkon Xotunning (Turkon Xotun -«turklar malikasi, hokimasi» degan maʼnoni bildiradi) alohida oʻrni bor. Turkon Xotunning kelib chiqishi qaysi urugʻga tegishli ekanligi toʻgʻrisida tarixiy manbalarda turlicha fikrlar bildiriladi. Juvayniy yozishicha “Turkon Xotun asli “qangʻli” nomi berilgan turk qabilisidan boʻlgan⁴¹. Xorazmshohlar davlati tarixiyning bilimdoni Ziyo Bunyodov «Turkon Xotun qipchoq Xoni Jonkishi Xonning qizi», - deb yozadi ⁴². An-Nasaviy «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Mankburn» asarida Turkon Xotunga maxsus 19-bobni bagʻishlab, «Turkon Xotun hayotining baʼzi jihatlari va feʼl atvori» deb nomlaydi. Shu yerda An-Nasaviy Turkon Xotunning qaysi urugʻdan ekanligi haqida: «U turk mamlakatlaridan birining hukmdori Kishixonning qizi edi. El-Arslonning («Xorazmshoh» hukmronligi 1156-1172 - muallif) oʻgʻli Takash hukmdorlarning oʻgʻli hukmdorlarning qizini olgani kabi unga uylanadi», deb yozadi⁴³.

Ziyo Bunyodov An-Nasaviy asariga yozgan izohlarida boshqa tarixchilarning ham bu haqdagi maʼlumotlarini keltirib oʻtadi. «Juvaynining maʼlumot berishicha, Turkon Xotun qangʻli urugʻidan boʻlgan. Juzjoniy uni qipchoq xoni Akron (ikron) qizi deydi», deb yozadi Ziyo Bunyodov⁴⁴. An-Nasaviy esa «Turkon Xotun Bayot urugʻidan edi. Bayot urugʻi Yemek qabilasiga mansub hisoblanadi» deb

⁴¹ Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.415.

⁴² Ziyo Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 83.

⁴³ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 91.

⁴⁴ Ziyo Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 91.

yanada aniqroq yozadi⁴⁵. Bu ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Turkon Xotunning vatani Xorazmning shimolidagi hududlar, ya'ni Dashti qipchoq bo'lganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Turkon Xotun Xorazmshoh Alovuddin Takashga (1172-1200) turmushga chiqqanidan keyin: «o'zi bilan birga Xorazmga turk qabilalarini (manbalarda uraniylar, qorluqlar, ug'roqlar, xalaj qabilalari deb yoziladi) olib keladi va vaqti kelib ularning qudratli homiysiga aylanadi»⁴⁶.

Manbalar va tarixiy asarlarda Turkon Xotunning Alovuddin Takashga turmushga chiqqanidan keyin, davlat ishlariga va siyosatga qanchalik aralashganligi yoki aralashmaganligi to'g'risida biror ma'lumot qoldirilmagan. Qoldirilgan bo'lsa-da, biz bundan bexabarmiz. Faqat Sulton Takash juda qat'iyatli, uzoqni o'ylovchi tadbirkor hukmdor, mohir diplomat va qobiliyatli lashkarboshi bo'lganligi uchun davlat ishlarini bemalol o'zi boshqargan degan qat'iy xulosaga kelishimiz mumkin.

1200-yil 3-avgustda Xorazmshoh Takash vafot etganidan so'ng, taxtga uning va Turkon Xotunning o'g'li Qutbiddin Muhammad o'tirdi. Xuddi shu davrda, ya'ni o'g'li Qutbiddin Muhammad Alovuddin (1200-1220) davrida Turkon Xotunning butun fe'l-atvori va qobiliyati to'liq yuzaga chiqadi. Bunda uning shaxsiy xislatlari ham katta rol o'ynaganligi shubhasizdir. Bu haqda, ya'ni Turkon Xotunning shaxsi to'g'risida Ziyo Bunyodov: «Turkon Xotun hokimona fe'l atvorga ega bo'lgan qasoskor va rashkchi ayol edi. Turkon Xotun o'z urug'lariga tayanib katta hokimiyatga ega bo'ldi. O'g'li Alovuddin Muhammad hukmronligi davrida o'z atrofidagi (aniqroq, o'z urug'idan - muallif) odamlarni yuqori harbiy lavozimlarga ko'tarilishini ta'minladi», - deb yozadi⁴⁷.

An-Nasaviy Turkon Xotunning Sulton Muhammad davlatidagi o'rniga baho berar ekan, uni deyarli cheksiz hokimiyatga ega

⁴⁵ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 91.

⁴⁶ Ziyo Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. –B. 84.

⁴⁷ O'sha asar. –B. 84.

bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tadi. «Hokimiyat Sulton Muhammadga otasi Takashdan meros bo‘lib o‘tgandan keyin Emek va unga qo‘shni bo‘lgan boshqa qabilalar uning davlati tarkibiga kelib qo‘shildilar. Shu sababli Sultonning qudrati oshdi. Bu esa ularni yanada ulug‘ladi, natijada Turkon Xotun mamlakatni boshqara boshladi»⁴⁸.

Xorazmshohlar davlati tarixining chuqur bilimdoni Ziyo Bunyodov ko‘pgina tarixiy manbalarni o‘rganish asosida bu fikrni yanada rivojlantirib shunday deb yozadi: «Xorazmshohlar davlatining tarixida Sulton Muhammad hukmdorligi davrini o‘rganar ekanmiz, unda Turkon Xotunning yetakchi rol o‘ynaganligini, uning buyruq va maslahatlari Sulton Muhammad tomonidan so‘zsiz bajarilganligini kuzatishimiz mumkin. Mantiqan olib qaraganda, u (Turkon Xotun) mamlakatda ikkinchi, ehtimol birinchi shaxs bo‘lgan deyish mumkin»⁴⁹. «Mo‘g‘ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatida o‘ziga xos diarxiya – ikkihokimlik tuzumi yuzaga keldi: mutlaq hukmdor deb Xorazmshoh Sulton Alouddin Muhammad hisoblanardi, aslida u onasi Turkon Xotunning to‘la itoatida edi. Turkon Xotun esa davlatning ichki va tashqi ishlarida ikkinchi hukmdor edi, deyish mumkin, ayrim masalalarda hatto o‘g‘liga muxolif edi ham»-deb o‘z fikrini davom ettiradi⁵⁰.

Alovuddin Atomalik Juvayniy "Tarixiy Jahongushoyi" asarida: «Turkon Xotun nafaqat Sulton ustidan hukmronlikka ega edi, balki uning moliyaviy ishlariga, oliy darajadagi lashkarboshilarga, saroy xodimlariga ham rahbarlik qilardi... Turkon Xotun hukmronlik uchun Gurganjni poytaxt qilib olgandi. O‘z saroyi, o‘z mulki bor edi», deb qayd qilib o‘tgan edi⁵¹.

Bunday holat Sulton Takash davrida juda mustahkam bo‘lgan davlatning asta-sekinlik bilan ichidan yemirilishiga yo‘l ochib berdi. «Turkon Xotunning siyosati natijasida alohida turk harbiy feodal

⁴⁸ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 91.

⁴⁹ O‘sha asar. – B. 92.

⁵⁰ Ziyo Bunyodov. Xorazmshohlar Anushtaginlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 159.

⁵¹ Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.415.

tabaqasi paydo bo'lishiga olib keldi va amalda Xorazmshoh-Anushtakinlar davlatining halokatiga sababchi bo'ldi», - deb kuyunib yozadi Ziyoy Bunyodov⁵².

Shunday qilib, Turkon Xotun Xorazmshohlar davlatida juda katta hokimiyat va ta'sirga ega edi. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, hatto Turkon Xotun o'z o'g'li Xorazmshoh Sulton Muhammadning farmonlarini to'xtatib qo'yar yoki bekor qilardi. Bu esa amalda davlat tizimi Xorazmshohning onasi qo'lida bo'lganligini ko'rsatadi.

An-Nasaviy Turkon Xotunning shaxsiy fazilatlariga ham to'xtalib o'tarkan, shunday deb yozadi: «U ulug'vor va aqlli ayol edi. Unga shikoyat yoki arznomalar kelgudek bo'lsa, ularni sinchkovlik bilan adolat nuqtayi nazaridan ko'rib chiqardi va jabr qiluvchining zulmi ostida ezilgan odam tarafini olardi». Vaholanki, An-Nasaviy Sulton Jaloliddinning xizmatida bo'lgan davlat arbobi edi. Turkon Xotun esa bu nevarasini o'z urug'idan emas, boshqa urug'dagi kelinidan bo'lganligi uchun ham yomon ko'rardi. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, An-Nasaviyning Turkon Xotun haqidagi yuqoridagi fikri nihoyatda xolislik bilan yozilganligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. An-Nasaviyning bu gaplari Turkon Xotun to'g'risida shu paytgacha shakllangan fikrlarimizni birmuncha o'zgartirishga olib keladi.

Ziddiyatli xarakterga ega bu ayolning, o'rni kelganda, adolatpesha hokima bo'lganligi ko'pchilik uchun yangilik bo'lishi mumkin. Ammo, bu tarixiy haqiqatdir. An-Nasaviy uning davlat va mamlakatni rivojlantirish uchun qilgan ishlarini aytib o'tib: «U mamlakat uchun ko'p yaxshi ishlar qildi», deb ta'kidlaydi.

Turkon Xotun davlatning boshqarish va ish yuritishning puxta tartibini joriy qilib, xizmatga aqlli, tadbirkor kishilarni jalb qiladi. «Uning kotiblari («Kutab al-Insho») yettita edi. Ularning hammasi mashhur, o'z davrining atoqli va olijanob insonlari edi» deb yozadi An-Nasaviy⁵³. Bundan tashqari, Turkon Xotunning o'z shaxsiy «Devon al-

⁵² Ziyoy Bunyodov. Xorazmshohlar Anushtakinlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 84.

⁵³ Ziyoy Bunyodov. Xorazmshohlar Anushtakinlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 84.

Insho»si bo‘lganligi ham davlat miqyosidagi ishlarni va masalalarni mustaqil ravishda hal qilish imkoniga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Turkon Xotun faoliyatiga baho berishda o‘g‘li Xorazmshoh Sulton Muhammad bilan o‘zaro munosabatlar mohiyatini tushunish ham muhimdir. Davlat hukmdori bo‘la turib, nima sababdan Xorazmshoh butun inson-ixtiyorini onasi qo‘liga berib qo‘ydi. Bizningcha, buning uchta muhim sababi bo‘lishi mumkin. Birinchidan, Sulton Muhammad qat’iyatli, bir fikrli, uzoqni o‘ylovchi tadbirkor xukmdor bo‘lgan emas (vaholanki, uning ajdodlari Jaloliddin Otsiz, El-Arslon, Takashlar huddi shunday hukmdorlar edi). Manmanlik, o‘z shaxsiga ortiqcha baho berish, davlatni boshqarishda chuqur o‘ylab ish yuritmaslik va shaxsiy fe‘l-atvoridagi og‘ir vaziyatga tushganda o‘zini yo‘qotib qo‘yish kabi salbiy xususiyatlar Sulton Muhammadga xos edi. Farmonbardor tabiatli Turkon Xotun bu holatdan foydalanib, o‘g‘lini o‘z izmiga bo‘ysundirganligini oddiy hol deb qarash mumkin.

Ikkinchidan, Sulton Muhammad, ko‘pgina tarixchilar o‘ylaganidek, onasidan qo‘rqan emas, balki qattiq hurmat qilgan deb fikr yuritishga to‘la asos bor. Bu fikrni An-Nasaviy ham o‘z asarida ta’kidlab o‘tgan. Ziyo Bunyodov ham, Sulton Muhammad o‘z onasini qattiq hurmat qilganligini tasdiqlaydi ⁵⁴.

Uchinchidan, Sulton Muhammadni bu masalada, ya’ni onasining davlatidagi mavqei bilan hisoblashishga majbur qilgan yana bir muhim omilni gapirib o‘tish kerak. Davlat tayanchi bo‘lgan Xorazmshoh qo‘shinlarining asosiy ismini Turkon Xotun urug‘idan bo‘lgan sarkardalar, amirlar boshqargan lashkarlar tashkil qilgan. Buning ustiga Xorazmshoxlarning asosiy tayanch shaharlarini (Gurganj, Buxoro, Samarqand, O‘tror va boshqalar) boshqarish Turkon Xotun urug‘doshlari qo‘lida bo‘lgan. Masalan, O‘tror hokimi Inolxon Chingizxondan elchi bo‘lib, savdo-sotiq maqsadlarida kelgan (ammo tarixiy manbalar ularni josuslik maqsadlarida kelganligini ham tasdiqlaydi - Saidov.Sh.) 450 ta savdogarni qirib tashlaganida,

⁵⁴ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 90.

Chingizxon Inolxonni topshirishni talab qilganligi, o'g'li Jaloliddin Inolxonni Chingizxonga topshirishni iltimos qilgan bo'lishiga qaramasdan Sulton Muhammad O'tror hokimini mo'g'ullarga topshirmaydi. Chunki, Inolxon onasining urug'idan bo'lib, bu ular tomonidan norozilikka va qattiq qarshilikka sabab bo'ladi, deb qo'rqadi. Nima bo'lganda ham Xorazm davlati Sulton Muhammad davrida yuksalib, XIII asr boshida musulmon sharqidagi eng buyuk davlatga aylandi. Uning hududlari shimolda Dashti Qipchoq, Orol dengizining shimoliy qirg'oqlaridan, janubda Hind ummonigacha, sharqda Yettisuv va Qoshg'ar hududlaridan, g'arbda Eron, Iroq, Kavkazgacha bo'lgan yerlarni qamrab olgan edi. Xorazmshohlar saltanatining bunday yuksalishida Turkon Xotunning ham xizmati beqiyos bo'lganligi shubhasizdir. Ammo, Turkon Xotun ham bu yuksalishdan o'z shaxsini ulug'lash uchun foydalandi. Uning ishi yurishib, mavqei mustahkamlanib bordi, shunda u «Xudovandi jahon» («Jahon malikasi») degan laqabni oldi. U farmonlariga quyidagi to'g'ro bilan imzo chekardi: «Ulug' Turkon, mo'minlarning va tinchlikning himoyachisi, ikki olam ayollarining malikasi. Uning shiori «Faqat, Alloh Taolodan himoya istayman» degan so'zlar edi⁵⁵. Shuni ta'kidlash kerakki, Turkon Xotun o'z hokimiyatining yuksalishi davrida adolatsizliklarga ham yo'l qo'yadi. «Ammo u qotillikni mardlik nishonasi deb bilardi», deb yozadi An-Nasaviy⁵⁶. Mamlakat poydevorining yanada susayishiga olib kelgan sabablaridan biri shu ediki, Turkon Xotun ham, uning o'g'li Xorazmshoh ham Gurganjda garov sifatida turgan kishilarni yoki Xorazmshohlar davlatiga qo'shib olingan mamlakat va o'lka hokimlarini qatl etib turardilar⁵⁷.

Hatto, Turkon Xotun mo'g'ullar Gurganjga yaqinlashayotganligini eshitib, Xorazmni tark etishdan oldin vahimaga tushib, tarix oldida kechirilib bo'lmas adolatsizlikka yo'l qo'ydi.

⁵⁵ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. –B. 91.

⁵⁶ O'sha asar. – B. 91.

⁵⁷ Qarang: Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.415; Ziyu Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 160.

Gurganjni tashlab ketayotganida saroyda garov sifatida asirlikda saqlanayotgan 27 hukmdorni, ularning o'g'illarini Amudaryoga cho'ktirishga buyruq beradi. Bu voqeani an-Nasaviy shunday hikoya qiladi: «U ketishidan oldin asrlar bo'yi o'zi uchun sharmandali bo'lgan, abadiy la'nat bilan eslanadigan bir adolatsiz ishni qildi. Xorazmda asirlikda bo'lgan hukmdorlarni, ularning o'g'illarini, yuqori martabali zotlarni, olijanob insonlarni, sadrlarni qatl qildirdi»⁵⁸.

An-Nasaviy ta'kidlaganidek, Turkon Xotunning bu qilmishi hech qanday maqsad bilan oqlab bo'lmaydigan jinoyat edi. Turkon Xotun Xorazmdan chiqib Xurosonning janubida, Eronda joylashgan, juda mustahkam hisoblangan Ilol qal'asiga borib bekinadi. 1220-yilda mo'g'ullar uzoq qamaldan keyin qal'ani zabt etishdi. Turkon Xotun, Xorazmshohning xotinlari, bolalari asir olindi va Chingizxon huzuriga Taloqonga jo'natildi. Chingizxon Xorazmshoh o'g'illarini qatl etishga buyurdi. Turkon Xotun qo'lida yoshi jihatidan eng kichik nabirasi hisoblangan Kamoxishoh qoladi.

Turkon Xotun asir tushganidan keyin, Chingizxon uni o'z poytaxti Qoraqurumga olib ketadi. Bu davrda Sulton Jaloliddin juda katta saltanat tashkil qilganligini eshitib xizmatkorlaridan biri «O'g'ling o'g'li, yuraging gavhari Jaloliddin yoniga qochaylik» degan taklif qilganlarida, «Bunaqa gaplarni bas qil, yo'qol! Men qanday qilib Oychechakning (Jaloliddin oyisining ismi) o'g'li marhamatiga qaram bo'lib yashayman. Hatto boshimdan kechirayotgan sharmandalik va xo'rlik ham uning huzuriga borishdan a'lo» deb javob beradi⁵⁹.

Bu gaplardan Turkon Xotunning ko'nglida mard Jaloliddinga nisbatan qanchalik nafrat bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Aslida saltanatni halokatga olib kelgan asosiy sabab ham mana shu nafrat, ko'rolmaslik illati emasmi? Turkon Xotun umrining oxirigacha Qoraqurumda asirlikda yashadi. «Uning asirlikdagi ahvoli nihoyat og'ir edi, u Chingizxonning tushlik dasturxoniga bir necha marta borib nimadir olar, bu ovqat unga bir necha kunga yetar edi», deb yozadi an-Nasaviy.

⁵⁸ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. –B. 85.

⁵⁹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 87.

Kamoxishox, ya'ni Xorazmshohning kenja va tirik qolgan yagona o'g'li Chingizxonning buyrug'i bilan bo'g'ib o'ldiriladi. «Mana shunday qilib, u (Turkon Xotun) bu olamda xukmdorlarning farzandlarini qirg'in etib nimaiki qilgan bo'lsa, shunga yarasha o'z jazosini ham oladi», - deb achinib yozgan edi An-Nasaviy ⁶⁰.

Shunday qilib, bir og'iz so'zi ulkan saltanatda qonun bo'lgan, cheksiz hokimiyatga ega bo'lgan Turkon Xotun umrining oxirini xor-zorlikda o'tkazib, 1233-yili Qoraqurumda, begona yurtlarda vafot etadi⁶¹.

1.3. Xorazmshohlar davlatida boshqaruv tizimi

Anushtakinlar sulolasining hukmronligi davrida Xorazmshohlar davlatida boshqaruvning o'ziga xos an'anasiga asoslangan tizimi shakllandi. Shunday ulkan saltanatni faqat samarali ishlaydigan, ixcham, ammo mustahkam boshqaruv tuzilmasi yordamidagina idora qilish mumkin edi.

Xorazmshohlardagi davlati boshqaruv tizimi ko'pgina tadqiqotchilarning ilmiy asarlarida u yoki bu darajada yoritilgan. Buni ozar tarixchisi Ziyo Bunyodov, turk tarixchilari Oydin Tonariy, Meryam Gurbuz, o'zbek tarixchilari Iso Jabborov, Ozod Masharipovlarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin⁶². Shuningdek, tarixiy manbalarda ham ko'pgina ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Shahobiddin An-Nasaviyning «Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mankburn», Alovuddin Ato Malikning «Tarixi Jahongushoyi», Rashiddin Fazullohning «Jome' at-tovarix», Ibn al-Asirning «Al-Komil fi-t-tarix» asarlarida Xorazmshohlar davlati tarixi, uning boshqaruv tizimiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bu ma'lumotlar Ziyo Bunyodov va Oydin Tonariyning tadqiqotlariga asos qilib olingan. Ziyo Bunyodov

⁶⁰ O'sha asar. – B. 88.

⁶¹ Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.417.

⁶² Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998.; Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999.; Iso Jabborov. Buyuk Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1999.; Masharipov Ozod. Xorazm tarixidan sahifalar. –Toshkent, 1994.; Meryam Gurbuz . Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil

Xorazmshohlardagi davlat mansablaridan faqat vazir va ayrim saroy mansablari haqida to'xtalib o'tgan. Oydin Tonariy «Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri» asarida «Xorazmshohlardagi davlat tashkiloti to'rt qismga bo'lib o'rganilishi mumkin, bular: saroy, hukumat, o'rdu (qo'shin) va adliyadan iboratdir», deb aniq ma'lumot beradi. Xorazmshohlar davlati o'rta asr musulmon Sharqida xos boshqaruvning mutlaq monarxiya usulidagi davlat shakli edi. Butun davlat, saltanat yakka hukmdor (monarx) tomonidan boshqarilib, u Xorazmshoh deb atalardi. «Xorazmshoh» unvoni barcha Anushtakinlarning ism-shariflariga qo'shib aytilgan. Jaloliddin Otsiz davridan Xorazmshohlar - Anushtakinlarni «sulton» unvoni bilan atash rasmiy ravishda davlatlararo aloqalarda qabul qilingan. «Sulton» unvoni hatto «Xoqon», «Shahanshoh» kabi Sharqda keng tarqalgan buyuk hukmdorlarga berilgan unvonlardan yuqori hisoblangan. Masalan, Jahongir Chingizxonga «Xoqon» deb, Erondagi mashhur Sosoniylar sulolasi (undan ancha oldin «Ahmoniy hukmdorlariga ham») hukmdorlariga «**Shahanshoh**» deb murojat qilingan. Musulmon sulolaridan faqat eng mashhur sulolalar, ya'ni Buyuk Saljuqiylar (1036-1124 - Eron, Xuroson, Iroq) Qoraxoniylardan ayrimlariga (999-1212), Xorazmshohlar Anushtakinlar (1077-1231) va Turkiyada Usmoniy (XII asr boshlaridan to 1921-yilgacha) hukmdorlariga «Sulton» deb murojaat qilish rasm bo'lgan. Shunday qilib, Xorazmshohlar davlatida «**Xorazmshoh**», «**Sulton**» unvonlari oliy, hokimiyat ifodasi bo'lib, hech kim va hech qanday organ, vakillik tashkiloti tomonidan chegaralanmagan cheksiz vakolatga ega hukmdor hisoblanagan.

Sulton, ya'ni Hukmdor, davlat ishlarini yuritishda, unga yordam beradigan turli maslahat organlari, mansabdorlar faoliyat ko'rsatgan. Ammo, ularning maslahatlariga quloq solish, e'tiborga olish yoki olmaslik Sulton ixtiyorida bo'lgan. Hukmdor biror qarorga kelgunga qadar o'z amaldorlari, sarkardalari, maslahatchilari bilan atroflicha maslahatlashgan. Lekin oxirgi so'z Sultonga tegishli bo'lib, qanday qarorga kelishidan qa'tiy nazar, to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lsin barcha uchun majburiy bo'lgan. Sultonning qarorlari hech kim tomonidan

muhokama qilinmagan, e'tiroz bildirilmagan, hatto noto'g'ri bo'lsa-da, ijro uchun qabul qilingan.

Sulton musulmon mamlakatlarida hukmdorlarga beriladigan eng oliy unvon. Bu unvonni berish faqat xalifa huquqi hisoblangan. Xorazmshohlardan El-Arslon, Takash va Alovuddin Muhammad shunday unvonlarga ega bo'lgan. Shahanshoh (shohlar shohi), qadimiyatdan eng buyuk davlat hukmdorlari, ulkan saltanat sohiblariga berilgan. Xoqon (Xonlar xoni, buyuk hukmdor) Musulmon dunyosida «Sulton» va «Shahanshoh» unvonlaridan keyingi unvon. Masalan, Jaloliddin Hindistonda bo'lganida xalifa unga shu unvon bilan murojaat qilgan.

Shuningdek, mo'g'ullarda Chingizxondan boshlab «**Xoqon**» unvoni qo'llanilgan. Shoh bir davlat hukmdoriga, davlatning ichki va tashqi nufuzidan kelib chiqib beriladigan unvon. Odatda hukmdorlar o'z obro'i oshganligini e'tiborga olish uchun o'zlarini shunday nom bilan ataganlar. Masalan, Ahamoniylarda, Ossuriyaliklarda, Xorazmda, Toharistonda hukmdor ismiga shoh ismini qo'shib aytish odat bo'lgan.

Biz yuqorida Xorazmshohlarda davlat tashkiloti to'rt qismga bo'linganini aytib o'tgan edik. Davlat boshqaruv tizimining birinchi qismi «saroy» degan umumiy nom bilan aytilgan. «**Saroy** - deb yozadi Oydin Tonariy, hukmdorning rasmiy va shaxsiy hayoti kechadigan hamda bu hayot uchun kerakli rasm-rusumlarni o'tkazishga mas'ul shaxslar ishlaydigan binoga aytiladi»⁶³. Saroyda hukmdorning ayollari va mulozimlari yashagan. Ular hukmdorning sulola a'zolari va saroy hayotini tashkil qilishga safarbar qilingan xizmatkorlardan (amaldorlar) tashkil topgan.

1. Saroydagi mansablar

Saroyda yashovchi va xizmat qiluvchilar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1. Xonadon a'zolari. “Hokimiyat, turkiy xalqlar an'anasiga ko'ra, deb yozadi Oydin Tonariy, hukmdor sulola a'zolarining

⁶³ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999. – B. 75-77.

barchasiga tegishli hisoblangan"⁶⁴ . Shunga ko‘ra davlatda, saroyda sulola a‘zolari juda yuqori mavqega ega bo‘lgan. Zero, ular biror muhim mansabni egallamas edilar. Hukmdorning onasi, o‘g‘li yoki tog‘asi, amakisi va boshqalar bo‘lishi ularga davlatda juda katta imtiyozlar berar edi.

Masalan, Sulton Alovuddin Muhammadning onasi Turkon Xotun hech qanday rasmiy ravishda biror mansabni egalamasa-da, saltanatda “ikkinchi, ehtimol birinchi shaxs bo‘lgan”⁶⁵, “uning farmonlarini biror odam o‘zgartira olmas”, “uning farmoni” mamlakat miqiyosida asos qilinib olinardi⁶⁶ .

2. Hojiblar – saroy marosimlarini tashkil etgan va boshqarib turgan. Unda ular qabul qilgan qoidalarni aniq bajarilishini ta‘minlaganlar.

3. Mahramlar – saroyda hukmdorning maxsus topshiriq va vazifalarini bajaruvchilar bo‘lib, hukmdor ixtiyorida bo‘lishgan.

Saroy amirlari – saroyda mavjud to‘g‘ridan to‘g‘ri hukmdorning o‘ziga bo‘ysunuvchi mansabdorlar. Saroy amirlari xizmat lavozimiga ko‘ra quyidagicha bo‘lingan:

Ustod-ud-Dor (ba‘zan, «Ustoz dor») xazinaga tushgan mablag‘larni bir qismini olib saroy ishxonasiga, novvoyxonasiga, otulovning yem-xashagiga, xizmatchilarning sarf-xarajatiga va shunga javob bergan. Suiste‘molchiliklarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun o‘n ikkita mansabdor qo‘l qo‘ygach, to‘lov hujjati kuchga kirgan.

Silohdor – Sulton qurol-yarog‘ omborining ho‘jayini bo‘lgan. Unga maxsus bino ajratilib, qo‘lida ustalar ishlagan.

Amiri a‘lam – Sulton bayroqdorlarning boshlig‘i, bayroqdorlarning saqlanishi, muhofazasi uchun mas‘ul bo‘lgan.

Amir-oxo‘r (Miroxur) – Sulton otxonalari boshlig‘i. Uning ixtiyorida minglab, hatto o‘ttiz mingacha ot bo‘lgan.

⁶⁴ O‘sha asar. – B. 75-77.

⁶⁵ Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 128.

⁶⁶ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 91.

Amiri shikor – Sultonning ov qurollari, xo‘jaligini saqlagan, ovga chiqishni tashkil qilgan, ov joylarni oldindan ko‘zdan kechirgan.

Toshtdor – Sulton hammom va hovuzlarining boshlig‘i. Hukmdorning yuvunish idishlariga ma’sul bo‘lgan, zero, ular oltindan yasalgan.

Amir jashnigir – Sultonga tayyorlanadigan (hatto mehmonga borsa ham) nazorat qilgan va dasturxon ustida ovqatlarni tatib ko‘rsatgan.

Sharobdor – Sulton sharobxonasining boshlig‘i. Sharobxonada shirin ichimliklar tayyorlash uchun shakar ham saqlangan.

Davatdor – Sultonning yozuv- chizuv asboblari shay bo‘lishi va saqlanishi uchun javobgar shaxsdir.

Qissador - bir hafta davomida Sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig‘ib payshanba kundan jumaga o‘tar kechasi Sultonga topshirgan va juma kuni javoblarini egalariga qaytargan.

Farrosh - Sulton uyi to‘shaklari saqlanadigan farroshxona (gilamlar, o‘rin-to‘shaklar, chodirlar) boshlig‘i.

Saroyda **faqihlar** (umumiy ishlar bilan shug‘ullanuvchi xizmatchilar, masalan choparlar) kabi lavozimlari bo‘lgan.

Bundan tashqari mextarlar deb atalgan Sultonning xos xizmatchilari bo‘lib, ularga **Ixtari Mextarin** rahbarlik qilgan. Manbalarda Xorazmshoxlar saroyida **jonador** (liboschi) va **ibriqdor** (hukmdor tahorat olgan vaqtida qo‘liga suv qo‘ygan) mansablari to‘g‘risida ham ma’lumotlar saqlangan (Oydin Tonariy. 74-75-b.)

2. Hukumatdagi mansablar

Vazir - Xorazmshohlar davlatida markaziy davlat idorasining rahbari, hukmdordan keyingi eng yuqori martabali mansabdor. Vazir davlat rahbarining birinchi maslahatchisi bo‘lib, u faqat shohning o‘zigagina bo‘ysunadi.

Buyuk Devon – hukumat idorasini eng oliy organi bo‘lgan, davlat ishlari muhokama qilinib qarorlar chiqargan, ammo Sulton tasdiqlaganidan keyin qonuniy kuchga kirgan. Buyuk Devon Vaziri

sohibi devon davlat, sohibi devoni insho, sohibi devoni istifo, sohibi devoni ishlar, sohibi devoni arz kabi mansab a'zolaridan tashkil topgan.

Buyuk Devon ishiga **Vazir** rahbarlik qilgan. (hozirgi Vazirlar Mahkamasiga qiyoslash mumkin).

Sohibi Devon – Vazirdan keyingi oliy mansab egasi. Bevosita faoliyat noiblari va vazirlari bilan ish olib borgan.

Devon insho – Davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan vasiqalar tayyorlagan va o'zaro aloqalarni boshqarib turish bilan shug'ullangan.

Devon istifo - Davlatning butun moliyaviy ishlarini yuritgan va boshqarib turgan.

Devon boshlig'iga – «Sohibi Devoni istifo» mustavfiy («daftardor») deb murojaat qilingan. Bu devonning boshlig'iga «munshiy» deyilgan. U shifrlangan maktublarni yozish va o'qish bilan shug'ullangan.

Devoni arz – qo'shin boshqaruvi, harbiylarning iqtolari, daromadlari, maoshlari va harbiy qismlarning anjomlarining qaydi hamda nazorati bilan shug'ullangan. Boshlig'i «Sohibi devoni arz» yoki «Ariz» deb atalgan.

Devoni nazar – faqat moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Boshlig'i «Nozir» deb atalgan.

Bu tashkilotlarning viloyatlarda o'z nomlari bilan bo'limlari bo'lgan va ular o'z vakolatlarini joylarda amalga oshirganlar.

Vazir – (Hukumat boshlig'i, vazir emas) viloyatlarning hokimlari, eng vakolatli boshlig'i, bevosita Sulton tomonidan tayinlangan. Sulton Jaloliddingacha bu mansablarga asosan shoh xonadonidan tayinlangan bo'lsa, uning davrida xonadonga mansub bo'lmagan kishilar ham tayinlangan. Bu esa Sulton Jaloliddin davrida markazlashgan davlat siyosati yuritilganligini ko'rsatadi. Viloyatlarda vazir mansabining joriy etilishi Xorazmshohlarning Saljuqiylar davlat boshqarish tartibiga kiritgan muhim islohati bo'ldi.

Omil («voliy») – Viloyatda vazirdan keyingi eng nufuzli mansab egasi, u boshqarish va asosan, soliq ishlari bilan shug'ullangan.

Shihna – viloyatning jamoat tartibini saqlash bilan shug‘ullangan, xalqning tinchligi va farovonligi ta’minlangan, omilga soliq ishlarida yordam bergan.

Rais – shaharning eng obro‘li kishilari orasidan tayinlangan va shahar miqyosida shixna vazifasini bajargan.

Muhtasib – Shaharning bozorlarini nazorat qilgan va shaharni boshqarish bilan bog‘liq vazifalarini bajargan. Shuningdek, qozilar va faqihlar kabi mansablar ham bo‘lib, ular olimlar orasidan saylab olingan.

3. Harbiy mansablar

Davlati tashkilotining uchinchi qismi qo‘shin (o‘rdi) bo‘lgan. Sulton davlat boshlig‘i bo‘lganligi uchun Oliy bosh qo‘mondon vazifasini ham bajargan, butun qo‘shinga tinch hollarda, yurishlarda va jang vaqtlarida boshchilik qilgan. Yuqorida aytganimizdek qo‘shinga oid boshqaruv ishlari bilan maxsus devon, (vazirlik), devoni arz shug‘ullangan ⁶⁷. Xorazmshohlar qo‘shinida devoni arzdin keyingi ikkinchi lavozim, xarbiy inspektor (Nozir al-Jaysh) bo‘lib, harbiy devonxon boshlig‘ining nazorati ostida ishlagan.

Oliy bosh o‘mondondan keyin, armiyada xon-unvon, eng yuksak unvon bo‘lgan ⁶⁸. Ammo Ziyoy Bunyodov «Xorazmshohlar qo‘shinida qo‘mondonga «qo‘id» va «muqaddam» degan unvon berilar edi», deb yozadi ⁶⁹. Xondan keyingi yuksak harbiy unvon malik bo‘lgan. 10 ming kishilik suvoriylar guruhiga qo‘mondonlik qilgan kishilar malik unvoniga ega bo‘lganlar⁷⁰.

“**Amir-unvoni malik**” unvoni qatorida bo‘lib va turkiy qavmlarda harbiy boshliq hisoblangan. Ulardan keyin qo‘shinda “salohbud” lavozimi bo‘lib, suvoriylarga qo‘mondonlik qilgan.

«**Pahlavon**» – navbatdagi harbiy lavozim bo‘lib, qo‘shinning avangard, ya’ni -asosiy qo‘shindan oldinda yuruvchi maxsus qo‘shinga rahbarlik qilgan. Bundan tashqari qo‘shinda kichik zobitlar sarxanglar,

⁶⁷ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999. –B. 87.

⁶⁸ Ziyoy Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 90-91.

⁶⁹ O‘sha asar. – B. 91.

⁷⁰ O‘sha asar. – B. 91.

chovushlar xizmat qilib ular, xon, malik, amir, sipoh-bud, pahlavonlar kabi qo‘l ostida xizmat qilganlar. Qo‘shindagi choparlarga chovushi unvoni, ularning boshlig‘iga esa «muqaddin chovushya degan nom» berilar edi. Maxsus xufya va ayg‘oqchilar bo‘linmalari (josusiya) ham mavjud bo‘lgan.

Xorazmshohlarda, davlat mansablariga faqat arab va fors qavmga tegishli kishilar tayinlanganlar, chunki davlat ishlari arab va fors tillarida yuritilgan. Ammo «harbiy tashkilotga mansub qo‘mondonlar va askarlar asosan turkiy qavmlardan bo‘lgan»⁷¹.

«Hatto davlat eng gullab yashnagan, askarlikka boshqa xalq va qabila yigitlari olingan vaqtlarda ham turklar qo‘shinning asosiy va jangovor qismini tashkil qilard edi» deb yozadi 3. Bunyodov. Umuman “Xorazmshohlarda manbalarning ko‘rsatishicha aholini harbiy bilimlarga jalb qilishning umumiy- majburiy ta‘lim tizimi joriy qilingan”⁷².

Xorazmshohlarda qo‘shin asosan ikki qismga bo‘lingan:

1. **Gvardiya** (Haras-hukmdorning shaxsiy muhofaza qo‘shini).

2. **Viloyat askarlari.**

Gvardiya yoki xaras – bu qism sotib olingan yoki urush natijasida asir tushgan qullardan, ya‘ni mamluklardan tashkil topgan. Bu qo‘shin hukmdor oilasini ham qo‘riqlashdan tashqari jazolash ishlarida ham foydalanilgan⁷³.

Xorazmshox davrida viloyat markazlari, chegra qismlar, yo‘llar, mudofaa ahamiyatiga molik qal‘alarida harbiy qismlar viloyat qo‘shinlari umumiy nomi bilan atalgan. Shuningdek, «Xashar» nomlangan, zarur bo‘lgan xalq qo‘shinli lashkarlari ham harbiy xarakat va mudofaalarda ishtirok etgan. Qo‘shinning asosiy qismi xorazmliklar, qipchoqli qang‘lilar, turkmanlar va boshqa qavmlar tashkil qilgan. Xorazmshohlar davlatining to‘rtinchi tashkiloti Adliya edi. Bu saltanatda odil sudlov, ya‘ni buzilgan qonunlarni tiklash asosida

⁷¹ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. – Toshkent, 1999. – B. 91.

⁷² Ziyoy Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 88.

⁷³ Ziyoy Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 90.

adolatni ta'minlab turish vazifasini barcha musulmon mamlakatlarda bo'lgani kabi qozilar bajargan.

Xorazmshohlar davlatining adliya tashkiloti ilk davrlardan oq (sulola asoschilari Anushtakin va Qutbiddin davridan Saidov Sh.), mukammal va muntazam bir mexanizmga ega bo'lgan. Adliya tashkiloti o'rta asr turkiy islom davlatlarida bo'lgani singari, shariat sudi va urf odatga ko'ra hukm chiqarishga asoslangan⁷⁴. Oilaviy, mulkiy va boshqa barcha fuqaroviy ishlar, shuningdek, jinoyat ishlari majmui qozilar tomonidan ko'rilgan va shariat, urf-odatlar asosida hukmlar chiqarilgan. Qozilar Sulton tomonidan ishga tayinlangan va ishdan bo'shatilgan⁷⁵. Adliya tashkilotining boshida, «aqzal-quzzot» ya'ni, qozi kalon («katta qozi») turgan. Tabriz – Sulton Jaloliddin saltanatining asosiy poytaxti bo'lgan. Tabriz qozisi bir vaqtning o'zida saltanat qozisi vazifasini ham bajargan. Saltanat qozi kaloni davlatdagi barcha qozilarni hukmlarini bekor qilish yoki o'zgartirishi mumkin edi.

«Qozilarning huzurida noib, kotib va vakil unvoniga ega bo'lgan xodimlar ishlagan»⁷⁶. Bundan tashqari, «Aqza'l kuzzot»ning sud devonida vaqf egalarining ishlarini ko'radigan mufattish va muxosib singari xodimlar ishlagan⁷⁷. Bunday lavozimlarni viloyat, shahar qozi xonalarida, ya'ni mahalliy adliya davlat tashkilotlarida ko'rmaymiz. Qo'shindagi barcha noqonuniy ishlarning shariatga zid ekanligini aniqlash va hukmlar (fatvo) chiqarish bilan qo'shin qozilari shug'ullangan. Ziyo Bunyodov buni tasdiqlab, birmuncha boshqacha ma'lumot beradi. «Xorazmshohlar armiyasida bosh diniy hakam (qoziy xasham va lashkariy hazrat yoki qoziy askar) mavjud edi».

Bundan tashqari Oydin Tonariyning ma'lumotiga ko'ra, «Yulak» deb nomlangan, harbiy tashkilot mansabdorlaridan xon boshqargan, mazolim devoni ham bo'lgan. «Mazkur devon asli turkiy bo'lgan qo'mondonlarning aybi to'g'risida, urf-odatlariga muvofiq hukm

⁷⁴ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. – Toshkent, 1999. – B. 96.

⁷⁵ O'sha asar va bet.

⁷⁶ O'sha asar va bet.

⁷⁷ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. – Toshkent, 1999. – B. 96.

chiqargan»⁷⁸. Mabodo oddiy askarlarning aybi bo'lsa ularning amirlari jazoni belgilash huquqlari bo'lgan. Turli vazirliklar, devonlar mahkamalar o'rtasidagi irodaviy da'volar, jumladan davlat arkonining da'volar vazir rahbarlik qiladigan, Devonda ko'rilgan⁷⁹.

Shunisi e'tiborliki, Xorazmshoxlar saltanatida, xususan Jaloliddin davlati adliya tiimida shaxsan hukmdorning o'zi tomonidan boshqariladigan «Mazolim devoni» bo'lganligini ko'ramiz. Bu haqdagi ma'lumotni faqat Oydin Tonariyning asarida ko'rishimiz mumkin. Devonga kimlar a'zo bo'lganligi to'g'risida ma'lumot berilmaydi. Mazolim devonida «xoh fuqaro, xoh harbiy bo'lsin, yuqori martabali kishilarga nisbatan qilingan shikoyat da'volar» ko'rib chiqilgan.

Bu fikrdan adliya devonida yuksak martabali sarkardalar, qozilar, vazirlar, amirlar, hatto, xonadon a'zolarining noqonuniy hatti harakatlari bilan bog'liq masalalar ko'rilgan bo'lishi mumkin edi deb faraz qilish mumkin. Buni o'ziga xos faqat hukmdorga bo'ysunadigan eng oliy adliya-sud tashkiloti deb baholash uchun to'la asos bor.

«Ayni zamonda eng oliy hukmdor sifatida Sulton o'z xonadoni a'zosidan tortib oddiy bir asirgacha istalgan bir shaxs ustidan bevosita hukm chiqara olar, agar lozim topsa, ularning ishini qoziga oshiradi» (Oydin Tonariy. 97-bet). Bundan tashqari davlat a'zolari, amaldorlarining ishi Buyuk Devonga ham oshirilgan va u yerda o'rganilib qarorlar qabul qilingan.

Umuman, Xorazmshohlarda adliya tizimi juda puxta ishlab chiqilgan mexanizmga asoslangan bo'lib hayotning barcha qirralarini qamrab olgan, adolatta Xizmat qilishga qaratilgan tashkilot edi.

4. Davlat ramzlari

Xorazmshohlarda, oliy davlat hokimiyatini ifodalovchi, davlatning mustahkam asosga ega ekanligini ko'rsatuvchi, muqaddas hisoblangan davlat ramzlari bo'lgan. Quyida shular haqida gap yuritamiz:

⁷⁸ O'sha asar. – B. 97.

⁷⁹ O'sha asar. – B. 97.

«**Unvon**» – davlat boshlig‘iga darajasini obro‘-e‘tiborini bildiradi. «Sulton» eng oliy unvoni bo‘lgan, undan tashqari «Shaxanshox», «xoqon» unvonlari ham bo‘lgan.

«**Xutba**» – juma namozidan avval, bayram namozidan keyin imom xatibning minbarga chiqib, xalqqa beradigan diniy o‘g‘itlari (Amri ma‘ruf). Bunda xutbaga qo‘shib hukmdorning nomi zikr qilingan. Bu esa viloyat yoki davlat kimga qarashli ekanligini bildirgan.

«**Sikka**» - tanga zarb qildirish davlatning eng muhim belgilaridan bo‘lib, Xorazmshohlar Jaloliddin Otsiz davridan asosan oltin tangalar zarb qildira boshlaganlar.

«**Taxt**» - davlatning hokimiyat ramzlaridan bo‘lib, turli marosim va qabullar vaqtida hukmdor o‘tiradigan maxsus kursi. Taxt muqaddas hisoblangan.

«**Toj**» - hokimiyatning moddiy ramzlaridan biri bo‘lib, taxtga chiqqan hukmdor albatta toj kiyishi shart bo‘lgan. Toj maxsus talablar asosida qimmatbaho toshlardan qilingan.

«**Shamsiya**» («quyosh») – qabullarda, sayohat va safarda sultonning boshi ustida tutilgan hukmdorlik soyabonidir.

«**Shohona libos**» ustiga hukmdorning ismi va laqablari naqshlangan va davlat ramzi (kora) rangida hozirlangan maxsus tun. Toj bilan birga kiyilgan.

«**Bayroq**» - Xorazmshohlar o‘g‘uzlarning bekdili urug‘idan mansub bo‘lganligi uchun qora bayrog‘ida shu urug‘ tangasi, sultonning ismi va laqablari yozilgan. Bayroqni maxsus bayroqdorlar jang vaqtida olib yurgan va doimo oldingi safda, bosh qo‘mondon oldida bo‘lgan. Bundan tashqari har bir qo‘shin turining o‘z bayrog‘i bo‘lgan.

«**Tug‘**» - hokimiyat ramzlaridan bo‘lib, otning dumidan yasalib, qirmizi nayzanining ustiga o‘rnatilgan oltin xuqqa (xalka)ga birlashtirilgan. Jaloliddinning yetti dona tug‘i bo‘lgan.

«**Kamar**» - Sulton bayram kunlari taqadigan maxsus benazir nodir. qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan belbog‘.

«**Saroy**» - hukmdorning rasmiy va shaxsiy hayot kechiradigan, bu hayot uchun xizmat qiladigan ma'sul shaxslar ishlaydigan maxsus bino. «Saroy» salom xona, devon va xaramdan tashkil topgan.

«**Chodir**» - hukmdor uchun sayohat va safar vaqtida «Saroy» vazifasini bajaruvchi maxsus o'tov, chayla, qisqasi ko'chma saroy.

«**Harbiy musiqa marshi**» - saltanat saroyi va chodiri oldida ma'lum vaqtlarda, ko'pincha namoz soatlarida davlat musiqa dastasining musiqa chalishi.

«**Ba'yat**» - valiahdning, hukmdor vafotidan keyin taxtga chiqish, toj kiyish va hukmdor deb e'lon qilishi bilan bog'liq marosim.

Shunday qilib, Xorazmshohlar saltanatida juda mukammal davlat boshqaruv tizimi shakllangan bo'lib, u markazlashgan davlat tartibiga an'analariga muvofiq tarzda tashkil topgan edi. Bu davlat tashkilotida asosan ikkita unsurga, ya'ni shariatga va turkiy qabilalarda ming yillar davomida shakllangan axloqiy andozalar va urf-odatlariga muvofiq ish yuritilgan va qarorlar chiqarilgan. Davlatning oliy mansablarida zamonasining eng bilimli, ma'rifatli, fozil-u-ulamolarning vakillari faoliyat ko'rsatganlar va ular xalq, davlat manfaatlari uchun xizmat qilganlar.

5. Xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan viloyatlar

Movaraunnahr - Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlar, hozirgi Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo va viloyatlari joylashgan hududlar. Markazi Buxoro, Samarqand bo'lgan.

Mozondaron - hozirgi Eronning shimoliy qismi, Kaspiy dengizning janubiy sohillarida joylashgan. Markazlari Ray va Amul shaharlari. Mohron - hozirgi Pokiston va Eronning eng janubiy yerlari, Hind okeanining shimoliy qirg'oqlarida joylashgan viloyat.

Aron (yoki Arrian) - hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismidagi yerlar. Hozirgi Mozori Sharifga to'g'ri keladi. Markazi Nishopur shahri.

Isfaxon - hozirgi Eronning Markaziy qismida viloyat Isfaxon shahri atrofidagi yerlar. Sulton Jaloliddin davlatining markazlaridan biri bo'lgan.

Kirmon - hozirgi Eronning janubi sharqdagi eng qadimiy o'lkalardan biri Eron shohi Doro I ning «Behistun qoratosh yozuvlari» xuddi shu yerda yozilgan. Markazi Kirmon shahri.

Kash (Kesh) – hozirgi Qashqadaryoning Shahrisabz shahri atroflari markazi Kesh shahri.

G'azna - Afg'onistonning g'arbiy hududlari Pokiston bilan chegaradosh viloyat, markazi G'azna shahri Sulton Jaloliddinga otasi tomonidan ajratilgan hududlarning markazi.

G'ur - hozirgi Afg'onistonning Eron bilan chegaradosh yerlari. Xuroson viloyati, markazi Sabzavor shahri.

Seyiston - hozirgi Eronning Kirmon viloyati bilan chegaradosh Afg'onistonning janubi va Pokiston hududida joylashgan viloyat, markazi Rudbor shahri.

Belujuston - Pokistonning Seyiston va Makron viloyatlari oralig'idagi dasht hududlaridagi viloyat. Markazi Shuvashir shahri.

Sind - Hind daryosining Hind okeaniga quyilish qismi, Hindistonning shimoliy qismi, Pokistonning janubiy qismida joylashgan viloyat. Sulton Jaloliddinga 1230-yillarga qadar qaram bo'lgan, markazi Kelat shahri.

Tabariston – hozirgi Eronning shimoli sharqida, Jurjon va Mozondaron oralig'idagi yerlar, markazi Astrobod shahri. Eron Iroqi hozirgi Eronning shimoli g'arbdagi, Iroq bilan tutashgan hududlar. Markazi Hamadon shahri.

Ozərbayjon - Eronning shimoli g'arbdagi yerlar (Eron Ozərbayjon deb ham ataladi). Hozirgi Ozərbayjon Respublikasi hududlari - markazi Morog'a, Tabriz shaharlari (Tabriz - Sulton Jaloliddin qayta tashkil qilgan Xorazmshoxlar davlatining poytaxti).

G'ilon - Kaspiy dengizning janubi g'arb qirg'oqlari bo'ylarida, Ozərbayjon va Mozondaron oralig'idagi viloyat, markazi Alamut shahri. Mug'on - Kaspiy dengizining g'arbiy qirg'oqlari (hozirgi

Ozarbayjon Respublikasi Boku shahari atroflaridagi yerlar), Sulton Jaloliddin saltanatiga kirgan.

Shirvon - Kaspiy dengizi g'arbiy sohillarining o'rta qismida joylashgan viloyat, Ozarbayjon, Gruziyaning bir qismi, Shimoliy Kavkazning janubiy- g'arbiy hududlari (Dog'istonga to'g'ri keladi). Markazi - Abivard shahri.

Gurjiston - hozirgi Armaniston, Gruziyaning Qora dengizi qirg'oqlarida joylashgan yerlari. Markazi Tiflis shahri.

Mayfarikan – hozirgi Turkiyaning sharqiy qismi, markazi Malazira shahri. Sulton Jaloliddin halok bo'lgan hudud.

Hilot - Van ko'li atroflari, uning shimoliy g'arbida joylashgan shahar va viloyat, hozirgi Turkiyaning sharqiy qismi.

Nuriston - hozirgi Eronning g'arbiy hududlari va Iroqning sharqiy hududlari, markazi Nixavand.

Huziston - hozirgi Eronning janubiy, g'arbiy qismidagi hududlar, Dajla va Frot daryolarining Fors qo'ltig'iga quyilish qismidagi yerlar. Sulton Jaloliddin tomonidan qo'shib olingan. Markazi Shustor shahri.

Fors - Eronning janubi - g'arbiy hududlari, Fors qo'ltig'ining shimoliy qirg'oqlari bo'ylarida Yazd viloyatigacha bo'lgan yerlar, markazi Sheroz shahri.

Yazd - Fors viloyatining shimoliy qismi Kirmon va Huziston oralig'ida joylashgan viloyat. Shimolda Kuhiston bilan chegaradosh, markazi Yazd shahri.

Kashmir - shimoliy Hindiston va Pokistonga tutashib ketgan yerlar. Sulton Jaloliddinga 1230-yillarga qadar tegishli bo'lgan yerlar, markazi Kashmir shahri.

Panjob - shimoliy Hindistonda joylashgan viloyat markazi Lohur shahri.

Kuhiston – hozirgi Eronning sharqiy qismida joylashgan viloyat markazi Tobos shahri.

Xuroson - Eronning shimoliy shahri, Afg'oniston shimoliy va hozirgi Turkmanistonning Amudaryo qirg'oqlarigacha, Sharqda

Surxondaryo viloyatlarigacha bo'lgan hududlar. Markazlari Marv, Hilot shaharlari.

Talas - Shosh va Yettisuv oralig'idagi yerlar, Chu daryosining vodiysida markazi Bolasog'un.

Yettisuv - Ili daryosining Balhash ko'liga quyiladigan yerlari, Issiqko'l Farg'ona Qozog'iston – hozirgi va Qirg'iziston yerlarida joylashgan. Markazi G'ulja shahri.

Farg'ona - hozirgi Farg'ona vodiysi. Markazi Axsikent shahri.

Sharqiy Turkiston – hozirgi Xitoyning g'arbiy sharqiy qismlari Sulton Muhammad davrida ma'lum vaqt Xorazmshohlarga o'lpon to'lab turgan mamlakat. Markazi Qoshg'ar shahri.

O'tror - shimoliy Sirdaryoning o'rta oqimida, janubiy Qozog'istonda joylashgan chegara shaharlaridan biri.

Shosh - Sirdaryoning o'rta havzasi, Toshkent viloyati va janubiy Qozog'istonda joylashgan viloyat. Markazlari Shosh, Binokat, Isfijob shaharlari.

Jand - Sirdaryoning quyi oqimi, Orol dengiziga quyiladigan hududlarni birlashtirgan viloyat, markazlari Jand, Yangi Kent shaharlari.

Mang'ishloq - Orol va Kaspiy dengizi oralig'idagi yerlar. Hozirgi Qozog'istonning g'arbiy hududlari.

Dehiston hozirgi Turkmanistonning Kaspiy dengizi qirg'oqlari (Krasnagorsk) dagi yerlar. Markazi Dehiston shahri Jurjon (Gurgon-Girkon) Girkon daryosining Kaspiy dengiziga quyiladigan yerlardagi viloyat, Turkmanistonning eng janubi g'arbiy, Eronning shimoli sharqidagi yerlar. Markazi Gurganj shahri ([Xorazmshohlar hoytahti Gurganj emas]).

Xorazmshohlar davlati hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Xitoyning ozgina qismi, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Iroq, Turkiya, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Dog'iston respublikalari hududlarini birlashtirgan ulkan imperiya bo'lgan.

II.BOB. XORAZMSHOHLAR-ANUSHTAKINLAR DAVLATININ INQIROZI

II.1.Xorazmshohlar-Anushtakinlar davlati halokatining sabablari

XII asr oxiri XIII asr boshlariga kelib Sharqda yangi, ulkan saltanat Xorazmshohlar davlati tashkil topdi. Mo'g'ullar bosqini arafasida bu saltanat musulmon sharqining eng buyuk davlati edi. Shu davrda hukmronlik qilgan (1097-1231) Anushtakinlar davlati bo'lgan Xorazmshohlarni V.V. Bartold «eng porloq sulola» - deb atagan edi⁸⁰. Anushtakin (1072-1097), Qutbiddin Muhammad (1097-1127), Jaloliddin Otsiz (1127-1156), Abdulfatx el-Arslon (1156-1172), Sultonshoh Muhammad (1172-1193), Alovuddin Takash (1172-1200), Sylton Alovuddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) ushbu sulolaning hukmdorlari bo'lganlar.

1194-yil so'nggi saljuqiy hukmdor Tug'ulbek III (1176-1194), 1204-yili Afg'oniston va Shimoliy Hindistondagi qudratli G'uriylar davlati, 1206-yilda Xuroson, Eron, Seyston 1206-1207-yillarda Movarounnahr bosib olindi. Ayniqsa, 1210-yilda Ilamish cho'lida (Andijon viloyatining shimoliy chegarasida - muallif) bo'lib o'tgan dahshatli jangda «qator musulmonlarga uzoq yillar davomida tahdid solib, o'lpon to'lashga majbur qilib qolgan Qoraxitoylarning qaqshatqich mag'lubiyatga uchrashi bilan» butun musulmon dunyosida Xorazmshoh Sulton Muhammadning obro'i benihoya oshib ketdi⁸¹ . 1212-yilda Qoraxoniylar sulolasi tugatildi. 1217-yilga kelib Xorazmshohlar sarhadlari shimolda Dashti Qipchoq yerlaridan janubda Fors ko'rfazigacha, g'arbda Iroq chegaralaridan, sharqda Hindistongacha bo'lgan ulkan hududni o'z ichiga olish natijasida musulmon Sharqining eng buyuk davlatiga aylandi. Galdagi reja esa Xitoy, Bag'dod, Suriya, Misr yerlarini bosib olish edi.

Ammo, bundan keyingi voqelar, ya'ni, Bog'dodga xalifa Al-Nosirga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishning muvaffaqiyatsizlikka

⁸⁰ Ziyo Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 4.

⁸¹ Bo'riyev O.B., Toshev N.T. Jaloliddin Manguberdi. –Toshkent, 1999. – B. 18-19.

uchrashi (1218) va mo'g'ullar hujumi, ulug'vor rejalarining amalga oshishiga halaqit berdi.

Shunday ulkan va kuchli davlatning juda qisqa muddatda (1219-1221) mo'g'ullar bosqini natijasida halokatga uchraganligi albatta har bir tarixchi olimni jiddiy o'ylantiradi. Xorazmshohlar ixtiyorida salkam 400 ming (ba'zi manbalarda 600 ming) dan ortiq yaxshi qurollangan qo'shinga ega bo'lishiga qaramasdan, o'zidan kam sonli Chingizxon qo'shinidan mag'lubiyatga uchrashi sabablari bilan bog'liq mulohazalar turli tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Masalan, V.V.Bartoldning «Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston», Z.Bunyodovning «Xorazmshohlar-Anushtakinlar davlati», S.P.Tolstov «Po sledam drevney Xorezmskoy sivilizatsii», X.Vamberining «Buxoro yohud Mavoraunnahr tarixi», Oydin Tonariyning «Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri», Ozod Masharipovning «Xorazm tarixidan sahifalar» kabi va boshqa o'nlab asarlarda⁸², shuningdek, oliy o'quv yurtlari talabalari va umumta'lim maktablari uchun yozilgan G.Xidoyatovning «Mening jonajon tarixim», «O'zbekiston xalqlari tarixi», A.Asqarovning umumiy tahriri ostida, A.Sagdullayev va boshqalar «O'zbekiston tarixi», Sh.Karimov, R.Shamsutdinovlarning «Vatan tarixi», A.Muhammadjanovning «O'zbekiston tarixi», t.f.d. prof. R.X. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida nashr qilingan «O'zbekiston tarixi» kabi darsliklarda⁸³ bu masalalarga u yoki bu darajada munosabat bildirilgan.

Biz yuqorida nomlari qayd qilingan olimlarning mulohazalariga chuqur hurmat bilan qaragan holda, ayrim manba va tadqiqotlarni

⁸² Bo'riyev O.B., Toshev N.T. Jaloliddin Manguberdi. –Toshkent, 1999.; Ziyoy Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998.; Tolstov S.P. Po sledam drevney Xorezmskoy sivilizatsii. – Moskva, 1948.; Arminiy Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. –Toshkent, 2019.; Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999.; Masharipov Ozod. Xorazm tarixidan sahifalar. –Toshkent, 1994.

⁸³Xidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. –Toshkent, 1990.; O'zbekiston xalqlari tarixi. –Toshkent, 1993 (A. Askarov umumiy tahriri ostida); Sagdullayev A. va boshqa O'zbekiston tarixi. –Toshkent, 1997.; Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi 1997.; Muxammadjanov A. O'zbekiston tarixi (7-sinf darslik). –Toshkent, 1998.; O'zbekiston tarixi. (t.f.d. prof. R.X. Murtazayeva umumiy tahriri ostida). –Toshkent, 2003.

sinchiklab qayta-qayta o‘qish natijasida yuzaga kelgan fikrlarni o‘rtaga tashlamoqchimiz. Xorazmshohlar davri bilan qiziquvchilar uchun Shahobiddin An-Nasaviyning «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Mankburn» asarining hurmatli donlamiz Komil Muhammad Yoqub tomonidan rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganligi ajoyib sovg‘a bo‘ldi. Bundan tashqari Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulusi tarixi», Abdulg‘ozining «Shajarai Turk», ibn Al-Asirning «Komil-fat-tarix», Alovuddin Ato Mulk Juvayniyning «Tarixi Jahongusho» kabi va boshqa manbalarning⁸⁴ mutolaa qilinishi Xorazmshohlar-Anutakinlar davri voqealarini yanada teranroq ko‘z bilan qarash imkoniyatini berdi. Ilmiy asarlar va yuqorida qayd qilingan manbalarni o‘rganish asosida Xorazmshohlar davlatining halokati sabalarini ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

- tashqi sabablar;
- ichki sabablar;

Avvalo, tashqi sabablarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bu borada V.V.Bartold fikrlariga alohida e‘tibor berish kerak. V.V.Bartold shunday deb yozadi: «Biz ikki davlat o‘rtasidagi boshlangan urushni tezlashtirgan tashqi sabablar bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risidagi fikrlarda asosni ko‘rmayapmiz. Chingizxonning Xorazmshohlar bilan aloqalarini rivojlantirish istagini faqat savdo sotiq manfaatlaridan kelib chiqqan deb hisoblash mumkin. Agar uning elchilari hukmdorining buyrug‘i bilan Xorazmshohning o‘g‘lim deb atagan bo‘lsa, bu Muhammadning jig‘iga tegish uchun aytilmagan edi. Shuningdek, Xorazmshohlar ustiga mo‘g‘ullarni xalifa An-Nosir chaqirgan degan xabarlarga ham e‘tibor berish kerak emas!»⁸⁵. Ammo, boshqa tadqiqotchilar bu xulosaga qo‘shilmasdan, manbalarni o‘rganish asosida V. Bartoldning fikrini inkor qiluvchi dalillarni keltirishadi.

⁸⁴ Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994.; Abulg‘ori Bahodirxon. Shajara turk. – Toshkent, 1992.; Ibn Al-Asir. Al-komil fit-tarix. – Boku, 1940.; Shihobiddin an-Nasaviyning «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Mankburn» asariga 3. Bunyodov izohlari. – Toshkent, 1999; Аловуддин Атомулк Жувайний. Тарихи Жаҳонгушо, II-жилд. – Тошкент, 2015.

⁸⁵ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva, 1963. – S. 437.

Masalan, Akademik Bunyodov, An-Nasaviyning «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Manguberdi» asariga yozgan izohlarida shunday deydi: «Manbalar Xorazmshoh davlatini yemirishga olib kelgan ko‘plab sabablardan xalifa An-Nosir (1186-1225) Xorazmshoh Muhammadga qarshi kurashda mo‘g‘ullardan foydalanganligini ko‘rsatadi. Ibn al-Asir, Abul Fido, Sibt ibn al-Javziy, Mirxond, Abul G‘oziy asarlarida shunga o‘xshash ma’lumotlarni uchratish mumkin. Ibn Al-Asir: «Xalifa an-Nosir totorlar huzuriga odamlarni yuborib, ularni musulmonlar mamlakatlariga hujum qilishga undagan (Totorlar mo‘g‘ullarning manbalari uchraydigan ikkinchi nomi). U bu faoliyati bilan dunyodagi eng og‘ir jinoyatga qo‘l urgan» deb yozsa, Al-Makriziy: "Uning (an-Nosirning) hukmronligi davrida totorlar Sharq mamlakatlarini vayron qildilar. Ular Xamadonga qadar yetib bordilar. Buning sabablari quyidagilar bo‘lgan: u ularga haqiqatdan ham maktub yozib «bu mamlakatlarga bostirib kirishga undagan edi» - degan fikrni keltirib o‘tadi. Ibn Vosilda ham shunga o‘xshagan ma’lumotni uchratamiz: «Xorazmshoh Bog‘dodga yurish qilganda xalifa totorlar hukmdori Chingizxon Sulton (Sulton Muhammad nazardan tutilmoqda - muallif) mamlakatiga hujum qilishga undab maktub yozadi»⁸⁶. Sulton Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi kurashini tashkil qilish uchun 1224-1225-yillarda Eronga boradi. Bu kurashda yordam berishni so‘rab an-Nosirga murojaat qiladi. Xalifa rad javobi bilan cheklanmasdan, balki Sultonga qarshi qo‘shin ham jo‘natadi. Bundan nihoyatda ranjigan Jaloliddin Bag‘dodga qarshi yurish boshlaydi va buni sababini qo‘shni davlatlar hukmdorlarga shunday izohlaydi. «Tayyor turinglar, xalifaga qarshi yurish boshlaymiz. Negaki, kofirlarning islom mamlakatlariga bosib kirishiga, mo‘g‘ullarning va mening otamning o‘limiga u sababchidir. Biz xalifani yozgan maktubini topdik. Bu maktubda u ularni islom mamlakatlariga hujum qilishga da’vat etadi»⁸⁷.

⁸⁶ Shihobiddin an-Nasaviyning «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Mankburn» asariga 3. Bunyodov izohlari. – Toshkent, 1999. – B. 55-57.

⁸⁷ Shihobiddin an-Nasaviyning «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Mankburn» asariga 3. Bunyodov izohlari. – Toshkent, 1999. – B. 195-196.

Menimcha, shu dalillarning o‘ziyiq Bartold fikrlarini, xulosalarini asossizligini ko‘rsatadi.

Turkiston tarixining chuqur bilimdonlaridan biri, major (major - vengerlarning o‘rta asr manbalarida uchraydigan nomi muallif) tarixchisi Herman Vamberi ham: «Chingiz G‘o‘bi sahrosining Sharqiy G‘arbiy etaklarigacha hokim edi. Anchagina shaharlar, ko‘pgina dehqonlar talaygina vahshiy urushqoq xalqlar uning tasarrufida edi. Agarda, o‘tgan bobda zikr qilganimizdek, Xorazmshoh Sulton Muhammad bilan o‘rtalarida adovat chiqmaganida ham, Chingiz o‘zining muvaffaqiyatli g‘alabalari bilan cheklanib qolmas edi. Chunki u endi, o‘zining madaniyati, boyligi buyukligi bilan shuhrat qozongan mamlakatning darvozasi oldida turar edi. Uning hukmdori shavkat va qudrat bobida Chingizxonga teng raqib, layoqatli dushman edi», - deb yozib hech qanday sabab, bahona Chingizxonning Sharqqa yurishini to‘xtatib qolmasligini alohida ta’kidlab o‘tgan ⁸⁸. Shunisi qiziqarliki, V.V. Bartold yuqorida aytib yozilgan o‘z fikrini inkor qilib shunday deb yozadi: «Mo‘g‘ullar uzil-kesil Xorazmshohlar davlati chegralaridagi cho‘l hududlariga kelib o‘rnashgach, ularning madaniy boy xalqlar yerlariga bostirib kirishini to‘xtatib bo‘lmas edi»⁸⁹.

Bu fikrlardan shunday asosiy xulosaga kelishimiz mumkin, Chingizxon va Xorazmshoh o‘rtasida urush bo‘lishi muqarrar edi. Bu urushga avvalambor Chingizxonning bosqinchilik siyosati, boy-madaniy o‘lkalarni bosib olib jahonga hukmronlik qilish istagi sabab bo‘ldi. Shu narsa juda ham aniqki, Chingizxon Xorazmshohlar ustiga yurishini oldindan puxta rejalashtirgan.

Bunda o‘z Vatani, iymonini sotib, Chingizxon boshliq bosqinchilarga sadoqat bilan xizmat qilgan, dushmanga barcha zarur ma’lumotlarni berib turgan ayrim sotqin amaldorlarning, musulmon savdogarlarining xizmatlari katta bo‘ldi. Akademik Ziyo Bunyodov Xorazmshohlar davlati tarixiga oid juda ko‘p manbalar, shuningdek,

⁸⁸ Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. –Toshkent, 1990. – B. 19.

⁸⁹ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. –Moskva, 1963. –S. 467.

tadqiqotchilarning asarlarini o'rganib, mo'g'ullar bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatining ichki hayoti, saltanatdagi ijtimoiy siyosiy ahvoli to'g'risida atroflicha ma'lumot bergan. Biz Ziyo Bunyodov asarida, shu davr haqida ancha xolis xulosalarni kuzatganimiz holda V.V. Bartold asarida ayrim voqealarni yoritishda holislikni ko'rmaymiz. Masalan, Ziyo Bunyodov musulmon savdogarlarining Chingizxonga bergan har tomonlama yordamlarini Vatanga xoinlik deb ta'riflasa, Bartold o'z asarida bu holatga bunday baho bermaydi. Bunga Chingizxonning bosqinchilik siyosati, boy-madaniy o'lkalarni bosib olib jahonga hukmronlik kilish istagi sabab bo'ldi. Shu narsa juda ham aniqki, Chingizxon Xorazmshohlar ustiga yurishini oldindan puxta rejalashtirgan.

Vaholanki, mo'g'ullarni tez g'alabasini ta'minlagan omillardan biri, Chingizxon xuddi shu Vatan xoinlaridan Xorazmshohlar davlatining jo'g'rofiy joylashuvi, qo'shinlar o'rni shahar va qal'alar ahvoli, urug'-qabilaviy nizo qarama qarshiliklar, ayniqsa eng muhim tomon Turkon Xotun va Sulton Muhammad o'rtasidagi muxolifat to'g'risida yetarli ma'lumotlar olib undan ustalik bilan foydalangan.

Agar chuqurroq o'ylaydigan bo'lsak, Sulton Muhammad Chingizxon tomonidan ustalik bilan qo'yilgan tuzoqqa tushgan degan xulosaga kelish mumkin. Ma'lumki, Xorazmshoh davlati, qo'shinida Turkon Xotun va uning urug'-aymoqlarining ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan. Eng asosiysi viloyatlar Xorazm, Xuroson, Mozondaron, Mavoraunnahrda, shuningdek, Gurganj, Samarqand, O'tror kabi shaharlarda Turkon Xotun urug'idagi amirlar hukm yuritishgan. Chingizxon bu jihatni juda yaxshi bilgan. U 1218-yilda 450 kishilik, asosan musulmonlardan iborat bo'lgan savdo karvonini jo'natarkan, bunda ikki maqsadni ko'zlagan bo'lishi mumkin. Birinchidan, eng asosiysi josuslik, ma'lumotlar yig'ish, bunda ataylab musulmonlardan foydalanish. Vaholanki, o'sha davr qonunlarida josuslik uchun o'lim jazosi qo'llanilardi. Ikkinchidan, mabodo savdogarlar josuslikda ayblanib, qatl etilgan taqdirda ham Chingizxon uchun foydali edi. Chunki u musulmon dunyosida go'yo musulmonlarning homiysi

sifatida nom chiqarish, o'z yurishlarini oqlash imkoniyatiga ega bo'lardi.

Karvonni josuslikda ayblab, qirg'in qilishga buyruq bergan O'tror hokimi Inolxon Xorazmshohning onasi Turkon Xotun urug'idan bo'lib, yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablarga ko'ra Sulton uni mo'g'ullarga topshira olmasdi. Bu holatlar albatta Chingizxon tomonidan hisobga olingan bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlarni tasdiqlovchi fikrlar Juvayniy va Nasaviy asarlarida uchratish mumkin⁹⁰.

Albatta, Xorazmshoh Muhammad Inolxonni qo'lga olib, Chingizxonga topshirgan bilan, mo'g'ullar hujumini saqlab qola olmasdi. Bartold ta'kidlaganidek, Chingizxon 1219-yilga kelib urushga tayyor bo'lmasa, qanday qilib harbiy harakatlarini boshlashi mumkin edi. Uning nazarida «Chingizxon juda kuchli harbiy strategik uzoqni o'ylovchi hukmdor, yuksak mahoratli tashkilotchi bo'lgan»⁹¹. Demak, puxta tayyorgarlik ko'rmasdan bunda yurishga chiqib bo'lmaydi. Chingizxon «O'tror voqeasidan bor yo'g'i 3-4 oy o'tibgina o'z hujumini boshladi. Nima bo'lganda ham dushman bu yurishga puxta tayyorgarlik ko'rgan, o'zlarini ig'vogarona harakatlari bilan (musulmon savdogarlardan, ularning qatl etishini bilib, josuslikda foydalanishi, Xorazmshohni «o'g'li» ya'ni «vassali» darajasida ko'ruvchi maktub yo'llashi – muallif) Xorazmshohni urush domiga torta bildi». Endi urush boshlanish tayin bo'lganda Sulton Muhammad Xorazmshohning g'aroyib hatti harkatlari, ya'ni qo'rquv va dahshatdan o'zi yo'qotib qo'yganligi, tashabbusni qo'ldan boy berganligi masalasida o'z fikrlarimizni bildirsak.

Muhammad Xorazmshoh mo'g'ullar hujumi arafasidagi yo'l tutgan xatolaridan Yana biri musulmon ulamolari orasida ayrim nojo'ya harakatlari bilan o'z nufuzini yo'qotganidir. 1216-yilda Sulton buyrug'i bilan mashhur Shayxlardan biri Najmiddin Kubroning (1145-1221) sevimli shogirdlaridan, onasi Turkon Xotunning homiyligida bo'lgan

⁹⁰ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. –B. 76-80.

⁹¹ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. –Moskva, 1963. –S. 417.

Majid-ad-Din Bag‘dodiyning o‘ldirilishi Xorazmshoh bilan onasi va ruhoniylar o‘rtasidagi ixtilofni yanada chuqurlashtirdi. Bu ayniqsa, Xorazmda juda katta nufuzga ega bo‘lgan Najmiddin Kubroga ta’sir qildi. Hatto, o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lgan Sulton Muhammad, professor Najmiddin Komilovning yozishicha, Shayx oldiga juda katta tuxfa bilan kechirim so‘rab keladi. Ammo Shayx shafqat qilmasdi: «Endi kech bo‘ldi, farzandim Majiddin qoni jamiki el-avloding, mol-mulkingni berganingda ham yuvilmaydi, qonni qon yuvadi», - deb javob beradi⁹².

Bu gap-so‘zlarning ovozasi Buxoro, Samarqand ruhoniylariga ham yetib boradi, kuchli ta’sirga ega darvishlar eshitadi. Bu ham Sultonning mavqeiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. Majiddinning o‘ldirilishi sabablarini XIII asr tarixchilari aytib, o‘tmasada, keyingi davr tarixchilaridan Kazviniy eslatib o‘tgan. U qatlning sababi qilib, Shayx bilan onasi o‘rtasidagi ishqiy munosabat, deb aytib o‘tadi⁹³. Bartold bu sababni asossiz ekanligini aytib o‘tganda, umuman, haq edi⁹⁴. Mo‘g‘ullar istilosi davrining tadqiqotchilari, deyarli bir ovozdan Sulton Muhammad qo‘shinlarini bir joyga to‘plamay, kaltabinlik qildi bu esa Xorazmshohlar davlati halokatining bosh sababi bo‘ldi, deb hisoblashadi. Ammo Sulton Muhammadning bunday qarorga kelishining jiddiy sabablari bor edi.

Mo‘g‘ullar bilan urush muqarrar bo‘lib qolganda Sulton Muhammad harbiy kengash chaqiradi. Bunda mo‘g‘ullar bilan urush taktikasi masalasi ko‘rib chiqildi va quyidagi mulohazalar o‘rtaga tashlandi:

1. Xorazmshohlar vaziri, Shahobiddin Xivaqiy butun qo‘shinni Sirdaryo bo‘yiga to‘plashni va uzoq yo‘ldan charchab kelgan dushmanga zarba berishni;

⁹² Komilov Najmiddin. Najmiddin Kubro. – Toshkent, 1995. – B. 26.

⁹³ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva, 1963. – S. 411.

⁹⁴ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva, 1963. – S. 411.

2. Ayrim sarkardalar mo'g'ullarni Movarounnahrda kiritish, ularni begona joydagi holatidan holatidan foydalanib yo'q qilish;

3. Bir qism amirlar - Movarounnahrni o'z holiga tashlab, Amudaryoga kechuv joylarini himoya qilishni;

4. Hatto, G'aznaga chekinib, o'sha yerda qo'shin to'plash, bu tadbir amalga oshmasa, Hindistonga chekinishi kabi takliflar bo'ldi⁹⁵.

Ammo Xorazmshoh eng to'g'ri bo'lgan birinchi taklifni qabul qilmasdan, balki chekinadi va o'sha yerda qo'shin to'play boshlaydi. Ammo Xorazmshoh mo'g'ullardan ta'qibidan qochib u yerdan Nishopurga chekinadi, undan o'g'li Rukniddin tasarrufidagi Mazondoronga keladi. Bu yerda bir muddat Kaspiy dengizi orollaridan biriga qochib o'tib o'sha yerda 1220-yil dekabr oyida vafot etdi.

Bundan tashqari ko'pgina amirlar, sarkardalar ham og'ir vaziyatda o'z xalqiga hiyonat qilib mo'g'ullar tarafiga o'tib ketgan. Ular ham Chingizxonga juda qimmatli maslahatlar berib, bu bilan o'z davlatlarini halokatini tezlashtirib, xalqi boshiga bitmas tunganmas kulfatlar kelishiga sababchi bo'lishdi.

Masalan, Badriddin al-Amid, Sultonning turkiy mamlakatlar uchun O'trordagi vaziri, O'tror qo'ldan ketgandan keyin, Chingizxon huzuriga kelib shunday maslahat beradi. Badriddiy al-Amid go'yo Turkon Xotunning lashkarboshlari nomidan Chingizxonga maktub uyushtiradi. Bu maktubda shunadi so'zlar bitilgan edi: «Biz urug'imiz va bizdan panoh istaganlar bilan birgalikda turkiylar mamlakatidan Sulton huzuriga, uning onasiga xizmat qilish uchun keldik. Bizlar unga yer yuzining barcha davlatlariga qarshi kurashda, ularni bosib olishda, hukmdorlari va aholisini bo'ysundirishda yordam berdik. Endilikda uning onasi haq-huquqlariga nisbatan niyatlari va munosabatlari o'zgardi: u o'zining manmanligi va takabburligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, u (Turkon Xotun) Sultonga yordam bermasligimizni buyurdi.

⁹⁵ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva, 1963. – S. 472.

Bizlar esa sening kelishingni kutaymiz, sening amringga bo'ysunish niyatidamiz»⁹⁶.

Shuningdek, Chingizxon bir o'q bilan ikki quyovni urush maqsadida o'ziga sodiq bo'lgan odamlardan yana biri, Xojib Donishmandni Xorazmga Turkon Xotun huzuriga jo'natadi. U Turkon Xotunga shunday noma beradi: «Ma'lumki, o'g'ling huquqlaringni poymol etib, senga yomonlik qildi. Shu sababli, men uning ba'zi amirlari bilan kelishgan holda unga qarshi urush qilmoqchiman. Ammo, sening mulkingga hujum qilmayman. Agar sen shartingga ko'nsang, mening so'zlarim ishonchli ekanligini bilmoqchi bo'lsang, huzurimga kimnidir yubor. Shundan so'ng, Xorazm, Xuroson va Jayhunning narigi tomonida ularga chegaradosh bo'lgan mulklar ham senga beriladi»⁹⁷. Xuddi shu vaqtda Xorazmshoh Movarounnahrni tashlab, Eronga ketganligi to'g'risida xabar keladi. Chingizxonning xati, o'g'li Sulton Muhammadning qochishi hokimiyatparast Turkon Xotunning irodasini bo'shashtirdi. Oldingi shijoat, takabburlikdan asar ham qolmagandi. Chingizxon nomasini olgan «Turkon Xotun qo'rquv bilan shaharni taqdir hukmiga tashlab tark etdi va Xorazmdan chiqib ketadi»⁹⁸.

Davlat ustunlari hisoblangan bu ikki shaxsni qo'rquqlarcha o'z burchiga xiyonat qilib, xalqini tashlab ketishi Xorazmshohlar davlatidagi vaziyatni yanada chigallashtirdi, oqibatda saltanat halokatini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Tashqaridan yagona bo'lib ko'ringan bu ulkan saltanat aslida 1217-yilga kelib 2 qismga bo'lingan edi:

1. Xorazm, Xuroson, Mozondaron, valiahd Qutbiddin Uzlakshoh, aniqrog'i Turkon Xotun hukmida edi.

2. Qolgan viloyatlar Sulton Muhammad hukmronligini tan olardi. Qizig'i shundaki, Turkon Xotun hududlarida Sulton Muhammad hukmdorlari deyarli ijro etilmasa-da, butun saltanatda Turkon Xotun

⁹⁶ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 83.

⁹⁷ O'sha asar. – B. 84.

⁹⁸ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 84.

hukmlari, har holda qabul qilinardi. Shu masala bilan bog‘liq voqeani An-Nasaviy o‘z asarida keltirib o‘tadi. «Sulton Iroqdan qaytayotib (1217-1218-yili qishi) Nishopur shahrida Turkon Xotun maslahati bilan vazirlik lavozimiga qo‘yilgan Nizom ul-Mulk Nasriddinni (aslida Turkon Xotunning g‘ulomi bo‘lgan -muallif) xizmatidan chetlashtiradi. Bunga bu vazirning o‘ta poraxo‘rligi, firibgarligi va ko‘p shikoyatlar tushganligi sabab bo‘lgan edi. Uni Turkon Xotun huzuriga haydab yubordi. Turkon Xotun uni katta tantana bilan kutib oladi va valiahd Qutbiddin Uzlaqshohning vazirligi lavozimini topshiradi. Bu yerda ham vazir o‘zini adolatsiz faoliyatini to‘xtatmaydi. Sultonga shikoyatlar ko‘payadi. Sulton Xorazmga Izziddin Turg‘ul boshchiligida qo‘shin jo‘natib Nosiriddinning boshini olib kelishni buyuradi. U Xorazmga yaqinlashganda Turkon Xotun Sultonning niyati va qaroridan to‘la xabar topgan edi. U Izziddinni devonda yig‘ilganlar guvohligida Sultonning Nosiriddinga salomini yetkazishni va uning nomidan mening sendan bo‘lak vazirim yo‘q» deb gapirishga majbur qiladi. Bu bilan u Sultonning irodasiga qarshi chiqadi⁹⁹. Vazirning buyruqlari Xorazm, Xuroson, Mazondoron hududlarida bajarilar, boshqa yerlarda ijobatga o‘tmasdi. Bundan tashqari Sultonning xalifa An-Nosir bilan munosabatlari keskinlashgan vaqtda uning nomini butun saltanatda xutbadan chiqarib tashlashga farmon beradi. Ammo bu buyruk Xorazm, Xuroson, Mozondaron yerlarida bajarilmas edi. Xalifa nomi bu yerlarda Turkon Xotun farmoni bo‘yicha xutbaga qo‘shib o‘qiladi.

Chingizxon xoin vatanfurushlar yordamida bunday qarama-qarshiliklardan ustalik bilan foydalanganligini biz yuqorida aytib o‘tgan edik. Saltanatda birlikning yo‘qligi, hatto mo‘g‘ullar Movarounnahrni egallab, saltanat yuragi Gurganjga hamla qilayotgan vaqtda ham davom etdi. Sulton Muhammadning Kaspiy dengizi orollaridan birida vafot etganligini aytib o‘tgan edik. Sulton vafotidan sal oldinroq, onasi Turkon Xotunning asir tushganligini eshitib,

⁹⁹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 72-73.

valiahdlik to'g'risidagi o'z qarorini o'zgartiradi. O'g'illari Oqshoh va Uzlaqshohlar guvohligida katta o'g'li Jaloliddinni valiahd qilib tayinlaydi. Sulton vafotidan keyin, uning o'g'illari Jaloliddin boshchiligida mo'g'ullarga qarshi kurashishni tashkil qilish uchun 1221-yil yanvar oyida Gurganjga kirib keldilar.

Ammo, Gurganjda hokimiyat hali ham Turkon Xotun urug'idan bo'lgan amirlar qo'lida edi, ular Sulton Xorazmshoh Muhammadning so'nggi irodasini umuman tan olmadilar. Dushman katta kuch bilan Movarounnahr xarobalari ustidan Gurganjga yetib kelayotgan bir paytda ham qabilaviy nizolar, hokimiyat uchun kurash davom etdi. Hatto, qipchoq amirlari Uzlaqshoh bilan Jaloliddinga qarshi til biriktirib, uni o'ldirish uchun fitna tayyorlashadi. Bu bilan bo'lajak halokatni yanada tezlashtirishga xizmat qildilar. Balki, butun 90 ming kishilik qo'shin qobiliyatli sarkarda Jaloliddin bayrog'i ostida birlashganida tarix g'ildiragi boshqa tomonga aylanib ketgan bo'lishi mumkin edi.

V.V.Bartold: «mo'g'ullar hujumi shu darajada shiddatli bo'ldiki, musulmonlar orasida jiddiy qarshilikni tashkil qiladigan rahbar yo'q edi, Jaloliddin, Temur Malik kabi ayrim sarkardalar jasorati umumiy ishga nafi tegmagan shaxsiy qahramonlikdan boshqa narsa emas edi», - degan fikrni bildiradi va Jaloliddinning ozodlik kurash yo'l boshchisi bo'lganligini, mo'g'ullarga qaqshatqich zarba berganligini unutib qo'yadi¹⁰⁰.

Bu haqda Oydin Tonariy (turk tarixchisi «Jaloliddinshoh va uning davri» asarida hamda Shavkat Saidov ham «Jaloliddin Manguberdi davlati» nomli risolasida to'xtalib o'tgan edilar¹⁰¹. Xuddi mana shu urug' - qabilaviy nizo, Jaloliddin Xorazmshohni Hirot, Xuroson, G'azna yuksak darajada tashkil qilgan va mo'g'ullarni butun urush davomida birinchi marta sharmandalarcha mag'lubiyatga uchratib tashabbusni o'z

¹⁰⁰ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. –Moskva, 1963. –S. 486.

¹⁰¹ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999.; Saidov Sh. Jaloliddin Manguberdi davlati. –Toshkent, 2000.- 44 b.

qo‘liga olayotgan bir paytda juda katta zarar yetkazadi. Bunday imkoniyat 1221-yil mart - aprel oylarida Parvona jangidan keyin paydo bo‘lgan edi. Ammo o‘sha ma‘lum qabilaviy nizo yana pand berdi va Jaloliddin mo‘g‘ullar bilan shiddatli janglar qilib Hindistonga chekindi (Parvona - Shimoliy Afg‘onistonda, Qobul va Bamiyon shaharlari orasida joylashgan dashtlik, cho‘l -muallif). Shunday qilib, urug‘-qabilaviy nizolar, valiahd tayinlashdagi xatoliklar ham saltanat halokatining sabablaridan biri edi.

Bu sabablarga qo‘shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, Xorazmshoh qo‘shini son jihatidan mo‘g‘ullar qishinidan ancha ko‘p bo‘lsada, bu ustunlikdan foydalanib bo‘lmadi¹⁰². Buning ustiga barcha tarixchilar Xorazmshoh qo‘shinlarining jang qilish usuli mo‘g‘ullarnikidan keskin farq qilar edi degan fikrni bildirishadi. «Mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan ilk janglardayoq mo‘g‘ullarning jang usullari, pistirmadan foydalana bilishi mahorati borligi ko‘rsatdi»¹⁰³. Buni Xorazmshoh ham tan olib, xuddi shu narsa yuragiga vahima solgan edi. Bu usullarni Xorazmshohning o‘zi ham, amirlari ham bilmasdilar, shuning uchun ular mo‘g‘ullarning harbiy usullari ustun ekanligini sezdilar¹⁰⁴.

V.V.Bartold ham bu masalaga alohida e‘tibor berib, mo‘g‘ul qo‘shinlarini yuksak tartib-intizomli, hukmdor va sarkardalik buyruqlarini so‘zsiz bajarishga odatlangan lashkar sifatida tasvirlaydi¹⁰⁵. Bunda, u Chingizxonning buyuk sarkardalik qobiliyatiga yuqori baho beradi. Shuningdek, mo‘g‘ullar o‘ta shafqatsizligi, aholini ommaviy qirg‘in qilishlari bilan xalq orasida shunday vahima uyg‘otdilarki, bunday ruhiy holat o‘nlab shaharlarni osonlik bilan bosib olinishini ancha yengillashtiradi. Ayol-erkak, yosh-u-qari barcha qilichlar domidan o‘tkazildi. Ko‘pgina shaharlar umuman tekislanib, suvga bostirildi. Asirlardan esa jonli qalqon va tekin ishchi kuchi

¹⁰²Saidov Sh. Jaloliddin Manguberdi davlati. –Toshkent, 2000..- B.24.

¹⁰³ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999. – B. 24

¹⁰⁴ Ziyoy Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. –B. 196.

¹⁰⁵ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. –Moskva, 1963. –S. 486.

sifatida foydalanildi. Jaloliddinning harbiy dahosi shundaki, mo'g'ullarning yangi jang usulini tez fahmlab, ularni yangi jang usuli bilan yengishga muvaffaq bo'ldi. Ammo, Xorazmshoh Sulton Muhammad bunday iqtidorga ega emas edi. U mo'g'ullarga qarshi samarali jang uslublarini, g'alaba qozonish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqa olmadi.

Xorazmshohlar saltanati halokatining sabablarini, avvalo, Sulton Alovuddin Xorazmshohning shaxsidan ham izlash kerak. Sulton Muhammad Alovuddin chetdan ulug', yengilmas ko'rinsa-da, aslida qo'rqqoq, beqaror xarakter ega bo'lib, qa'tiyatli hukmdor emas edi. Osongina g'alabalarga ko'nikib qolgan, so'nggi g'alabalardan nihoyatda mag'rurlanib ketgan manmanlik kasaliga giriftor bo'lgan birinchi jangdayoq* vahimaga tushib, yuragini qo'rquv qamrab oladi. Bu haqda An-Nasaviy shunday yozadi: «Sultonning ko'nglini qo'rquv va ularning (mo'g'ullarning) jasoratiga ishonch qamrab oldi¹⁰⁶. Aytishlaricha, u o'z yaqinlariga deganmishki, urush qiyinchiliklari oldidagi (jasorat) matonati, nayza bilan sanchish, hamda qilich bilan chopishning barcha qoidalari bobida bularga tenglasha oladigan, biror kimsani hali o'z ko'zi bilan bilan ko'rmagan»¹⁰⁷. Mo'g'ullarning hujumi muqarrar bo'lib qolganda ularga qarshi urushish, jang olib borish strategiya va taktikasi asoslariga bag'ishlangan harbiy kengashda turli fikrlar bildirildi. Juvayniyning aytishicha, Jaloliddin otasidan butun qo'shinni unga topshirishni so'ragan¹⁰⁸. Ammo, Sulton rozilik bermagan. Manbalarda ta'kidlanishicha, vazir Shahobiddin Hivaqiyning butun qo'shinni Sirdaryoning u tomonidan bir joyga to'plab dushmanga zarba berish haqidagi taklifi ham inobatga olinmadi¹⁰⁹. Sulton Muhammadni bunday qilishga, ya'ni qo'shinlarni bir joyga to'plashdan bosh tortishiga asoslari bormidi? Manbalarning tahlili

*Ziyo Bunyodovning yozishicha, bu jang 1216-yil oxirida Dashti Qipchoqda Chingizxonning katta o'g'li Jo'jixon qo'shinlari bilan bo'lib o'tadi. 17 yoshli shahzoda Jaloliddinning jasorati tufayligina Xorazmshoh mag'lubiyatdan qutulib qoladi-Sh.Saidov)

¹⁰⁶ Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 167-168.

¹⁰⁷ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 90-91.

¹⁰⁸ Bo'riyev O.B., Toshev N.T. Jaloliddin Manguberdi. –Toshkent, 1999. – B. 21.

¹⁰⁹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 107.

shuni ko‘rsatmoqdaki, Xorazmshohning sarkardalariga ishonmasligiga va ularni bir joyga to‘plamaganiga bir qancha sabablari bo‘lgan. Eng asosiy sabab, onasi Turkon Xotun edi. Bu ayolni ko‘pgina tarixchilar Xorazmshohlar saltanatini halokatining bosh aybdori deb bilishadi. Akademik Ziyo Bunyodov Turkon Xotun saltanatidagi o‘rniga baho berar ekan shunday deydi: “Xorazmshohlar davlatining tarixida Sulton Muhammad hukmdorligi davrini o‘rganar ekanmiz, unda Turkon Xotunning yetakchi rol o‘ynaganligini, uning buyruq va maslahatlari Muhammad tomonidan so‘zsiz bajarilganligini kuzatishimiz mumkin. Mantiqan olib qaraganda, u (Turkon Xotun) mamlakatda ikkinchi ehtimol, birinchi shaxs bo‘lgan deyish mumkin”¹¹⁰.

Chunki, Muhammadning farmon va topshiriqlari onasi tomonidan muhokama qilinmasdan rad qilingan paytlari ham ko‘p bo‘lgan. Uning o‘z shaxsiy «devon al-insho»si bo‘lganligi ham davlat miqiyosidagi barcha masalalarni mustaqil ravishda hal qilish imkoniyatiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Juvayniyning aytishicha, Turkon Xotun hukmronlik uchun Gurganj (Urganch)ni poytaxt qilib olgandi. O‘z saroyi, o‘z mulki bor edi. Turkon Xotun nafaqat Sulton ustidan hukmronlikka ega edi, balki uning moliyaviy ishlariga, saroy xodimlariga ham rahbarlik qilardi. Juvayniyning bu so‘zlari o‘sha vaqtdagi ahvolni yaxshi namoyon qiladi¹¹¹.

Nasaviyning yozishicha «Sulton onasining tazyiqi ostida to‘ng‘ich o‘g‘li Jaloliddin va undan kichiki Rukniddin G‘ursanjiyni chetlab o‘tib, yosh Qutbiddin Uzlaqshohni taxt vorisi deb e‘lon qilgan edi¹¹². Ammo, sulolada shakllangan odatga ko‘ra, taxt vorisi deb katta o‘g‘li e‘lon qilinishi kerak edi. Turkon Xotun Jaloliddin va uning validasi Oychechakni g‘oyatda yomon ko‘rar, o‘zga urug‘ kelinidan tug‘ilgan O‘zlaqshohni esa doim homiylik qilardi»¹¹³.

¹¹⁰Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. –B. 168.

¹¹¹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 92.

¹¹² Bo‘riyev O.B., Toshev N.T. Jaloliddin Manguberdi. –Toshkent, 1999. – B. 22.

¹¹³ Bo‘riyev O.B., Toshev N.T. Jaloliddin Manguberdi. –Toshkent, 1999. – B. 22.

Bundan ko‘rinadiki, Xorazmshohlar davlatida ikki hokimiyatchilik hukm surardi. O‘zini «ikkinchi Iskandar», «ikkinchi Sulton Sanjar» deb ulug‘lagan Sulton Muhammad aslida onasidan qo‘rqarmidi? Bu savolga javob berish albatta, qiyin masala. Bu yerda Sharqda shakllangan onaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish an‘anasiga amal qilinganligini ko‘ramiz. Akademik Ziyo Bunyodov bu haqida gapirib, Xorazmshoh to‘g‘rirog‘i onasini hurmat qilardi deb uqtirib o‘tgan fikrlariga biz ham qo‘shilamiz¹¹⁴. Umuman Turkon Xotunning shaxsi, davlatdagi o‘rni alohida mavzu. Nima bo‘lganda ham Chingizxon bosqini arafasida Xorazmshohlar davlatida ikki hokimiyatchilikning mavjud bo‘lganligi bu esa mamlakat parokandaligini va halokatida asosiy sabablaridan biri bo‘ldi yesak hatto qilmaymiz. An-Nasaviy shunday yozadi: «Xorazmshoh hech qachon onasiga qarshi chiqmas edi. Bu ish ikki sababga ko‘ra edi: birinchidan, onasining unga bo‘lgan mehrini qadrlash va ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasining urug‘idan ekanligi».¹¹⁵

Ziyo Bunyodov o‘z asarida bu fikrni boshqa tarixiy manbaarni o‘rganish asosida yana rivojlantiradi: «Turkon Xotun faqat Sultonga hukmini o‘tkazibgina qolmay, balki moliya ishlarini ham boshqarardi, amirlar va amaldorlarga ham farmon berardi. Bu holat mo‘g‘ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi ahvolning barqarorligini bir muncha yo‘qotdi», deb yozadi¹¹⁶.

Ahvol shu darajaga yetgan ediki, Sulton Muhammad saltanat poytaxti Gurganjga umuman bormas, o‘ziga markaz qilib Samarqandni belgilab olgan edi. Ulkan hududlarning asosiy yerlari Turkon Xotunga tegishli yoki uning urug‘idan bo‘lgan shaxslarga bo‘lib berilardi. Turkon Xotunning davlat ishlariga aralashuvi natijasida haqiqiy taxt vorisi, mo‘g‘ullarga qarshi kurashda g‘olib chiqishi mumkin bo‘lgan, mamlakatni asrab qolishga qodir Jaloliddin asossiz ravishda, ya‘ni uning onasi boshqa urug‘dan bo‘lganligi uchun ham valiahdlikdan

¹¹⁴ Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 158.

¹¹⁵ Ziyo Bunyodov. – B. 159.

¹¹⁶ Ziyo Bunyodov. – B. 159.

chetlashtirildi. Sulton Muhammad bu xatosini ancha kech, mamlakat jar yoqasiga kelib qolgandagina anglab yetdi. Hatto, Jaloliddin otasining oxirgi amrini bajarib, Xorazmning poytaxtiga yaqinlashib qolgan mo'g'ullarga qarshi kurashishga rahbarlik qilish, hamma kuchlarni shu yo'lda birlashtirish uchun Gurganjga kelganida, Turkon Xotun urug'idan bo'lgan amirlar unga qarshi suiqasd tayyorlaydilar bu bilan saltanat halokatini yanada tezlashtiradilar.

Chingizxon esa Xorazmshohlar saltanatidagi bunday nizo va qarama-qarshiliklardan yaxshi xabardor edi. U bundan ustalik bilan foydalandi. Og'ir vaziyatda o'z vatani, ona tuprog'ini sotgan ayrim amir, hukmdor, savdogarlar bu ishda mo'g'ullarga har tomonlama yordam berdilar. Shunday sotqinlardan biri Buxoro sadrlaridan Badriddin Al-Amid, Chingizxonga Xorazmshoh qo'shinlarining joylashishini, davlat ichidagi nizolar, kelishmovchiliklar haqida keng ma'lumot berib turgan. Chingizxon bu ma'lumotlardan unumli foydalangan.

Bu haqda An-Nasaviy shunday yozadi: Chingizxon O'troni bosib olgach, uning huzuriga Badriddin al-Amid kirib keldi va shunday deydi: «... Sulton hali kuchli va qudratli. Uning yonida ham lashkarlar ko'p, boshqa qo'shinga muhtojligi yo'q. Agar u istasa, mamlakat tegrasidan hozirgi mavjud qo'shinidan ikki barobar ko'p lashkar yig'ishi mumkin. Unga qarshi bir ayyorlik ishlat, natijada u o'z lashkarboshilaridan shubhalana boshlaydi»¹¹⁷.

Natijada ig'vogarona bir maktub bitishadi. Bu maktub mazmuniga ko'ra go'yo Turkon Xotun o'z urug'idagi amir va lashkarboshlaridan Sultonga bo'ysunmaslikni, yordam bermaslikni so'ragan bo'ladi¹¹⁸. Bu maktub ustalik bilan Sultonga yetkaziladi. «... Bu ahvoldan Sulton ko'zi oldi qorong'ulashadi, dunyo ko'ziga tor ko'rinadi, qa'tiyatiga putur yetadi. Kimlarni sotqinlik qilishi mumkinligi haqida hayolan tasavvur qilgan bo'lsa, olgan ma'lumotlariga ko'ra o'shalar haqiqatdan shunday bo'lib chiqdi.

¹¹⁷ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 83.

¹¹⁸ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 84.

Shundan keyin, u ularni ittifoqiga barham berish maqsadida, mamlakat himoyasini mustahkamlash uchun zarur degan asosda qo‘shinni guruhlarga bo‘lib, turli joylarga jo‘natadi»¹¹⁹ .

Xuddi shunday mazmundagi maktub Turkon Xotunga ham jo‘natiladi. Natijada «Turkon Xotun qo‘rquv bilan shaharni taqdir hukmiga tashlab tark etadi va Xorazmdan chiqib ketadi»¹²⁰ . Chingizxon va sotqin vatandoshlarimizning bu ayyorona harakatlari o‘z samarasini berdi. Katta qo‘shin shaharlarga bo‘lib tashlandi. Mo‘g‘ullar birin-ketin shahar va hududlarni egallab oldilar. O‘zaro qabilaviy nifoq, nizo va qarama-qarshiliklar, hatto davlat va xalq taqdiri uchun eng mas’uliyatli davrlarda ham davom etdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Gurganjda Jaloliddinga qarshi uyushtirilgan fitna ham huddi shu sabablar natijasi edi. Nafrat shu darajaga borib yetganki, Turkon Xotun nihoyatda og‘ir vaziyatga tushib qolganda ham nabirasi Sulton Jaloliddinning huzuriga borishdan bosh tortadi. An-Nasaviyning yozishicha, Turkon Xotunga shunday qilishni maslahat berishganida u bunday javob bergan: «Bunday gaplarni bas qil, yo‘qol! Men qanday qilib Oychichening (aslida Oychechak, Jaloliddinning onasi -muallif) o‘g‘li marhamatiga qaram bo‘lib yashayman... Hatto menga Chingizxon huzurida asirlikda boshimdan kechirayotgan sharmandalik va xo‘rlik ham uning yoniga borishdan ko‘ra a’lo!».¹²¹

Bu so‘zlar ortiqcha izoh talab qilmasa kerak. Akademik Ziyoy Bunyodovning fikricha, Xorazmshohlar saltanati halokatining yana bir muhim sabablaridan biri Sulton Muhammad va Turkon Xotunning bosib olgan mamlakatlar (jami 27 ta) hukmdorlari va ularning avlodlariga nisbatan nihoyatda qattiq qo‘l munosabatda bo‘lishi edi. «Mamlakat poydevorining yanada susayishiga olib kelgan sabablaridan yana biri shu ediki, Turkon Xotun ham uning o‘g‘li Xorazmshoh ham Gurganjda garov suratida turgan kishilarni yoki Xorazmshohlar davlatiga qo‘shib olingan mamlakat va o‘lka hokimlarini qatl qilib

¹¹⁹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 84.

¹²⁰ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 83.

¹²¹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 88.

turardilar... ana shuning uchun ham u butun mamlakatlarning birdan bir so‘qqabosh sultoni bo‘lib qoldi. Uning o‘zi mo‘g‘ullardan chekinganda ularga to‘siq bo‘la oladigan hech kimsa qolmagan edi»¹²².

Shunisi juda achinarliki, hatto Turkon Xotun Gurganjni tashlab chiqib ketayotganda poytaxtda garov sifatida ushlab turilgan 27 mamlakat hukmdori shahzodalarini Amudaryoga cho‘ktirishdek vahshiyona noinsoniy farmon berdi. Bu esa Sharq mamlakatlari hukmdor va xalqlarida juda yomon taassurot qoldirgan. Taqdirni qarangki, Turkon Xotunning bu qilmishlari o‘ziga jazo sifatida qaytdi. Mo‘g‘ullardan qochib Eronga kelib baland tog‘da joylashgan Ilol qal‘asiga bekinishiga qaramasdan qo‘lga tushiriladi. Sultonning o‘g‘illari barchasi qatl qilinadi. Faqat eng kichigi Kamoxishoh omon qolgan. U ham bo‘lsa Chingizxon buyrug‘i bilan keyinchalik Qoraqurumda bo‘g‘ib o‘ldiriladi ¹²³. Sultonning qizlari esa shahzodalarga, lashkarboshi va xoinlarga bo‘lib beriladi. Nasaviyning aytishicha, Turkon Xotun bu olamda hukmdorlarning farzandlarini qirg‘in etib nimayki qilgan bo‘lsa, shunga yarasha o‘z jazosini oldi.¹²⁴

Urug‘- aymoqchilik, qabilaviy nizolar, mol-dunyoga hirs qo‘yish zarur paytda birlasha olmaslik oqibatlarini Sulton Jaloliddin davrida ham davom etdi. Mamlakat taqdiri nihoyatda og‘ir, parokanda holatida taxtni egallagan Jaloliddin juda katta g‘ayrat va kuch bilan qo‘shin to‘plab ulkan hududda Xorazmshohlar saltanatini boshqatdan tiklashga muvaffaq bo‘ldi.

Sulton Jaloliddin halokatini tahlil qilar ekanmiz, yuqorida qayd qilingan sabablarning takrorlanishini ko‘ramiz. Parvona jangidan keyingi voqealar, ya‘ni mo‘g‘ullar ustidan qozonilgan g‘alabadan keyin qo‘lga tushirilgan o‘lja uchun talashishlar Jaloliddin amirlari va lashkarboshilari o‘rtasidagi ham ozodlik, ham mustaqillik ishiga juda katta zarar berdi. Shimoliy Hindistonda mo‘g‘ullarga qarshi qo‘shin to‘play olmagan Sulton Jaloliddin Eron, Ozarbayjonga keladi. Tarixiy

¹²² Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 160.

¹²³ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. –B. 88.

¹²⁴ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. –B. 83

manbalar Jaloliddin Xorazmshohni bu yerga mo‘g‘ullarga qarshi katta kuch to‘plash uchun kelganligini yetarli tasdiqlaydi.

Ammo, avvalo xalifa An-Nosirning(1185-1225), Jaloliddinning ukasi G‘iyosiddin Pirshohning hiyonati, Shimoliy Eronda hukm surgan Ismoililarning xoinona harakatlari va nihoyat qattiq ishongan vaziri Sharaf ul-Mulkning o‘z hukmdoriga nisbatan xoinligi Sulton Jaloliddinning halokatiga olib keldi¹²⁵. Bu haqda biz alohida to‘xtalib o‘tganmiz. Shunday qilib Xorazmshohlar saltanatining halokatiga olib kelgan quyidagi sabablarni ko‘rsatish mumkin:

1. Tashqaridan qudratli ko‘ringan saltanatda, aslida ikki hokimiyatchilik hukm surardi. Gurganjda Turkon Xotun farmonbardorlik kilsa, Xorazmshoh Buxoroni o‘ziga poytaxt qilib olgan edi;

2. Butun musulmon olamining boshlig‘i xalifa An-Nosirning Xorazmshohlarga nisbatan adovati, kofirlarning Islom mamlakatlariga bostirib kelishi uchun yo‘l ochib berganligi;

3. Urug‘-qabilalar o‘rtasidagi nizo va ixtiloflar, qarama-qarshiliklar vatan, xalq ozodligi yo‘lida birlasha olmaslik, o‘zaro bir-birini ko‘ra olmaslik kabi illatlarning mavjudligi;

4. Xorazmshohning valiahd tayinlashdagi xatolari va buning fojiali oqibatlari;

5. Sulton Muhammadning kaltabin, uzoqni ko‘ra bilmaslik siyosati, manmanlik va takabburlik kabi salbiy xislatlari, og‘ir vaziyatda o‘zini yo‘qotib qo‘yishi, shubhachi bo‘lganligi va eng halokatli xatolardan biri butun mamlakat qo‘shinini bo‘lib yuborishdek o‘ta mas’uliyatsiz taktikaning qo‘llanganligi;

6. Bosib olgan yurt hukmdorlari shahzodalari (asirdagilarni ham) ko‘p qatl qilinganligi, natijada Xorazm tashqi yerlarda deyarli madadlardan ajralib qolganligi;

¹²⁵ Saidov Sh. Jaloliddin Manguberdi davlati. –Toshkent, 2000. – B. 34.

7. Chingizxon hoin musulmon savdogarlar va amirlar yordamida Xorazmshohlar saltanati urush arafasidagi ahvoli to'g'risida ma'lumotlar va ularning xizmatlaridan keng foydalanganligi;

8. Xorazmshohning islom dinining ayrim ulamolariga nisbatan adolatsizligi va ruhoniylarning (ayniqsa, Buxoro, Samarqand) o'ziga qarshi qilib qo'yganligi;

9. Jang qilish taktika va strategiyasi, qo'shin tuzulishi va intizom masalalarida mo'g'ullarning ustunligi;

10. Sulton Muhammadning shaxs sifatidagi ojiz harakatlari, qo'rqoqligi, vahimaga tushib, ruhiy tushkunlikka tushishi, Vatan uchun halokatli oqibatlari;

Xulosa qilib aytganda, biz Xorazmshohlar saltanati halokatining ba'zi tomonlarini yoritishga harakat qildik ,xolos. Boshqacha fikrlar ham bo'lishi mumkin. Nima bo'lgan taqdirda ham bu masala atroflicha ilmiy o'rganishni va chuqur tahlil talab qiladigan mavzudir.

II.2.Xorazmshoh Sulton Muhammad oilasining taqdiri

Xorazmshohlar davlati halokati barobarinda, Sulton Muhammad oilasi va farzandlarining taqdiri ham fojiali tarzda yakun topdi. Sulton Muhammad Chingizxon hujumidan vahimaga tushib Movarounnahrni o'z holiga tashlab, jonini qutqarish uchun Xurosonga, undan Eronga sharmandali ravishda qochganligini yuqorida aytib o'tgan edik. Xorazmshoh Naxshab-Balx yo'lidan Xurosonga o'tib ketayotgan paytida: «bir kishini Xorazmga jo'natib, onasi Turkon Xotunga boshqa xotunlar, bolalar bilan jamiki xazina va zaxira qimmatbaho matolar, nafis buyumlar hamda javohirlarni olib Mazondaronga ketishi lozimligini aytdi. Xabar Turkon Xotunga yetgandan keyin atrofda kelganlardan bolalargacha voqif bo'ldilar. Amirlar va boshqa ayonlarni lashkar bilan Xorazm muhofazasi uchun qoldirdi. Boshqa o'g'illar va xonadondan bo'lgan bolalar hamda Sulton haramidagilarni olib, Mazondaron tomon jo'nadilar», - deb yozadi Mirzo Ulug'bek ¹²⁶.

¹²⁶ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 135.

Bu voqeani, ya'ni Turkon Xotunning Xorazmni tark etishini An-Nasaviy boshqacharoq ifodalaydi. Turkon Xotun Sulton Muhammadni Xurosonga ketib qolganligini eshitib vahimaga tushadi. Xuddi shu paytda Chingizxon dan maktub bilan Turkon Xotunga elchi keladi. Garchi Chingizxon bu maktubda Turkon Xotunga nisbatan xavf mavjudligiga ishora qilmasada bu elchilik unga qattiq ta'sir qiladi. Shundan keyin Turkon Xotun Xorazmni tashlab ketishga qaror qiladi. An-Nasaviy Turkon Xotunni Gurganjni tashlab ketganini shunday yozadi: «U (Turkon Xotun S.Sh.) Xorazmda qolish imkoniyati yo'qligini bildi va o'zi bilan olish mumkin bo'lgan narsalarning hammasini sulton xotinlarini, kichik yoshdagi bolalarini, xazinadagi boylikarni olib, shahar bilan xayrlashib Xorazmdan chiqdi».¹²⁷ Tarixiy manbalar va tadqiqotchilar Turkon Xotunning Xorazmshoxhoilasi va harami bilan Gurganjni tark etgach Xuroson orqali Eronning shimoliy viloyati hisoblangan Mazondoronga kelganligini tasdiqlaydilar.

Mirzo Ulug'bek Sulton oilasini Mazondoronning ikki qal'asiga, ya'ni Qorundej va Ilol qal'alarga yetib kelganligini yozadi. Mirzo Ulug'bek: «Jaba nuyon Raydan Sulton Muxammad Xorazmshoh izidan jo'nayotgan mo'g'ullar to'dasi Qorundej qal'asiga yo'naldilar. Zotan Sulton Muhammad Xorazmshohning ba'zi xotin-u farzandlari o'sha qal'ada edilar. Har ikki tomondan juda ko'p odam o'ldi. Oxiri mo'g'ullar qal'ayi Dejni qahran va jabran bosib oldilar hamda yer bilan barobar qildilar» (Jaba Nuyon Chingizxon tomonidan Sulton Muhammadni qo'lga tushirish uchun yuborilgan uchta sarkardadan biri)¹²⁸.

Sulton oilasi asirga tushdi. Ammo, An-Nasaviy asarida Qorundej qal'asida Sulton oilasi a'zolari bo'lganligi to'g'risida ma'lumot yozilmagan. Juvayniy esa Turkon Xotun Xorazmshox oilasining bir qismini Tehron yaqinidagi Larijov qal'asiga jo'natgan deb yozadi¹²⁹. Bizningcha, Juvayniyning ma'lumoti haqiqatga ancha yaqinroqdir.

¹²⁷Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 84.

¹²⁸ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 154.

¹²⁹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 86.

Chunki, Sulton Muhammadning to‘rtinchi farzandi G‘iyosiddin Pirshoh otasi tomonidan meros qilib berilgan viloyatlar Kirmon va Forsga onasini ham olib ketgan edi. Ehtimol o‘zi bilan birga Xorazmshohning onasidan tashqari xotinlari va kanizaklarining bir qismini olib, Tehron taraflarga borgan bo‘lishi mumkin. Bu masala alohida izlanishlarni talab qiladi.

Turkon Xotun Xorazmshohning ko‘pchilik xotinlari va farzandlari bilan Mazondoronning, ya‘ni hozirgi Eronning shimoliy qismida, Kaspiy dengizining janubiy qirg‘oqlarida joylashgan Ilol qal‘asiga yetib keladi. Ilol qal‘asining ahvoli, uning mo‘g‘ullar tomonidan olinishi manbalarda deyarli bir xil yozilgan. An-Nasaviyning yozishicha: «Turkon Xotun yonidagilarni Sulton xotinlari, boyliklarini olib, Ilol qal‘asi tomon yo‘lga tushdi. Ular bu yerda tatarlar Sultonni mamlakatdan quvib chiqarib, u orolda panox topib vafot etgunga qadar yashashdi (1220-yil dekabr oyigacha Saidov.Sh.) Ilol qal‘asi to‘rt oy qamal qilindi»¹³⁰.

Uzoq qamal va ayniqsa suvsizlik qal‘a aholisini tinkasini quritdi. Natijada Turkon Xotun taslim bo‘lishga majbur bo‘ladi. Shunisi qiziqki, Turkon Xotun taslim bo‘lib qal‘a devorlaridan ozgina uzoqlashishi bilan qattiq yomg‘ir yog‘adi. Qal‘aning barcha hovuzlari suvga to‘ladi. Ammo, vaqt o‘tgan edi. Turkon Xotun va Xorazmshoh oilasi taslim bo‘lgandan keyingi taqdiri manbalarda va tadqiqotlarda turlicha yoritiladi. An-Nasaviy Turkon Xotunning Ilol qal‘asida asir tushgandan keyingi taqdiri bilan bog‘liq voqelarni nimagadir o‘z asarida yozib qoldirmagan. U Turkon Xotunning Chingizxon davlatining poytaxti Qoraqurumdagi hayotining so‘nggi kunlari to‘g‘risidagina ma‘lumot beradi. An-Nasaviy «Sulton bolalari taqdiriga kelsak, ularning hammasi Ilol qal‘asi yog‘i qo‘liga topshirilgan paytda qatl qilingan. Bular orasida yoshi jihatidan eng kichigi Kamoxishoh omon qolgan»,- deb yozadi¹³¹.

¹³⁰ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 87.

¹³¹ O‘sha asar. – B. 90.

Mirzo Ulug‘bek esa: «...Sulton Muhammad Xorazmshohning onasi, unga qarashli odamlar, farzandlari va farmonlarining barchasini birma-bir vazir Nosiriddin bilan Samarqand tomonga Sohibqironi a‘zam (Chingizxon) huzuriga yetkazganlarida, aziz farzandlari qanchalik yosh bo‘lishmasin barchasini qatl etdilar», - deb Xorazmshoh farzandlarini qatl qilingan joyini Samarqand bo‘lgan edi deb yozadi¹³².

Akademik Ziyoyunov An-Nasaviyning «Siyrat us-Sulton Jaloliddin Mankburn» asariga yozgan izohlarida manbalarni o‘rganish asosida boshqacha ma‘lumotlar beradi. «Ibn al-Asirning aytishicha, deb yozadi Ziyoyunov, Turkon Xotun, barcha boyliklari va odamlari bilan birga o‘sha paytda Taloqonda bo‘lgan Chingizxon huzuriga jo‘natilgan... Chingizxon huzurida Xorazmshoh bolalari qatl qilindi. Chingizxon Mo‘g‘ulistonga ketishidan oldin bir necha kun Samarqandda to‘xtaydi. Bu yerdan jo‘nash oldidan Turkon Xotunga va Muhammadning hotunlariga oldinga chiqib Xorazmshohlar davlati uchun baqirib yig‘lashni buyuradi. Bu yig‘i mo‘g‘ul qo‘shinlari o‘tib bo‘lgunga qadar tinmasligi tayinlanadi»¹³³.

Shunday qilib, Turkon Xotun bilan birgalikda Xorazmshohning ko‘pgina farzandlari mo‘g‘ullar qo‘liga asirga tushadi va qatl qilinadi. Xorazmshohning asirga tushgan xotinlari Chingizxonning yaqinlariga xotin qilib beriladi. Sulton Muhammadning mo‘g‘ullarga asir tushmagan xotinlari, ya‘ni, Sulton Jaloliddinning onasi Oychechak va G‘iyosiddin Pirshohning onasi Baklava oyimning taqdirleri fojiali bo‘ldi. Sulton Jaloliddin Sind daryosi bo‘yida Chingizxonga qarshi mashhur dahshatli jangda noiloj qolganda onasi va haramini Sind daryosiga suvga cho‘ktirgan edi. Bu bilan ularni mo‘g‘ullarga asirga tushib nomusi toptalishi va xo‘rlanishidan asrab qoladi.

G‘iyosiddin Pirshoh esa 1227-yil 5-sentyabr kuni mo‘g‘ullar bilan bo‘lgan Isfaxon jangida akasi Sulton Jaloliddinga xiyonat qilib, jang maydonini tashlab qochgan edi. U onasi bilan birgalikda akasiga

¹³² Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 154.

¹³³ Ziyoyunov. Xorazmshohlar Anushtakinlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 190.; Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 90.

dushman bo'lgan Kirmon hokimi Baroqxon huzuriga panoah izlab boradi. Avvaliga G'iyosiddin va uning onasini yaxshi qabul qilgan Baroqxon, keyinchalik ularni xiyonatda, fitnada ayblab qatl qildiradi (Batafsilroq ma'lumot quyidagi kitobda mavjud, Saidov Sh. Jaloliddin Manguberdi).

Sulton Muhammad qizlarining taqdiri ham ayanchli bo'ldi. Uning qizlari Chingizxon o'g'illari o'rtasida taqsimlandi. Xorazmshoh qizlari orasida tarixiy manbalarda katta qizi Xon Sulton to'g'risida birmuncha ma'lumotlar yozib qoldirilgan. U 1201-yil aprel oyida Samarqand hokimi, Qoraxoniylarning so'nggi hukmdori Sulton Usmonga turmushga beriladi (Bu ma'lumot Ziyo Bunyodovning asarida 1210-yil deb berilgan. Shu ma'lumot to'g'ri hisoblanadi Saidov.Sh.). Ammo, «Sulton Usmon nomaqbul harakatlar qildi» va Xorazmshoh tomonidan qatl qilindi ¹³⁴. «Mo'g'ullarga asirga tushgan paytda Xon Sultonni Chingizxonning katta o'g'li Dushixon (Jo'jixon) o'ziga mo'ljalladi»¹³⁵. Demak, Xon Sultonni Jo'jixon o'ziga xotinlikka olgan. Tarixiy asarlarda Xon Sultonning o'z ukasi (ba'zi tarixchilar akasi deb yozadi - muallif) Sulton Jaloliddinga yozgan mashhur maktubi yaxshi ma'lum¹³⁶. Mo'g'ullarning ulug' xoqoni O'qtoy Sulton Jaloliddin bilan sulh tuzishni istagani uchun Xon Sulton orqali unga maktub bilan murojaat qilgan edi. Ammo Jaloliddin bu taklifni javobsiz qoldirganligini yaxshi bilamiz. Juvayniy, Xon Sultonning taqdiri to'g'risida boshqacha ma'lumot beradi. «Juvayniyning aytishicha, deb yozadi Ziyo Bunyodov, Xon Emilda yashovchi bo'yoqchiga erga beriladi. Bo'yoqchi umrining oxiriga qadar u bilan yashagan deyiladi. Ibn Xoldun ham shunga o'xshash ma'lumot beradi»¹³⁷. Bu voqea bizningcha Jo'jixonning vafotidan keyin bo'lishi mumkin.

Xorazmshoh Sulton Muhammadning boshqa qizlari esa, yurtini sotib Chingizxon huzuriga xizmatga borgan vatanpurushlarga

¹³⁴ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent, 1994. – B. 135.

¹³⁵ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 89.

¹³⁶ O'sha asar. – B. 28.

¹³⁷ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 90.

cho‘rilikka beriladi¹³⁸ . Juvayniy ma‘lumotiga ko‘ra Xorazmshoh Muhammadning ikki qizi Chig‘atoyga beriladi. Chig‘atoy qizlardan birini o‘ziga cho‘ri qilib oladi, ikkinchisini vaziri Qutbiddin Habashga beradi. Sultonning O‘qtoy va To‘lixonga nasib qilgan qizlaridan biri Hojib Amidga* beriladi¹³⁹ .

Xorazmshoh Sulton Muhammadning o‘g‘illari to‘g‘risida gapirsak, ularning soni nechta bo‘lganligi bilan bog‘liq aniq ma‘lumotni Mirzo Ulugbek yozib qoldirgan. «Hamdulloh Mustavfiyning «Tarixiy go‘zida» sasrida aytishicha, Sulton Muhammad Xorazmshohdan yetti o‘g‘il qolgan». Tarixiy tadqiqotlar va qo‘limizdagi tarixiy manbalarni o‘rganib chiqish asosida Xorazmshoh o‘g‘illarining to‘liq ro‘yxatini aniqlashga muvofiq bo‘ldik. Bular:

1. Jaloliddin Manguberdi
2. Rukniddin G‘ursanjiy
3. Qutbiddin Uzlakshoh
4. G‘iyosiddin Pirshoh
5. Oqshoh
6. Zayniddin
7. Kamohishoh

Turkiy davlatlardagi udumga ko‘ra Sulton Muhammad balog‘atga yetgan o‘g‘illariga o‘z saltanatini boshqarishga yordam berishlari uchun taqsimlab bergan edi. Jumladan, Sulton Jaloliddin Manguberdiga G‘azna, Bomiyon, al-G‘ur, Bust, Takinobod, Zamin Davor va Hindiston bilan chegaradosh bo‘lgan viloyatlarni boshqarish huquqini beradi;

G‘iyosiddin Pirshohga Kirmon, Kesh, Makron viloyatlarini;
Rukniddin G‘ursanjiyga Iroq hukmdorligini;

¹³⁸ O‘sha asar. – B. 90.

*Hojib Amid -O‘trorda Chingizxon huzuriga kelib xizmatni taklif qilgan sotqin, uning taklifi bilan Xorazmshohga qo‘shinlarni bo‘lib yuborishga majbur qilgan ig‘vorgorona maktub yoziladi - muallif.

¹³⁹ O‘sha asar. – B. 90.

Taxt vorisi Qutbiddin Uzlakshohga Xorazm, Xuroson va Mazondoronni ;¹⁴⁰

Zayniddinga Eron Iroqi hududlarini boshqarish huquqini beradi. Mulk ajratilmagan kenja o'g'li Kamohishohga esa, go'dak yoshida bo'lganligi uchun biror viloyat berilmadi ¹⁴¹.

Saltanat halokatining achchiq fojiasi Xorazmshoh o'g'illarini ham chetlab o'tmadi. Sulton Muhammad o'g'illari ichida eng mashhuri Sulton Jaloliddin Manguberdi edi (Sulton Jaloliddin haqida kitobning so'nggi bobida so'z yuritiladi –muallif). Sulton Muhammadning ikkinchi o'g'li Rukniddin G'ursanjiyning taqdiri ham fojiali bo'ldi. Rukniddin to'g'risida manbalarda ma'lumotlar saqlanib qolgan. U haqda An-Nasaviy: «U o'g'illarining ichida eng kelishgani va chiroylisi, botiniy jihatdan olijanob edi. Uning husnixati nihoyatda chiroyli edi. Yoshlik paytlaridanoq, Qur'oni Karimni ko'chirib chiqqan edi. U adolatli, sahiy qalbli, mehribon va samimiy edi... Rukniddinning farmonlari uchun «Islom amirining eng yaqin do'sti, ulug' Sulton Muhammadning o'g'li, yuksak martabali Sulton Rukn ad-Dunyo va ad-Din Abul-Xoris G'ursanjiy» degan tug'ro tanlandi»¹⁴². Sulton Muhammad Eronga chekinganida Rukniddin uning yonida edi. Xorazmshoh Kaspiy dengizidagi Obeskun oroliga ketganda, Rukniddin Kirmonga qarab yuradi. U yerda to'qqiz oy hukmronlik qiladi¹⁴³. Keyinchalik Isfahonga, undan Rayga keladi. Bu yerda ham qo'nim topmasdan Xurosonning (Eronning shimoliy-sharqiy qismi) Feruzko'h qal'asiga kelib o'rnashadi¹⁴⁴. An-Nasaviy esa Rukniddin joylashgan qal'ani Ustanavand qal'asi deb yozib qoldirgan¹⁴⁵. Juvayniy va Rashiddin «Gursanjiy Ustanavand qal'asi singari mustahkam bo'lgan Feruzko'h qal'asiga yashirindi», - deb yozishadi¹⁴⁶.

¹⁴⁰ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 60-61.

¹⁴¹ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 151.

¹⁴² Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 61.

¹⁴³ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 160.

¹⁴⁴ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 160.

¹⁴⁵ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 134.

¹⁴⁶ O'sha asar. – B. 136.

Demak, shahzoda Rukniddinni mo‘g‘ullarning hujumidan himoya qilgan qal’a Feruzko‘h qal’asi bo‘lgan. Mo‘g‘ullar 1221-yilning yoz oylarida bu yerga yetib kelishadi. Rukniddin Feruzko‘h qal’asini juda qattiq himoya qiladi. Shuning uchun qamal olti oy davom etadi, mo‘g‘ullarning Xurosondagi hujum harakatlariga Chingizxonning kenja o‘g‘li To‘lixon boshchilik qilmoqda edi. Feruzko‘h qal’asini uning o‘g‘li Xulaguxon (keyinchalik Eron va Iroqni bo‘ysundirgan, u yerda Xulaguxonlar mo‘g‘ul davlatiga asos solgan) egallaydi va Rukniddinni asirga olib otasi Tulixon huzuriga olib kelganlaridan keyin lashkar sardori To‘lixon huzuriga olib kelganlaridan keyin lashkar sardori To‘lixon oldida tiz cho‘ktirishga, unga ta’zim bajo keltirmoqlikka qanchalik urinmasinlar, u bundan bosh tortdi. Shu ishni taklif qilgan odamlarning barcha urinishlari bekor ketdi. Sulton Rukniddin har qanday taqdirda ham uni o‘lim kutayotganligiga tushinib yetdi, shu sababli ham o‘z dushmani oldida bosh eggisi kelmadi. 619 hijriy turkiy yiliga muvofiq yil kelgunga qadar bandilikda bo‘ldi. Mazkur yilda o‘ziga taalluqli barcha odamlari bilan birga shahodat darajasiga yetkazildi, deb yozadi Mirzo Ulug‘bek¹⁴⁷. Shahzoda Rukniddin va uning hamrohlarining jasorati asrlar osha va ayniqsa hozirgi kunda dushmanga bo‘yin egmaslik, or-nomus va o‘zlikni saqlashning buyuk namunasi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi. Avlodlar Sulton Rukniddinning jasoratini unutmasligiga qattiq ishonamiz. Turkon Xotunning qistovi bilan valiahd deb e‘lon qilingan Qutbiddin Uzlakshoh va uning ukasi Oqshohlarning taqdiri ham fojiali bo‘ldi. Sulton Muhammad Kaspiy dengizidagi orollardan birida panohtopganida Sulton Jaloliddin, Qutbiddin Uzlakshoh va Oqshohlar uning huzurida edilar. Xorazmshoh vafotidan keyin ular saltanat poytaxti Gurganjga yetib kelishadi. Ammo bu yerda Turkon Xotunning urug‘laridan bo‘lgan amirlar Sulton Jaloliddinga nisbatan suiqasd tayyorlayotganliklari sababli, u mo‘g‘ullarga qarshi kurashni o‘z mulklarida, ya’ni G‘azna va Hirot yerlarida davom ettirish uchun 1221-

¹⁴⁷ Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. –Toshkent, 1994. – B. 161.

yilning yanvar oyida Gurganjni tark etadi. Qutbiddin Uzlakshoh va Oqshohlar akasi Jaloliddinga qo‘shilish uchun, uning izidan yo‘lga tushishadi. Chingizxon bundan xabar topib, butun Qoraqum cho‘llari bo‘ylab, Marv shahridan to Shahrisoningacha bo‘lgan hududlarda shahzodalarni qo‘lga tushirish maqsadida ilg‘or qo‘shinlardan pistirmalar qo‘ygan edi. Sulton Jaloliddin mo‘g‘ullar ustidan porloq g‘alabalar qozonib, G‘azna shahriga sog‘- omon yetib boradi. Uzlakshoh va Oqshohlar Xurosonning Habushon shahri atroflaridagi Vashta qishlog‘ida mo‘g‘ullar qo‘shiniga duch keladilar. Ayovsiz jangda shahzodalar g‘alaba qozonadilar¹⁴⁸ . Bundan ruhlangan Uzlakshoh va Oqshohlar hushyorlikni unutib qo‘ydilar. Ammo, ular yo‘lda mo‘g‘ullarning boshqa qo‘shiniga duch keladi tez va shiddatli bo‘lgan jangda shahzodalar va butun qo‘shin halok bo‘ladi¹⁴⁹. Juvayniy shahzodalar mo‘g‘ullar tomonidan asir olingan va ikki kundan keyin o‘ldirilgan deb yozsa, An-Nasaviy «Mo‘g‘ullar ularni shahzodalar ekanligini bilmay hamma qatori, qilichdan o‘tkazganlar», deb yozadi¹⁵⁰.

Sulton Muhammadning oltinchi o‘g‘li, ya’ni uni Iroqda kutib olgan o‘tli Zayniddin to‘g‘risida faqat Mirzo Ulug‘bek asarida ma’lumot keltiriladi. Uning taqdiri to‘g‘risida hech narsa deyilmagan. An Nasaviy Sultonning bu o‘g‘li to‘g‘risida umuman ma’lumotlar keltirmaydi. Sulton Muhammadning eng kenja o‘g‘li Kamoxishox, Turkon Xotun bilan birgalikda mug‘ullar davlatining poytaxti Qoraquqrum olib ketiladi va Chingizxonning buyrug‘i bilan kenja shahzoda u yerda bo‘g‘ib o‘ldiriladi¹⁵¹. Bu vaqtlarda shahzoda to‘rt-besh yoshlarda bo‘lgan bo‘lishi mumkin deb tahmin qilish mumkin. Bu bilan Chingizxon o‘zini haqiqiy jallod va vahshiy ekanligini yana bir bor isbot qildi.

¹⁴⁸ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 120-121.

¹⁴⁹ O‘sha asar. – B. 120-121.

¹⁵⁰ O‘sha asar. – B. 122.

¹⁵¹ O‘sha asar. – B. 122.

Shunday qilib, Xorazmshohlar saltanatining quyoshi halokat ufqiga botgani barobarinda Sharq xalqlari tarixida eng porloq sulolalardan biri hisoblanagan –Anushteginlar - Xorazmshohlar xonadoni butunlay yo‘q qilindi. Deyarli, butun sulola qirilib ketdi. Bu bilan ularning achchiq qismati o‘z xalqining huddi shunday qismati bilan uyg‘unlashib ketdi.

III.BOB. JALOLIDDIN MANGUDERDI – MILLAT QAHRAMONI

III.1.Sulton Jaloliddin ozodlik kurashchisii

Sulton Jaloliddinning yoshligi, bolaligi to‘g‘risida ma‘lumotlar kam yozib qoldirilgan. Hatto, Sulton tarixini eng mukammal yozib qoldirgan An-Nasaviy ham bu to‘g‘rida deyarli ma‘lumotlar bermaydi. Nima bo‘lganda ham Jaloliddin o‘z ota-bobolari kabi yoshligidanoq yuksak ta‘lim va tarbiya olganligi, Quroni Karim va hadisi shariflarni yoddan bilganligi, tushunganligi shubhasizdir. «Turkiy davlat an‘anasiga muvofiq hukmdorlarning barcha farzandlari yuksak saviyada ta‘lim olganlar va o‘n besh yoshga to‘lganlaridan so‘ng boshqaruv tajribasini egallashlari uchun viloyatlardan biriga hokim qilib yuborilgan. Jaloliddin o‘z davrining eng ulug‘ ustozlaridan saboq olgani muqarrardir» -, deb yozadi Oydin Tonariy ¹⁵².

Jaloliddin Sulton Alovuddin Muhammadning katta o‘g‘li bo‘lganligi to‘g‘risida biz oldingi boblarda aytib o‘tgan edik. Oydin Tonariy Jaloliddinning onasi to‘g‘risida yozib: «Oychechak xotun Hindistonlik bir joriya bo‘lgan», deb ma‘lumot beradi¹⁵³. Ammo, manbalarda Jaloliddinning onasi kelib chiqishi Xorazm xududlarida yashashga turkman urug‘laridan bo‘lganligini ko‘ramiz. Bu haqiqatga yaqinroqdir, chunki, Oychechak ismining filologik talqini uning turkiy qavmlardan bo‘lganligi shubhasizdir. Manbalarda yozilishicha Sulton Alovuddin Muhammad o‘zining katta o‘g‘li Jaloliddinni juda yaxshi ko‘rgan. Shuning uchun doimo yonida olib yurgan. Yoshligidan otasi yonida bo‘lib janglarda qatnashgan. Sulton Jaloliddin yetuk harbiy sarkarda bo‘lib shakllanishida shu holat ham muhim rol o‘ynagan deyishga to‘la asos bor. Bundan tashqari ayrim tarixiy adabiyotlarda harbiy ilm sohasida Sulton Jaloliddinga, unga otasi tomonidan qarindosh bo‘lgan, ya‘ni amakivachchalaridan bo‘lgan buyuk sarkarda Temur Malik ustozlik qilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar uchraydi.

¹⁵² Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999. –B. 12.

¹⁵³ O‘sha asar. – B. 12.

Sulton Jaloliddin Xorazmshohning hayoti va faoliyatini chuqur tahlil kilib asosan besh davrga bo'lish mumkin deb o'ylaymiz. Bular:

1.1215-1220-yillar maliklik davri. Markazi G'azna bo'lgan sobiq G'uriylar davlati yerlari.

2.1221-yil yanvar 1221-yil noyabr Xorazmshohlar davlatining janubiy-sharqiy hududlarida mo'g'ullarga qarshi kurash matonat tashkil qilish bilan bog'liq qahramonona harakatlari davri.

3.1221-yil dekabr 1224-yil yanvar shimoliy Hindistonda katta siyosiy maydonga chiqishdan oldin olib borgan jiddiy harakatlar davri. Kuch yig'ish davri deb atash mumkin.

4.1224-1230-yillar. Jaloliddinning rasmiy Sulton deb e'lon qilinishi va Osiyoning juda katta hududida Xorazmshohlar davlatining qaytadan tiklashga erishish, shon-shuhrat va qudratining eng kuchaygan davri.

5.1230-1231-yillar. Sulton Jaloliddin Xorazmshoh davlatining tushkunlikka uchrashi, yemirilishi va halokati davri.

Sulton Jaloliddinning siyosiy maydonga kirib kelishini rasmiy ravishda Xorazmshoh Sulton Muhammad tomonidan 1215-yilda G'o'riylar davlatini tugatib o'z davlati hududiga qo'shib olgandan keyin u yerlarga malik, ya'ni vassal hokim qilib tayinlanganidan hisoblash mumkin. Sulton Jaloliddin to 1220-yil dekabr oyigacha rasmiy malik (hokim) lavozimida qoldi. Sulton Alovuddin Muhammad onasi Turkon Xotunning hohishi istagi asosida, o'g'li valiahdlik, ya'ni taxt vorisligidan marhum qilib, uchunchi o'g'li Qutbiddin Uzlakshohni bu lavozimga tayinlangan edi. Bu qanchalik adolatsizlik bo'lmasin, Jaloliddin tomonidan otasining bu qaroriga qarshi norozilik bildirganligini yoki nojoiz harakatlar qilganligini ko'rmaymiz.

Aksincha, og'ir damlarda ham otasi yonida g'olib eng so'nggi daqiqalargacha farzandlik burchini to'la ado etgan, Jaloliddin butun hayoti faoliyatini hozirgi avlodlar uchun namuna qilib ko'rsatish mumkin. Jaloliddinning qisqa umri shu darajada shiddatli o'tadiki, uning hayoti to'g'risidagi tarixiy manba va tadqiqotlarda juda ko'p chalkash, noxolis fikrlar uchraydi. Rus sharqshunos olimi V.V. Bartold Sulton Muhammadning Chingizxon hujumidan vahimaga tushib

qochganligini izohlarkan, uning o'g'illari, hatto Jaloliddinning ham huddi shunday vahimaga tushib qolgan edi, deb yozadi¹⁵⁴ Shuningdek, u Juvayniynining Sulton Jaloliddin otasi Muhammad Xorazmshohning Xurosonga ketish to'g'risidagi taklifiga qarshi chiqib, qo'shinni bir joyga to'plash, xalqning bosqinchilardan himoya qilish to'g'risidagi ma'lumotlarga ham shubha bilan qaraydi. «Agar, Jaloliddin, - deb yozadi V.V. Bartold, haqiqatdan ham mo'g'ullarga qarshi faol kurash olib bormoqchi bo'lsa, u o'zining mulki G'aznaga borib, qo'shin to'plab, shunday kurashni tashkil etishi mumkin edi. Bunday qilishga unga hech kim xalaqit bermas edi»¹⁵⁵. Nimagadir Sulton Jaloliddin bilan bog'liq har qanday ijobiy tarixiy ma'lumotlarni ulkan sharqshunos olim doimo shubha ostiga qo'yadi. Bu masalaga professor Ozod Masharipov e'tiborni qaratganda haq edi¹⁵⁶.

Sulton Alovuddin Xorazmshoh o'g'li Jaloliddin qanday e'zozlab otalik mehri bilan yaxshi ko'rganini yozgan edik. Ozod Masharipov V.V. Bartoldning Jaloliddinning otasi kabi vahimaga tushgan degan fikriga e'tiroz bildirib shunday deb yozadi: «Mamlakat uchun, saltanat uchun otasi Xorazmshoh hayoti nihoyatda mas'uliyatli, hatarli bo'lgan o'sha kunlarda o'z otasini taqdir taqazosiga tashlab, o'z mulki G'aznada qarshilik harakatini tashkil etishga ketmasligini, o'z otasi kabi mo'g'ullardan vahimaga tushganidan emas, balki umrining oxirigacha o'z farazandlik burchiga sodiq qoladigan haqqoniy musulmon farzandi bo'lganligida deb tushunish lozim»¹⁵⁷.

Ozod Masharipov, o'z fikrini yanada rivojlantirib Sulton Jaloliddinni mo'g'ullardan hech qachon qo'rqmagan, vahimaga tushmagan deb, misol tariqasida uning mo'g'ullarga qarshi olib borgan qahramonona kurashlarini keltirib o'tadi. Hurmatli tarixchimizning e'tiroz va fikrlariga qo'shilgan holda shuni aytib o'tmoqchimizki, Jaloliddin otasi Sulton Alovuddin Muhammadning oldida eng oxirgi

¹⁵⁴ Bartold V.V. Sochineniya. T. I. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. – Moskva, 1963. –S. 467-468.

¹⁵⁵ Bartold V.V. – S. 487- 488.

¹⁵⁶ Masharipov Ozod. Xorazm tarixidan sahifalar. –Toshkent, 1994. –B. 154.

¹⁵⁷ Masharipov Ozod. – B. 152-154

daqiqagacha bo‘lganligini va o‘zi mustaqil harakat qilmasligini, boshqa sabablar ham bo‘lgan deb hisoblashga yetarli asoslar bor. Bu, avvalo, Sulton Muhammadning xohish-irodasi edi. Chunki O‘tror, Buxoro va Samarqand qo‘ldan ketganidan keyin Muhammad Xorazmshohning irodasi uzil-kesil bukildi. Og‘ir vaziyatda uni barcha tark eta boshladi. Ishongan amirlari unga qarshi suiqasd tayyorladilar, joniga qasd qildilar. Shunday tahlikali holatda Sulton Muhammad uchun Jaloliddin Manguberdidek, botir, qo‘rqmas sarkardaning, ayniqsa o‘z pushtikamaridan bo‘lgan o‘g‘lining o‘z yonida mahkam ushlab turishi, vahimaga tushgan, hamma yoqdan faqat dushmanlar ko‘zga ko‘rinayotgan bir paytda Sulton Alovuddin uchun bezovta ko‘ngilni tinchlantirishning birdan bir imkoniyati edi. Bunday paytda Jaloliddin otasining irodasiga qarshi chiqib, Biron-bir mustaqil harakat qilishi bizningcha nomaqbul harakat bo‘lib, bu sodiq o‘g‘il harakatlari, tarbiyasiga umuman mos kelmas edi. Jaloliddin otasining oldida eng so‘nggi daqiqagacha, ya’ni vafot etgunga qadar bo‘lib, farzandlik burchini to‘la ado etib, o‘z qo‘li bilan dafn etdi. Shundan keyingina 1220-yil dekabr oyida Gurganjga qaytib keldi. Shunisi e’tiborliki, V.V. Bartold Jaloliddin imkoniyati bo‘lsada vahimaga tushib otasi yonida qochdi degan fikrlarni naqadar asossiz ekanligini Jaloliddin o‘zining keyingi hatti-harakatlari bilan yetarli darajada isbot qilib berdi. Sulton Jaloliddinning faoliyatiga noxolis baho berishga o‘zbek tarixchilari ham ma’lum hissa qo‘shdilar. Masalan atoqli o‘zbek tarixchii Gogo Hidoyatov ham Sulton Jaloliddin to‘g‘risida asossiz fikrlarni keltirib o‘tgan. Gogo Hidoyatov: «Jaloliddin qa’tiyatli jangchi, iste’dodli sarkarda, qobiliyatli davlat arbobi. Shaxsiy mardligi va shuhrati bilan ajralib turgan diplomat bo‘lganligi shubhasizdir», - deb ma’lum ma’noda haqiqatni tan olgandek ko‘rinadi¹⁵⁸. Ammo, keyingi mulohazalarni o‘qir ekansiz, bu fikrlarga umuman teskari bo‘lgan xulosalarga duch kelasiz. «Jaloliddin chindan ham mo‘g‘ullarga qarshi harakat boshida tura olganida edi, - deb yozadi, Hidoyatov, bundan

¹⁵⁸ Xidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. –Toshkent, 1990. – B. 144.

buyongi tarix qanday o'zgarib ketgan bo'lishini tasavvur qilish qiyin edi. Lekin u o'rta asr feodali edi, unda o'sha sinfnining barcha belgilari, hamma nuqsonlari to'la ravishda namoyon bo'ladi. Hamda uning qo'shini ham o'sha davr barcha ziddiyatlariga muhtalo edi... Bunday qo'shin ozodlik kurashi olib borish emas, balki istilochilik, bosqinchilik yurishlarigina qilishi mumkin edi va Jaloliddin o'zining bironta ham harbiy sarkardasini, o'z jangchilarining Mavoraunnahr ozodligi yo'lidagi kurashini qo'zg'atishga majbur etolmasligini tushunar edi. Bu qo'shin faqat kuchsiz beklilar, tinch shaharlarga qarshi urushlar olib borar va xalqlarni talar edi, oson har qaysi shunday g'alaba uni buzar va jangovarlik salohiyatini kamaytirardi. Jaloliddin Hindistonda bir qancha knyazliklarni taladi, bir qancha shaharlarga boj soldi, ayrimlarini ulpon to'lashdan bosh tortgani uchun yondirdi. Lekin bularning hammasi uning amirlarini qoniqtirmas, ular yanada qattiqroq ko'lamda «g'alabaar» ishtiyoqida edilar. Ular Iroqqa yurish qilishni talab qildilar, u yerda boy shaharlar bo'lib, ularning hukmdorlari dushman qo'shinlarini ko'rishi bilanoq taslim bo'lar edi. Jaloliddin Iroq, Kirmon, Sheroz, Isfahonni egalladi. Daqiqa shahrini qamal qildi, uni qo'lga kiritib, aholisini qirib tashladi, shaharni tor-mor qildi, devorlarni buzib tashladi. Butun Sharqda talonchi va bosqinchi bo'lgan Xorazmshohlar to'g'risida dahshatli ovozarlar tarqaldi, ularni mo'g'ullarga o'xshatdilar, xorazmlilar ularga o'xshab, shaharlarni vayron qilmoqdalar va yondirmoqdalar, aholini qirmoqdalar, ularning qo'shinlari talonchilik hamda kafando'zlik qilmoqdalar»¹⁵⁹. Gogo Hidoyatov Sulton Jaloliddinning Gruziya ustiga musulmonlarning mamlakatlarini himoya qilib kelganligini qoralab bir tomonlama mulohaza yuritadi. Olim: «Jaloliddin 1226-yil martida Gruziyaga bostirib kiradi va Tiflisni egallaydi shaharda shunday bir ashaddiy qirg'in o'tkazadiki, uni mo'g'ullarning O'rta Osiyodagi bosqini bilangina qiyoslash mumkin edi», deb Jaloliddinni Chingizxon bilan tenglashtiradi¹⁶⁰. Sulton Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi kurash

¹⁵⁹ Xidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. –Toshkent, 1990. – B. 145.

¹⁶⁰ Xidoyatov G.A.– B. 145.

jarayonida Kavkaz va Eronda, Rum va Iroqda parokandalikni tugatish uchun olib borgan shiddatli kurashni ham Gogo Hidoyatov shunday izohlaydi: «Jaloliddin ko‘tarilib turgan isyonlarni bostirgan holda butun o‘rta Sharqda shamoldek kezdi... 1227-yil 5-sentyabrda Isfahon yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda mo‘g‘ullar tor-mor keltirildi. Bu katta g‘alaba edi, lekin Jaloliddin uni rivojlantirish va oxiriga yetkazish o‘rniga yana Kavkazni talashga kirishib ketdi»¹⁶¹.

Agar biz hurmatli olimimizning xulosalariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, Sulton Jaloliddin va uning qo‘shini «talonchilar va bosqinchilar» to‘dasi bo‘lib, ularning maqsadi faqat qaroqchilik yo‘li bilan boylik orttirish edi deb o‘ylash mumkin. Sulton Jaloliddinning butun faoliyatiga bunday baho berish sovet tarixchilarining ko‘pchiligi uchun ilmiy va mafkuraviy mezon bo‘lib qolgan edi. Eng dahshatlisi o‘n yillar davomida bu yolg‘on butun bir avlodning ongiga singdirib kelindi.

Jaloliddin Manguberdi shaxsi to‘g‘risida o‘z davrining tarixchilari ham, hozirgi davrdagi tarixchilar ham bir hil fikr bildirgan emas. Umuman, sovetlar davrida Jaloliddin to‘g‘risida o‘zbek tarixchilaridan ko‘ra g‘arb, rus va ozarbayjon tarixchilari birmuncha batafsilroq, xolisroq ma‘lumot yozib qoldirganlar. Masalan Sergey Tolstov «Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab» nomli mashhur asarida Jaloliddinning umuman Xorazmshohlar davlatini to‘g‘risida sovet tarixchilari orasida nisbatan xolisroq bahs berishga harakat qiladi¹⁶². Sulton Jaloliddinning buyuk jasorati va xizmatini sanab o‘tarkan, uni: “Sharqning eng buyuk o‘ta qobiliyatli lashkarboshisi bo‘lgan, deb harbiy talantini yuqori baholash bilan birgalikda, “... ammo, noshud diplomat bo‘lgandi”,- deb uning tashqi siyosiy sohasidagi faoliyatiga keskin tanqid qiladi va o‘sha davrdagi tarixiy shart-sharoit, voqealarni hisobga olmasdan diplomatik faoliyatiga bir tomonlama baho beradi¹⁶³.

¹⁶¹ Xidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. – Toshkent, 1990. – B. 146.

¹⁶² Tolstov S.P. Po sledam drevney Xorezmskoy sivilizatsii. – Moskva, 1948. – S. 270-279.

¹⁶³ O‘sha asar.– S. 270-279.

Tarixiy manbalar mualliflari ham bu buyuk bobokalonimiz to'g'risida turli ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Masalan: XIII asr boshida Misrda yashagan mashhur tarixchi ibn-Al-Asir o'zining juda qimmatli manba hisoblangan «Tarix-al-kamil» («Mukammal tarix») nomli asarida Jaloliddinning Eron, Kavkaz, Turkiya va Iroqdagi faoliyati haqida bir muncha kengroq ma'lumotlar beradi. Ammo, Jaloliddin Xorazmshohning bu davrdagi harakatlarini izohlab shunday deb yozadi: «Jaloliddin yomon xulqli shaxs bo'lib, davlatini yomon boshqardi. U mulklariga ko'z olaytirmagan, dushmanlik qilmagan, yoqimsiz bo'lmagan qo'shni hukmdorlardan birortasi qolmadi. Shuning uchun ularning hammasi uni tark etdilar va yordam qo'lini cho'zmadilar»¹⁶⁴. Ibn al-Asirning Sulton Jaloliddin tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishar ekanmiz ko'pgina ijobiy fikrlar bilan birgalikda xolislikdan yiroq asosga qurilgan fikrlarni ham ko'rishimiz mumkin. Jaloliddin Xorazmshohning hayoti va faoliyati tarixini o'rganar ekanmiz o'zimizning tarixchilardan ko'ra o'zga yurt tarixchilari bu boada jiddiy tadqiqotlar olib borganliklarini, voqealarni yoritishda ancha xolislik bilan yondoshganlarini ko'ramiz. Masalan: ozarbayjon tarixchisi Ziyo Bunyodov yoki turk tarixchisi Oydin Tonariy, rus tarixchi-arxeologi Sergey Tolstov asarlarini o'qishning o'ziyoq fikrlarimizga asosli dalil bo'ladi. Adabiyot sohasida ham Jaloliddin to'g'risida totalitar sovet tuzumi davrida dastlabki badiiy asarlarni o'zbek adabiyotchilari emas, balki boshqa millat vakillari yaratganlar. Masalan: Mashhur ozarbayjon shoiri va yozuvchisi Maqsud Shayxzoda 1943-yilda «Jaloliddin Manguberdi» dramasini yozgan edi. Bu jasorati uchun adib ancha qiyinchiliklarni boshidan kechirgan.

Bizda esa bu masala nafaqat tarixchilarimizning, balki adabiyotchilarimizning ham nazaridan chetda qoldi. Faqat Abdullo Oripov o'zining mashhur «O'zbekiston Vatanim manim» nomli she'rida: «Jaloliddin samani bo'lib, sakrab o'tding Amudaryodan» deb

¹⁶⁴ Ibn Al-Asir. Al-komil fit-tarix. – Boku, 1940. – B. 171.

fahrlangan bo'lsa, shoir Erkin Samandar «Xorazm farzandiman» she'rida «Mard Jaloliddin yiqildi jangda shu tuproq uchun» degan misralarinigina uchratish mumkin. Mustaqillik yillaridagina Sulton Jaloliddin hayotini o'rganish ahvoli tubdan o'zgardi. Ayniqsa, 1999-yilda buyuk sarkardaning 800-yillik yubileyining dunyo miqyosida nishonlanishi, unda Prezidentimiz I.A. Karimovning so'zlagan nutqi Sulton Jaloliddin tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ammo shuni qayd qilish kerakki, Sulton Jaloliddinning qisqa, ammo umrboqiy hayoti va kurash faoliyatining ochilmagan qirralari, o'qilmagan yuzlab sahifalari o'zining tadqiqotchilarini kutmoqda. Biz Sulton faoliyati bilan bog'lik juda katta muammoni faqat bir tomonini, ya'ni Sulton Jaloliddin halokatiga sabab bo'lgan voqealar sabablarini iloji boricha atroflicha tahlil qilishga harakat qilmaymiz. Bunday ijobiy urinish, ya'ni Jaloliddinning halokati bilan bog'liq voqealarni xolis izohlashni eng avvalo Ozod Masharipovning «Xorazm tarixidan sahifalar» (1994-yil) va Jaloliddinning sakkiz yuz yillik yubileyi munosabati bilan nashrdan chiqqan Omonullo Bo'riyev va Nuryog'di Toshevlarning «Jaloliddin Manguberdi» nomli asarlarida ko'rish mumkin.

“Manguberdi hayoti va faoliyatining bu murakkab ziddiyatli davri haqida so'z borar ekan”, - deb yozadi O.Bo'riyev, “.... bunga bir oz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Zero, ayrim tadqiqotchilar Jaloliddinni buyuk sarkarda va benazar davlat arbob bo'lganligini e'tirof etgan holda uning qo'shni mamlakatlarga nisbatan tutgan siyosatini tanqidiy qaraydilar. Ularning fikriga ko'ra, Jaloliddin diplomatiyani ishga solib, qo'shni hukmdorlar bilan ittifoq tuzish o'rniga, ularga qarshi urishib, o'z halokatini tezlashtirgan. Ammo, manbalar bilan tanishar ekansiz, bu ishning nechog'li mushkul bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz. Jaloliddinning Misr hokimlari, Bog'dod xalifasi, Ko'niya Sultoni Alovuddin Kaykubod, aka-ukalar Ayyubiylar, Gurjiston podshosi Rusidana va boshqa hukmdorlar bilan ittifoq tuzish yo'ldagi sa'yi harakatlarining natijasiz tugashi qator sabab va omillar bilan bog'liq.

Bu muammo ilmda hali yaxshi o'rganilmagan»¹⁶⁵. Bu katta tarixiy muammoga yangi nazar bilan yondashishning boshlanishidir, xolos. Umuman, Sulton Jaloliddinning hayotini, tahlil qilar ekansiz taxtga valiahdlik masalasi muammosi paydo bo'lganidan go'yo unda omad yuz o'girganday edi. Sulton Jaloliddin otasi vafot etgach, valiahd etib tayinlanganligi to'g'risidagi farmoni oliy bilan mo'g'ullarga qarshi kurashish uchun Gurganj shahriga kelganida uni qipchoq amirlari dushmanlik bilan kutib oladilar, hayotiga suiqasd qiladilar. Vaholanki, hamma amirlar, urug' qabilasidan qat'iy nazar barcha ko'chlarini dushmanga qarshi birlashtirganlarida, butun qo'shinni Jaloliddin qo'mondonligida mo'g'ullarga qarshi otlanganlarida dushman nafaqat Xorazm, balki butun Movarounnahrda ham haydab chiqarilishi mumkin bo'lardi.

Jaloliddin alam bilan ammo yuragida, qalbida olov bilan dushmanga qarshi kurashish uchun otasi tomonidan mulk qilib ajratilgan G'azna tomonga shiddat bilan boradi. Yo'l - yo'lakay mo'g'ullarning qo'shinlarini Niso, Nishopur, Kaykubod Valiyon shahar qal'alari yonidagi janglarda mag'lubiyatga uchratadi. G'aznaga borib 1221-yili fevral oyida g'olib va qahramon sifatida tantanailan kirib keladi. Xalq uni shodu-hurramlik bilan kutib oladi. G'azna yaqinidagi Chingizxonning eng sinalgan sarkardasi Shikihutug'u boshchilik qilgan mo'g'ullarning 45 ming kishilik qo'shinini yakson qiladi. Vaholanki, Vladimir Bartold uni qo'rqqoqlikda ochiqdan - ochiq ayblagan edi. O'sha vaqtda Jaloliddin qo'shnida 100 mingdan 130 mingacha navkar bo'lgan. Ammo taqdir Jaloliddinga yana pand berdi. Boylik, mol, mansab topish, urug'-qabilaviy nizo, xudbinlik, umumiy manfaat yo'lida birlasha olmaslik natijasida juda katta qo'shin yana bo'linib ketadi.

Agar, Parvona jangidan keyin arzimagan mol-mulknini deb, halaj va afg'on amirlari og'ir vaziyatda tashlab ketmaganlarida, Jaloliddinga butun qo'shinni bir joyga to'plash imkoniyati berilgani edi, Chingizxon

¹⁶⁵ Bo'riyev O.B., Toshev N.T. Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 27-28.

bilan bo‘ladigan katta jangning oqibati qanday bo‘lishini oldindan aytish qiyin bo‘lardi. 1221-yil 24-25 noyabr kunlari Sind daryosi bo‘yidagi fojiviy jangni tahlil qilar ekansiz bunday imkoniyat bo‘lganida Jaloliddin Chingizxon ustida g‘alaba qozonib, tarix g‘ildiragini umuman boshqa tomonga burib yuborish mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Manbalarning yozishicha, Sind daryosi bo‘yidagi jangda Xorazm qo‘shinlari Jaloliddin boshchiligida shunday shiddat bilan jang qiladilarki, hatto Chingizxon jang maydonini tashlab qochishga majbur bo‘lgan.

Faqat Chingizxon tomonidan pistirmaga qo‘yilgan 10 ming kishilik qo‘shinning muhorabaga kirishi jang taqdirini hal qiladi. Jahonni titratgan sarkarda bilan hali hech kim bunchalik shiddat va jasorat bilan urushmagan edi. Agar bo‘linib ketgan qo‘shin bu yerda Jaloliddin bilan birga bo‘lganda (bu ajralib ketgan qo‘shinning soni 60 ming edi, vaholanki, pistirmada mo‘g‘ullarning 10 ming kishilik qo‘shini bor edi, xolos. Chingizxon ajralib ketganlarni alohida qirib tashladi-muallif) jang natijasi Jaloliddin foydasiga hal bo‘lishi shubhasiz edi.

Jaloliddin kam sonli qo‘shin bilan oilasi va onasidan ajralib Hindistonga o‘tib ketishga majbur bo‘ladi. Mo‘g‘ullar qo‘liga Jaloliddinning 6-7 yoshli o‘g‘li asirga tushadi va Chingizxonning buyrug‘i bilan tiriklayin yuragi sug‘urib olinadi. Shimoliy Hindistonda Jaloliddin bir muncha mustahkamroq davlat tuzish mo‘g‘ullarga qarshi qo‘shin to‘plash uchun qilgan sa‘yi harakatlari feodal bosh-bodoqlik, tarqoqlik, hiyonat kabi illatlar buyuk maqsadlarni amalga oshirishga halaqit berdi. Jaloliddin, Hind daryosidan kechib o‘tganidan keyin qolgan-qutgan jangchilarning to‘plab, Shimoliy Hindistonda bir qancha davlatlar hukmdorlari bilan munosabat o‘rnatishga harakat qiladi. U bir qancha janglarda qo‘li baland kelgan bo‘lishiga qaramy, bu yerda muhim o‘rnashish, ittifoqchilar topish mumkin emasligini anglab, u yerdan 1224-yili Eronga, Ozarbayjonga kelib, bu yerlarni zabt etadi.

Shu vaqtdan e'tiboran Jaloliddinning Ozarbayjon, Eron, Iroq, Gurjiston va Rum hududlaridagi faoliyati boshlanadi¹⁶⁶.

III.2.Sulton Jaloliddinning yuksalisi va halokati

Xo'sh, Jaloliddinning Hindistondan ketishiga nima majbur qildi? Birinchidan, Jaloliddinning ikkita yirik lashkarboshlari Yazidan Pahlavon va Sunkurjich Hindiston hukmdori Shamsiddin Eltutmish tarafiga o'tdilar. Ikkinchidan, butun shimoliy Hindistonning barcha hukmdorlari kelgindi Sultonga qaramlikni tan olishni istamas edilar. Ular Jaloliddinga qarshi ittifoq tuzishga Sultonni Panjishir daryosi bo'yida siqib va ezib tashlashni rejalashtiradilar.

Uchinchidan, Sultonning ukasi Eron hokimi Pirshohni tashlab ketgan ko'pgina amirlar kelib Jaloliddinga qo'shiladilar. Yuqoridagi ikkita sababga ko'ra bundan keyin qanday harakatlar qilishga kelishib olish maqsadida harbiy mashvarat chaqiriladi. Mashvaratda Erondan G'iyosiddin Pirshoh tomonidan Jaloliddinga kelib qo'shilgan amirlarning taklifiga binoan Sulton Eron, Iroqqa yurishiga o'sha yerda mo'g'ullarga qarshi kursha markazi tashkil qilishga qaror qiladi.

«Jaloliddin Xorazmshohlar saltanatini qayta tiklash uchun amaliy tashabbuslar ko'rsatish niyatida Eronga keladi. Ozarbayjonni qo'shib olishni rejalashtirgandi. U oxir oqibat mo'g'ullarni Eronning g'arbida qarshi olishni ham o'ylagan edi», - deb yozadi Oydin Tonariy. Sulton Jaloliddin Gogo Hidoyatov yozganidek amirlarning boylik orttirish niyatidagi istaklarini qondirish maqsadida emas balki mo'g'ullarga qarshi kurashish, o'z ona vatanini ozod qilish maqsadida tashkil qilish, qo'shin to'plash uchun harakat qilgani uchungina Eronga kelgandi. Bu yerlar hokimi hisoblangan ukasi G'iyosiddin Pirshohni xalq, qo'shin va hokimlar o'rtasida obro'-e'tibori hurmati deyarli yo'q bo'lib, unga ishonchsiz, yumshoq, zaif hukmdor sifatida munosabatda bo'lardilar. Umuman, Sulton Jaloliddin kelishi arafasida Eron va Kavkazda siyosiy tarqoqlik avjiga chiqqan bo'lib, xalq hokimlar o'rtasidagi o'zaro

¹⁶⁶ Bo'riyev O.B., Toshev N.T. Jaloliddin Manguberdi. –Toshkent, 1999. – B. 27-28.

urushlardan nihoyatda charchagan edi. «Bu vaqtda, - deb yozadi Oydin Tonariy, Eron va uning atrofidagi siyosiy vaziyat quyidagicha edi: ukasi G'iyosiddin Pirshoh, Ozarbayjon, Eron va Iroq Ajamda, Baroq Hojib Kirmonda, Sa'd ibn Zangi Forsda, Alamutda Botiniylar, Nahichivonda Otabek O'zbek, Hamadon shimolida Sulaymonshoh hokim edi»¹⁶⁷.

Bundan tashqari Iroq yerlarida Arab halifasi, hozirgi Turkiyaning poytaxti Anqaraning sharqiy hududlarida joylashgan Kunyo sultonligida Alovuddin Kaykubod - I, Damashqda Al-Malik al-Ashraf, Hilot atroflarida Ibrohim Shirkuh, Xartabortda Altuhhan, Halabda Savob, Mayfiarkanda Shahobiddin G'oziy, Baniyonda al-Aziz Usmonlar hukmronlik qilardilar ¹⁶⁸.

Shunday qilib, Sulton Jaloliddin Eron, Kavkaz hududlariga kelishi arafasida bu yerlarda siyosiy parokandalik avjiga chiqqan, musulmon sharqidagi birlikka jiddiy putur yetgan edi. Bag'dod xalifaligidan tashqari o'n uchta mustaqil Islom davlatlari mavjudligi bu yerlarda siyosiy vaziyat naqadar mushkul bo'lganligini ko'rsatadi. Islom mamlakati hududlariga, ayniqsa Ozarbayjon yerlariga gruzinlarning doimiy ravishda bosqinchilik yurishlari, ko'chmanchi turkman qabilalarining talonchilik harakatlari mavjud ahvolni yanada chigallashtirib yubordi.

Bu tahlikalarga qo'shimcha ravishda Sharqdan mo'g'ullarning tinimsiz tajovuzlari vayrongarchiliklari va aholini ommaviy qirg'in qilish bilan bog'liq vahshiyona harakatlari barcha hukmdorlar, xalqlarning ko'ngliga vahima solardi. Tarqoq hukmdorlarning bir qismi mo'g'ullarga sotilib, Sulton Jaloliddinning orqa tomonidan doimiy ravishda xavf solib turdilar. Masalan, Kirmon hokimi Baroqxon Bog'dod xalifasi an-Nosir va ayniqsa mo'g'ullarga sidqidildan xizmat qilgan Alamutda hukmronlik qilayotgan Ismoililar sulolasi ana shunday xoinona harakatlari bilan musulmonlarning ittifoqiga putur yetkazdilar, mo'g'ullarning bu o'lkalariga hujumini tezlashtirdilar. Bu

¹⁶⁷ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. –Toshkent, 1999. – B. 22.

¹⁶⁸ Ziyoyunov. Xorazmshohlar Anushtakinlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 229.

bilan o‘zlarining ham, butun musulmonlarning ham, hatto mo‘g‘ullarga qarshi kurashiga qadar birdan bir kuch hisoblangan Sulton Jaloliddinning halokatiga ham sababchi bo‘ldilar.

Sulton Jaloliddin Eron, Ozarbayjon, Iroq yerlarida markazlashgan davlat tashkil qilish, mo‘g‘ullarga zarba bera oladigan qudratli qo‘shin tuzish uchun turli vositalarni ishga soldi. O‘rni kelganda harbiy kuch ishlatdi, shuningdek diplomatik usullardan keng foydalandi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, Sulton Jaloliddinning mo‘g‘ullarga qarshi qahramona kurashi va odil, qudratli hukmron ekanligi to‘g‘risidagi ovozarlar bu yerlarga yetib kelgan edi.

Sulton Jaloliddin Hindistondan kelib, Kirmon davlatini bo‘ysundirdi. Uning hokimi Baroqxon Jaloliddinning hukmronligini to‘la tan oldi. Bu yerdan Jaloliddin Forsga, Yazd hududlariga qarab o‘tadi. Fors hukmdori Otabek Sa‘d ibn Zingin, Yazd hokimi Alovuddin o‘z ixtiyori bilan Sultonga tobe ekanliklarini tan oladi. Jaloliddin ham o‘z navbatida ularga ehtirom ko‘rsatib o‘z viloyatlariga hokim qilib tasdiqlovchi yorliqlar beradi ¹⁶⁹. Hatto, Sa‘d Otabek bilan qarindosh tutinib, uning qiziga uylanadi. Bu yerlarni tinchlik bilan bir tomchi qon to‘kmasdan o‘z hokimiyatini o‘rnatgan Sulton Jaloliddin Isfahonga qarab yuradi. Bu yerlar ukasi G‘iyosiddin Pirshohga tegishli edi. Isfaxon ham tinchlik bilan Sultonga bo‘ysundi va uning muvaqqat poytaxtiga aylanadi¹⁷⁰.

Bundan xabar topgan G‘iyosiddin o‘z akasi bilan birlashish, mo‘g‘ullarga qarshi kurashda ittifoqchi, yordamchi bo‘lish o‘rniga buzg‘unchilik harakatlarini boshladi. Umuman, Kirmon hokimi Baroqxon, ukasi G‘iyosiddinlarning xoinona hatti-harakatlari Sulton badaniga sanchilgan igna ediki, uning butun vujudini zir qaqshatar, ya‘ni davlatda doimiy tahlikali ahvolni keltirib chiqara edi. «Kirmon hokimi Otabek Baroq Xojib ham Jaloliddin uchun dard ustiga chipqon bo‘ldi, deb kuyinib yozadi Oydin Tonariy, fitnachi va ihtilofshi bir odam bo‘lgan Baroq amal uchun mo‘g‘ullarni Sultonga gij-gijlashdan

¹⁶⁹ Ziyo Bunyodov. Xorazmshohlar Anushtakinlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 204.

¹⁷⁰ Ziyo Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar . – Toshkent, 1998. – B. 204.

ham qaytmaydi. Jaloliddin Xorazmshoh kuch-qudratli bo'lgan vaqtlari Sultonga yaltoqlanib yoki mustahkam qal'aga bekinib omon qoladi. Sulton zaiflashgan pallada esa jur'atkor bo'lib, qo'pol muomala qilishdan ham qaytmaydi... ukasi G'iyosiddin ham Sulton uchun bir dard bo'ldi. Irodasiz bir inson bo'lgan G'iyosiddin oldin xalifa, so'ng Ismoililar bilan (Jaloliddinning ashaddiy dushmanlari) kelishuv yo'lini tutdi, nihoyat, Baroq Xojib tomonidan o'ldirildi»¹⁷¹ .

G'iyosiddin, Sulton Jaloliddinga ochiq qarshi chiqqan Erondagi birinchi hokim edi. O'z akasini mulkidan haydab chiqarish uchun G'iyosiddin unga qarshi 30 ming askar yubordi. Ammo Sulton Jaloliddin o'z jigari bilan jang qilishni istamadi. Bunga uning g'ururi, otasi xotirasiga o'z ukalariga bo'lgan mehri yo'l qo'ymaydi. G'iyosiddinning hokimlik manfaatini umumiy ishdan yuqori qilayotganligini ko'rgan Jaloliddin mo'g'ullardek xavfli dushman bilan kurashish yo'lida mavjud kuchlarni birlashtirish yo'lida zarur bo'lgan barcha choralarni ko'rdi, deb yozadi akademik Ziyo Bunyodov¹⁷².

Shu maqsadda Sulton Jaloliddin o'z diplomatiyasini ishga soladi. O'zining eng uddaburon «ayyor» saroy amirlaridan amiri oxur O'dakni (o'ta usta diplomat, qobiliyatli saroy hodimi – muallif) G'iyosiddinning amirlari huzuriga jo'natadi. Vaziyatni tushuntirib, ularga ulug' maqsad uchun birlashishni taklif qiladi. Amirlarning ko'pchiligi hatto G'iyosiddinning onasi ham Sulton Jaloliddin tomoniga o'tadi. Qisqa muddat ichida G'iyosiddinning barcha xon va amirlari Sulton Jaloliddin hokimiyatini tan oladilar. G'iyosiddinga tobe yerlarning aholisi ham Sultonning xursandchilik bilan kutib oladilar, chunki, uning kelishi bilan G'iyosiddin Pirshohning nazoratidan chetdan qolgan askar va amaldorlarning xalqni xo'rlashlariga barham beriladi. Ilgari G'iyosiddinga qaram bo'lgan yerlarning Jaloliddin ixtiyoriga o'tishi odatdagi tartibga qaytishga olib keladi. O'zboshimchalik va zo'ravonlikka barham beriladi¹⁷³.

¹⁷¹ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. – Toshkent, 1999. – B. 29.

¹⁷² Ziyo Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 205.

¹⁷³ Ziyo Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar. – Toshkent, 1998. – B. 205.

Jaloliddin G'iyosiddinning onasi Baqlava oyimga katta hurmat va e'tibor bildiradi. G'iyosiddin ham onasining ta'sirida akasi Jaloliddin huzuriga xizmatga keldi. Jaloliddin ukasini nihoyatda yaxshi ko'rgan «Otamning o'g'illari orasida undan boshqa hech kim qolmadi. U bugungi kunda men uchun ko'zimning qorachig'i, hatto undan ham azizroq belimning quvvatidir», - deb ukasi to'g'risida yuksak fikr bildiradi. Ammo bilamizki, G'iyosiddin bu hurmatga loyiq javob qaytarmay, akasiga eng og'ir damlarda hiyonat qildi. 1227-yil 5 - sentyabr kuni Isfaxon yaqinidagi mo'g'ullarga qarshi jangda u jang maydonini tashlab qochdi.

Sulton Jaloliddin shunday qisqa muddatda butun Eronni o'ziga hech qanday urushsiz faqat diplomatik yo'l bilan, ya'ni, elchilik va muzokaralar vositasida bo'ysundirdi. Jaloliddin otasi tomonidan valiahd qilib ta'yinlangach, xorazmshoh vafotidan keyin rasmiy taxtga chiqish marosimini, Sulton deb e'lon qilinish bilan bog'liq marosim o'tkazilmagan edi. Bunga mo'g'ullarning hujumi tufayli imkoniyat bo'lmagandi. Zero, Jaloliddin rasmiy Sulton, oliy hukmdor deb e'tirof etilsa-da, buni mustahkamlash uchun taxtga chiqish marosimi o'tkazish talab qilinardi.

Jaloliddin Hindistondan qaytgach, taxtga chiqdi va bay'at marosimini o'tkazdi. Bu marosim itoat ostiga olingan G'iyosiddin Pirshohning chodirida amalga oshirildi. Mahramlar tomonidan taxtga o'tkazilgan Jaloliddinga xonlar va amirlar peshonalarini yerga tekkizguday egilib, qasamyod qildilar. Bu taxt G'iyosiddin Pirshohga tegishli bo'lib, Jaloliddin kechiktirmaslik uchun shoshilinch shu taxtga o'tirgan edi.

Shularni tan olib aytishimiz kerakki, Sulton Jaloliddin deyarli bir yil davomida hech qanday qarshiliksiz juda katta hududni birlashtira oldi. Viloyatlarga kirishdan oldin elchilar yubordi. Natijada mahalliy hokimlar Sultonga tobeliklarini izhor qildilar. Bu bilan biz yuqorida nomlari zikr kilingan tadqiqotchilarning Jaloliddinga nisbatan qo'llagan aybnomalari, «noshud diplomat», «ashaddiy urushqoq», «qaroqchi» bo'lganligi to'g'risidagi davolari naqadar puch, asossiz

bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Jaloliddin bay‘at va taxtga chiqish marosimini o‘tkazgandan keyin huquqan Sulton sifatiga ega bo‘ldi. «Natijada Eron, Shimoliy Xuroson, Mazondaron, Sulton davlatiga qo‘shiladi. Va buyuk Xorazmshoh unvoniga mos ravishda o‘z lavozimni rasmiy egallaydi. Bu voqeadan keyin, Sulton Jaloliddin Hindiston, Xuroson, G‘azna, Eron, Mazondaron, Fors, Yazd, Isfaxon, Kirmon yerlarida o‘z hukmronligini o‘rnatib, juda katta hududda buyuk Xorazmshohlar davlatini qaytadan tiklashga muvaffaq bo‘ldi»¹⁷⁴.

Sulton Jaloliddin bunda imkoniyatdan mo‘g‘ullarga qarshi kurashish uchun unumli foydalanish maqsadida o‘zining kuchlari yetarli bo‘lmagani uchun xalifa An-Nosirga elchi yubordi. «Jaloliddinning xalifaga maktubini lashkar devonining boshlig‘i Ziyo Al-Mulk Alovuddun Muhammad an-Nasaviy eltadi. Jaloliddin maktubidan Islomning dushmani mo‘g‘ullarga qarshi xalifaning yordamiga ishonch bildiradi. Ammo... An-Nosir maktubni javobsiz qoldiradi va Xorazmshohga qarshi mamluk Ko‘sh Temur boshchiligidagi 20 ming askar yubordi»¹⁷⁵.

Bundan ko‘rinadiki, Jaloliddin xalifa yordamida mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borish maqsadidagina u bilan aloqalar o‘rnatishga harakat qilgan. Xo‘sh, xalifachi? Musulmonlarning diniy yo‘lboshchisi, g‘oyaviy otasi Sulton Jaloliddinni har tamonlama qo‘llab-quvvatlash, uning mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurash olib borishdek, qat‘iy harakatlariga boshqa islom hukmdorlarini jalb qilish o‘rniga, atrofdagi mamlakatlar amirlari, sultonlarni unga qarshi gij-gijlay boshlaydi. Shu maqsadda xalifa G‘iyosiddin Pirshohni, uning tog‘asi Yig‘on Toyisiyni Jaloliddinga qarshi yurish qilishga buyruq beradi¹⁷⁶. Halifa Jaloliddinning Bag‘dodga yurishi mumkinligidan qo‘rqib, atroflardagi kuchli hokim va amirlarni unga qarshi gij-gijlay boshlaydi¹⁷⁷. Oqibati shu bo‘ldiki, xalifa yuborgan Qo‘sh Temur boshlik lashkarni Jaloliddin

¹⁷⁴ Ziyo Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar. –Toshkent, 1998. – B. 216.

¹⁷⁵ O‘sha asar. – B. 216.

¹⁷⁶ Ziyo Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar. –Toshkent, 1998. – B. 207.

¹⁷⁷ O‘sha asar. – B. 206.

tor-mor keltiradi. Sulton Jaloliddin tez harakat qilib Yig'on Toysiyning 50 ming kishilik qo'shinini kechasi o'rab oladi va asirga tushishga majbur qiladi. Ikki holat, ya'ni xalifaning biz oldingi qismlarda aytib o'tgan mo'g'ullar bilan yozishmalar olib borganligi va qo'shin jo'natgani Jaloliddinni sabr kosasini to'ldiradi. Vaholanki, manbalarning guvohlik berishicha u xalifani qattiq hurmat qilgan, xutbada nomi o'qilganda tikka turib eshitgan va xalifaga yozgan maktublarida o'zini hokisor tutib «qulingiz» deb murojaat qiladi. Bevosita halifaning aybi bilan yana musulmonlar uchun og'ir damlarda Jaloliddin o'z kuchini mo'g'ullarga qarshi kurashishga sarf qilish o'rniga Iroqqa, ya'ni Bog'dodga yurishga majbur bo'ladi. Zero, Sharqdagi dushmanlari mo'g'ullarga qarshi muvaffaqiyatli kurashishi uchun g'arbdagi dushmanlari, ya'ni orqa tomonidagi g'animlarini bir yoqli qilish zarur edi. Sulton Jaloliddin Basra, Bog'dod shaharlarini qamal qildi. 1225-yil martida shaharni egalladi. Biroq shu vaqtida Ozarbayjonning Marog'a shahri aholisidan Sultonga maktub keladi. Xalk maktubda Ozarbayjondagi beboshliklari, zulm va adolatsizliklaridan, ayniqsa gruzinlarning bosqinchiliklaridan bezor bo'lib undan madad kutayotganligini zorlanib yozadilar¹⁷⁸. «Shunda Sulton tezlik bilan o'sha tomonga yurdi va hech bir qarshiliksiz qo'lga kiritdi», ya'ni 1225-yil may oyida Urmiya ko'lining janubi sharqiy qismida joylashgan Marog'a shahrini egallaydi¹⁷⁹. Bu shaharni muvaqqat poytaxtiga aylantiradi. Marog'a shahrini egallagandan keyin Sulton Jaloliddinni ushbu hududlardagi faoliyatini eng muhim bosqichi boshlanadi. Bu yerda ham Sulton o'zini uzoqni ko'ra biluvchi hukmdor «usta diplomat» ekanligi ko'rsatadi. 1225-yil iyun oyida o'z atrofidagi hukmdorlar bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini o'rnatishga kirishadi. Shu maqsadda Xorazm davlatining eng atoqli olimi, turli fan sohalaridagi bilimdoni, hamma yerda ma'lum qozi Mujridin Umar ibn Sa'd al-Xorazmiy boshchiligidagi elchilarni qo'shni hukmdorlariga

¹⁷⁸ O'sha asar. – B. 208.

¹⁷⁹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 196.

maxsus maktub bilan yoboradi¹⁸⁰. Maktubda Sulton barcha hukmdorlarni do'stlikka, o'zaro hurmat va kofirlarga qarshi kurashda birlashishga chaqiradi. «Bizning o'rtamizda Allohning marhamati bilan jihod va urush e'lon qilishda tenglik va ishlarimiz, xalqlarimiz va dinimizda birlik bor. Kishining mehri va sadoqatiga munosib odam bu unga tili va dini mos bo'lganidir» - deb yozadi Jaloliddin o'z maktubida¹⁸¹. Jaloliddin juda samimiy ohangda «Bizning siz bilan bitim tuzish baxtiga erishish istagi va siz bilan bog'lanish umidi shu qadar kuchliki»,- deb Kuniya Sulton Alovuddin Kaykubod I ga, Jazirarining hokimi al-Malik al-Ashrafga, Damashq hokimi al-Malik Al-Muzaffarga va Misr hokimiga murojaat qiladi. Sulton Jaloliddin mazkur diplomatic, juda puxta o'ylab qilgan hatti-harakatlari uning faoliyatini keskin tanqid qiluvchilarning fikrlarini naqadar asossiz ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Mahalliy hukmdorlar (o'z paytida sulton 25-26 yoshlik yosh yigit edi) Jaloliddinga munosib izzat-ikrom ko'rsatganlar, hatto ayrimlari, o'z ixtiyorlari bilan Jaloliddinning nomini o'z mamlakatida xutbaga qo'shib o'qitgan, nomidan tanga chiqarganlar. Bu bilan ular uni nafaqat ittifoqchi balki, valine'mat sifatida, o'zlarining tobe sifatida qabul qilishganligini hisobga olsak Sulton Jaloliddinning obro'-e'tibori naqadar yuksak bo'lganligini ko'rsatadi.

Ko'pgina tadqiqotchilar va manbalar Sulton Jaloliddinning Gruziyaga yurishlarini juda qattiq qoralab, bu keraksiz bir siyosat ediki, Xorazmshohning oxir-oqibatda kuchsizlikka, hatto halokatga sabab bo'ldi deb yozadilar. Sulton Jaloliddin Gruziyaga yurish sabablari manbalarda atroflicha yozilgan. Musulmon manbalari bu voqeaga asosan ijobiy deb qarashgan bo'lsa, Gruziya va arman manbalarida Jaloliddin bu yurishlarini qattiq qoralab yozishgan.

Umuman Sulton Jaloliddin Kavkaz ortiga, ya'ni Gurjistonga uyushtirgan yurishlariga nima sabab bo'gani edi? O'z vatani ya'ni Turon hududlari mo'g'ullar zulmidan ezilayotgan bir vaqtda, u yerni

¹⁸⁰ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 196.

¹⁸¹ O'sha asar. – B. 196.

bosqinchilardan ozod qilish o‘rniga Gurjistonga yurishga ma’naviy haqqi bormidi?

Sulton Jaloliddin Ozarbayjon yerlariga kelgunga qadar, musulmonlarga qo‘shni bo‘lgan, o‘sha davrda xristian olamida eng qudratli davlatlardan biri hisoblangan Gurjiston Islom mamlakatlari ustiga doimiy yurishlar va bosqinchiliklar bilan tahdid qilib turgan. Ozarbayjon hukmdori O‘zbekxon esa «o‘z kaf-safosi, ko‘ngil xushlari bilan ovora bo‘lib, doimiy mast-alast yurardi»¹⁸². Uning nomidan hokimiyatni xotini, saljuqiy malika Xotun olib borib, u o‘z bilganicha ish tutardi. Bu ikki holat, ya’ni gurjilarning doimiy bosqinlari va davlatni ayol kishi tomonidan boshqarishlik natijasida kelib chiqqan bosh-bodoqlik tufayli, ushbu hududda tartib o‘rnatish maqsadida tashabbusni o‘z qo‘lga olishiga majbur bo‘ladi.

Gurjilar Islom mamlakatlardagi vazshiyliklarni va musulmonlarning bundan najotsizligi to‘g‘risida Ibn al-Asir shunday deb yozadi: «ular musulmonlarning qonlarini to‘kdilar, mol-mulklarini taladilar, oyoq osti kildilar. Gurjilar har kuni musulmonlar ustidan bostirib kirdilar. Hohlaganlaricha boyliklaridan olib ketdilar. Biz uzoqdagi musulmonlarga bu va musulmonlarning himoya qiluvchi va o‘ch oluvchi insonlarni berishni yolvorib so‘radik»¹⁸³.

Juvayniyning yozishicha gurjilar Sulton Jaloliddin Ozarbayjondan haydab chiqarib Tabrizni egallashni, Bog‘dodga yurish qilishi, hatto xalifa o‘rniga katolikos*ni tayinlashni, machit o‘rniga cherkov kurishni rejalashtirganlar. An-Nasaviy gurjilarning maqsadlari to‘g‘risida shunday yozadi: «Sulton Ozarbayjonnini bosib olgandan keyin gurjilar Dvin tegrasida Garni nomi bilan mashhur bo‘lgan tog‘ga oltmish ming odamni yig‘di. Bu yig‘in bilan ular o‘zlarining qudratli kuch ekanligini va lashkarlari ko‘p sonli ekanligini Sultonga ko‘rsatib qo‘ymoqchi

*Katolikos - Gurjiston katolik cherkovining boshlig‘i

¹⁸² Ibn Al-Asir. Al-kamil fit-tarix. – Boku, 1940. – B. 15.

¹⁸³ O‘sha asar.– B. 15.

edilar. Sulton bu yig'inni ko'rib biz bilan hamkorlik qilishga intiladi va omonlik so'rab keladi deb o'ylagan edilar»¹⁸⁴.

Nima bo'lganda ham Jaloliddin haqiqiy islom hukmdori bo'lgani uchun, unga yordam so'rab iltijo qilgani musulmonlarning arz dodlarini javobsiz qoldirishi mumkinmidi? Xalq oldidagi doimiy ma'suliyatli burchi, yuksak iymon va vijdon e'tiqodi Jaloliddin boshqacha harakat qilishi mumkinmidi? Sultonning bu o'lkalarda paydo bo'lishini musulmonlar ularga Allohning marhamati deb qabul qildilar. «Alloh bu baxtsizlarning og'ir ahvolini ko'rdi. Rahm-shafqat qildi. Avf etdi. Jaloliddin haloskor sifatida yubordi u esa gurjilarga qarshi yurish qildi va musulmonlar uchun qasos oldi»¹⁸⁵. Professor Ozod Masharipov Sulton Jaloliddinning gurjilar ustiga yurishini Xorazmshoh Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi yurish oldidan o'z orqa tomonining hafvsizligini ta'manlash uchun gurjilar ustiga yurish qilish orqali ularning harbiy qudratini sindirishga qaror berdi», deb baholaydi¹⁸⁶.

Agar biz manbalardagi bu ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, jiddiyroq tahlil qiladigan bo'lsak Jaloliddinning Gurjistonga yurishlarini keskin qoralab chiqqanlar masalaga bir tomonlama qaraganliklarini ko'ramiz. Faktlar shuni ko'rsatadiki, ulug' hukmdor bo'ladigan har bir musulmon farzandi qaysi hudud va mamlakatda bo'lishidan qat'iy nazar o'z fuqarolari hisoblanmish dindoshlarini muhofaza qilishni o'ziga muqaddas burch deb bilganlar. Jaloliddinga qadar biror musulmon hukmdori bu vazifani bajaraolmagan. Shulardan kelib chiqadigan bo'lsak Sulton Jaloliddin Gurjistonga yurishlarini avvalambor gurjilarning o'zlarini aybdor deb bilmoq kerak. Gurjilar o'zlarining hatti harakatlari bilan Xorazmshohni shunga majbur qilganlar.

Shunday qilib, Sulton Jaloliddinning Gurjistonga yurishlari aniq bo'lib qolgach u o'z odatiga ko'ra dushmanni oldidan bostirib kirayotganliklari to'g'risida ogohlantirib elchi jo'natadi. Gurjiylar bilan

¹⁸⁴ O'sha asar.– B. 15

¹⁸⁵ Ibn Al-Asir. Al-komil fit-tarix. – Boku, 1940. – B. 15

¹⁸⁶ Masharipov Ozod. Xorazm tarixidan sahifalar. –Toshkent, 1994. – B. 197.

Jaloliddin o'rtasidagi dahshatli jang 1225-yil avgust oyida Ovin shahriga yaqin Garni qal'asi yaqinida bo'lib o'tadi. Shiddatli bo'lib o'tgan jang natijasida Xorazmshoh Gurjilarni shunday dodini berdiki, ular bu mag'lubiyatdan keyin o'zlariga kelishi ancha qiyin bo'ladi.

Umuman, Sulton Gurjistonga uch marta yurish qildi:

1. 1225-yil avgust. 2. 1228-yil mart. 3. 1228-yil sentyabr. Shunday qilib, bu yerlar Xorazmshoh Jaloliddinning qo'liga o'tdi va Chirven, Gujistonda to 1231-yil o'rtasigacha bu yerda hukmronlik qildi ¹⁸⁷.

Sulton Jaloliddinning Gruziyaga yurishlari va bo'ysundirishi o'sha davrdagi tarixiy shart-sharoit va musulmonlarning xavfsizligini ta'minlash zarurligidan eng to'g'ri yo'l edi deb baholashga asos bor edi. Ibn Al-Asir shunday deb yozadi: «Bu yurishlar islom mamlakatlari va musulmonlar uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, chunki bu vaqtgacha gurjiylar ular ustidan ho'jayinlik qilib keldilar. Gurjiylar Ozarbayjonning barcha viloyatiga bostirib kirdilar va hech qanday qarshilik ko'rmadilar. Bu o'lka (Gurjiston) islomgacha ham eng yovuz o'lka bo'lib kelgan edi. Musulmonlar uchun islom boshlanishidan to hozirgacha shunday bo'lib qolgan edi. Hech kim Jaloliddingacha u qilgan ishni qilmagan edi»¹⁸⁸.

Sulton Jaloliddin, keyingi vaqtlarda gruzinlarni uning mulklariga kuchayib borayotgan tajovuzlaridan himoya qilish va ularning bosqinini tugatish maqsadida Gurjiston ustiga ikkinchi yurishini boshlaydi. Gurjiston podshosi Malika Rusudana Tiflisdagi juda katta qo'shin to'playdi. Ammo Sulton ularni tor-morga keltiradi¹⁸⁹. Gurjistonni o'z davlatiga uzil-kesil qo'shib olgan Sulton Jaloliddin asosiy e'tiborini mo'g'ullarga qaratishga imkoniyat topgan vaqtida, unga qarshi davlat hisoblangan, hozirga Iroqning shimoli va Turkiyaning janubida joylashgan Jazira davlatining Hilotdagi noibi Xojib Ali hujum qiladi. Sulton noiloj bosqinchini jazolash maqsadida,

¹⁸⁷ Ziyo Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar. – Toshkent, 1998. – B. 160.

¹⁸⁸ Ibn Al-Asir. Al-komil fit-tarix. – Boku, 1940. – B. 25.

¹⁸⁹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 220.

uning ustiga yurish qiladi va 1229-yil aprelda Hillot shahrining egallanishi bilan tugaydi¹⁹⁰.

Qo‘shinlar shaharga kiringach, Sultonning ruxsatisiz ayrim sarkardalarning aybi bilan aholini talaydilar. Ammo Jaloliddin bunga chek qo‘yib, qamal natijasida vayron bo‘lgan shaharni tiklash, devorlarini butlash ishlarini boshlaydi va buning uchun kerakli mablag‘ ajratadi.

Xorazmshohning so‘nggi harbiy muvaffaqiyati, ya‘ni Hilot shahrini egallashi unga qo‘shni davlatlarning hukmdorlarini xavotirga solib qo‘yadi. Hatto, Xalifa ham katta sovg‘a-salomlar bilan uning huzuriga elchilar yuboradi. O‘z navbatida Sulton ham ularni izzat-ikrom bilan kutib oladi. Sovg‘a-salom bilan ularga o‘z elchilarini qo‘shib halifa huzuriga yuboradi¹⁹¹.

Hilotni ishg‘ol qilgach, Xorazmshoh o‘z qo‘shinini G‘arbga, Malazgrid tomon, ya‘ni Ko‘niya Sultoni Kaykubod I mulki tomon boshlaydi. Bu Sulton Jaloliddin tomonidan yo‘l qo‘yilgan jiddiy xato edi. Hatto, Ko‘niyo Sultoni o‘zining Xorazmshohga cheksiz hurmati va ittifoqchilik sadoqatini bildirish maqsadida mahsus elchilarini yuborishi ham, bu yurishni to‘xtatolmadi. Bunga, bevosita Sultonning vaziri Sharif al-Mulkning, Ko‘niyo sultoni elchilariga qabul marosimi paytida qilgan qo‘pol muomalasi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Sharif al-Mulk o‘z mavqeidan foydalanib, ikki davlat o‘rtasida urush chikarishni maqsad qilib qo‘shganligi sababli elchilarni turli bahonalar bilan Sulton Jaloliddindan ijobiy javob olishiga yo‘l qo‘ymaydi. Hukmdorini qoniqtira oladigan javob olmagach, elchilar quruq qaytib ketadilar. Natijada, kuchli hukmdor Aloviddin Kaykubod I Sultonning dushmanlaridan biriga aylanadi. Xorazmshoh Jaloliddinning kuch-qudratidan xavfsiragan qo‘shni davlat hukmdorlari Aloviddin Kaykubod I taklifi bilan Sultonga qarshi ittifoq tuza boshlaydilar. Bu haqda unga Arzainarum hokimi Rukniddin Jahonshoh xabar beradi. Ittifoqchi qo‘shinlar tarkibiga Aloviddin Kaykuboddan tashqari

¹⁹⁰ O‘sha asar. – B. 240.

¹⁹¹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 245.

Damashq hukmdori al-Malik al-Ashraf, Xums hukmdori Ibrohim Shirkuh, Xartabert hukmdori O'rtuqxon, Halab hukmdori Shamsiddin Savob, Mayofarikan hukmdori Shahobiddin Goziy, Banyo sultoni al-Aziz Usmonl, shuningdek turli arab, hatto salbchilar otryadlari ham kiradilar¹⁹².

Bu paytda Sulton Jaloliddin Hilotni egallagach, qo'shinlarining ko'p qismini Ozarbiyjon, Mug'on va boshqa viloyatlarga dam olish uchun tarqatib yuborgan edi. Bundan unumli foydalangan ittifoqchi qo'shinlar Sevas yonida to'planib, G'arbiy Yefrat vodiysi tomon Arzijonga yurish boshladilar. Xuddi shu tomonga Sharqdan Sulton Jaloliddin yo'lga chiqadi¹⁹³. Biroq har ikkala qo'shin ham bir-birining yurishidan bexabar edi.

1230-yil 7-avgustda Arzijon yaqinidagi Yassi Chaman tog'i yonidagi pasttekislikda Kuniya sultoni Kaykubod I ning saralangan 3000 kishilik qo'shini bilan Sulton Jaloliddinning 700 kishilik ilg'or harbiy qismi to'qnashadi. Bu jangda Xorazmshoh qo'shinlari Kaykubod qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Ammo Xorazmshoh talofat ko'rgan dushman qo'shinini ta'qib qilmaydi. Bu esa Kaykubodning qo'shinlarini uzil-kesil tor-mor bo'lishdan asrab qoladi¹⁹⁴.

Ittifoqchilar va Jaloliddin qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1230-yil 10-avgustda bo'lib o'tdi. Xorazmshoh qo'shinlaridan 2-3 barobar ko'proq kuchga ega bo'lgan ittifoqchilar qo'shinlari Sulton qo'shinlarini tor-mor keltiradilar. Jaloliddin qo'shinining ko'pchilik qosmi tarqalib ketadi. Bu zarbadan keyin Xorazmshoh Jaloliddin o'zini o'nglab olishi juda qiyin bo'ladi. Shu vaqtdan e'tiboran Xorazmshoh Sulton Jaloliddin davlatining inqirozi boshlanadi. Sulton jangdan keyin dastlab Hilotga undan Ozarbayjonga keladi. Ittifoqchilar Sulton yerlariga hujum qilmasdan unga elchilar yuborib, og'ir muzokaralardan so'ng o'zaro sulh tuzishga muvaffaq bo'ladilar¹⁹⁵.

¹⁹² O'sha asar. – B. 363.

¹⁹³ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. –B. 362.

¹⁹⁴ O'sha asar. – B. 363.

¹⁹⁵ O'sha asar. – B. 253.

Xorazmshoh Sulton Jaloliddinning azaliy dushmani bo'lgan Ismoililar Jaloliddin harbiy kuchlarining o'jizligidan foydalanib, mo'g'ullarga qayta-qayta maktub bilan murojaat qilib, ularni Ozarbayjonga Xorazmshoh yerlariga yurishga chorlaydilar¹⁹⁶.

Bunday qulay vaziyatdan unumli foydalanish maqsadida mo'g'ullar Jaloliddin yerlariga hujum qiladilar. Xorazmshoh o'z kuchlarini yig'ish va zarur qo'shinni to'plash maqsadida saltanat poytaxti Tabriz shahrini tark etib, Mug'on viloyatiga qarab yuradi. Shu bilan birgalikda, Damashq hukmdori al-Malik al-Ashrafga va boshqa qo'shni davlatlarga chopar jo'natib, mo'g'ullarga qarshi kurashishda ittifoq bo'lish va qo'shin bilan yordim berishga chaqiradi¹⁹⁷. Jumladan u qo'shni hukmdorlarga yozma maktubida shunday deydi: "Tatarlar qo'shini bu safar har galgidan ko'proq bo'lib, juda katta kuchni tashkil etadi. Agar qo'shin va qurol-aslaha bilan yordam bermasangiz, ularga qarshi devor bo'lib turgan kuch yo'qolishi aniq. Vaholanki, sizlar bunday vazifani bajara olmaysizlar. O'zingiz, bolalaringiz va butun musulmonlarni o'ylang va qo'shin jo'nating. Zero, bu ittifoqimiz kuchimizga kuch qo'shadi, dushmanga qattiq zarba bo'ladi. Bu boradaga sustkashlik oqibatiga o'zingiz guvoh bo'lishingiz mumkin, ammo unda kech bo'ladi"¹⁹⁸. Sulton Mug'onda turganida mo'g'ullar unga hujum unga hujum qiladi. Xorazmshohning og'ir vaziyatga tushib qolganidan foydalangan, u ishongan, uning davlatida Sultondan keyin ikkinchi shaxs hisoblangan vazir Sharif al-Mulk ochiqdan ochiq hiyonat yo'lga kirdi. Ko'niyo sultoni Alovuddin Kaykubod va Damashq hukmdori al-Malik al-Ashrafga xat yozib, ularga o'z tobe'liklarini bildiradi. Xatida o'z sultonini "najotsiz, yovuz" deb ataydi¹⁹⁹. Shunga o'xshash xatlar Sultonning qo'lga tushib qoladi. Sulton Janubiy Ozarbayjonning Jarbard qal'asiga kelib, Sharif al-

¹⁹⁶ O'sha asar.. – B. 365.

¹⁹⁷ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. –B. 367.

¹⁹⁸ O'sha asar. – B. 367.

¹⁹⁹ O'sha asar. – B. 367.

Mulkni hibsga oladi va undan tushgan shikoyatlarni eshitadi. Vazir Sharif al-Mulkning ayblari isbotlangach o‘limga buyuradi.

Bu orada Damashq hukmdori al-Malik al-Ashraf kerakli paytda Sultonga yordam berish o‘rniga, uning taklifiga rad javobini berib, o‘zi 1231-yil 16-mart kuni Misrga ketib qoladi. Sulton Jaloliddin mo‘g‘ullar ta‘qibidan chekinib, Amid viloyatiga keladi va shaharga yetmasdan to‘xtaydi. Bu yerdan Xorazmshoh davlatining markazlaridan biri hisoblangan Isfaxonga borib, u yerda mo‘g‘ullarga qarshi qo‘shin to‘plash va kuch yig‘ish maqsadida katta jangdan oldin dam olmoqchi edi. Ammo, Amid viloyatiga kelgandan keyin ikkinchi kuni Amid hukmdoridan elchi keladi. Bundan Amid hukmdori mashhur Xorazmshohga o‘z tobeligini bildiradi va qo‘shni Rum davlati yerlariga harbiy yurish qilishga Sulton Jaloliddinni bir amallab ko‘ndiradi²⁰⁰

Natijada Isfahonga yurish fikridan qaytgan Sulton Jaloliddin Rum davlatiga yurish qilish uchun bu davlatga chegara shahar hisoblangan Amid shahri atrofiga yetib keladi va o‘sha yerda qoladi. Mo‘g‘ullar, Sultonning nihoyatda og‘ir ahvolda qolganligidan foydalanishga intiladilar. Ular musulmon mamlakatlarini faqat Sulton Jaloliddin himoya qilishiga qodirligini biladilar. Shuning uchun uni yo‘k qilish payiga tushadilar. Sulton Jaloliddin Amid shahri atrofida turganida mo‘g‘ullar kechasi uning qo‘shinini o‘rab oladilar.

Ammo Jaloliddinning amiri Urxon mo‘g‘ullarga qattiq zarba beradi, bu bilan Sultonning sog‘-salomat chekinishiga imkoniyat yaratadi. Sulton chekinib, Amid shahriga, undan al-Jaziraga yetib keladi. Biroq bu yerlarda kerakli madad va yordam ololmagach, Mayafarikanga keladi. Bu yerda unga mo‘g‘ul-tatarlar yetib oladi. Sulton askarlari qirib tashlanadi. Mo‘g‘ullar ham juda katta talofat ko‘radi. Mo‘g‘ul qo‘shinidan qolgan o‘n beshta navkar Sulton Jaloliddinning izidan tushadi va yetib oladi. Sulton dushman ko‘p bo‘lishiga qaramasdan ularga sherdek tashlanadi va mo‘g‘ullarni

²⁰⁰ O‘sha asar. – B. 283

o'ldiradi. Buni ko'rib kolgan mo'g'ullar Xorazmshohni ta'qib qilishni to'xtatadilar.

Sulton Jaloliddin mo'g'ullardan chekinib toqqa chiqib ketadi. Yo'lda kurd qaroqchilari uni tunash uchun ushlab olishadi. Ammo, qaroqchilar sardori uning Sulton ekanligini bilgach, uni hokim huzuriga yoki Sulton Jaloliddinning o'z mulklariga olib borish uchun, bir oz muddatga xotini huzurida qoldirib, ot olib kelgani ketadi. Shu payt boshqa bir kurd kelib, asirni xorazmlik ekanligini bilgach, Hilot shahri qamalida halok bo'lgan akasi qasdini olish maqsadida kutilmaganda nayza sanchib o'ldiradi.

Ayovsiz va beshafqat janglarda o'lim bilan o'nlab marta to'qnash kelgan, dovyurakligi va jasorati bilan eng yovuz dushmanlarini ham lol qoldirgan, o'z davriniing buyuk bahodiri deb tan olingan Sulton Jaloliddin Xorazmshoh hayoti shu tariqa tasodiflar o'ramida zavol topdi. Uning halokatini hatto dushmanlari ham taassuf bilan kutib oladi. Damashq hukmdori Al-Malik al-Muzaffarga Sulton Jaloliddin o'ldirilganligi to'g'risidagi xabar bilan kelishganida, xabarchilarga shunday xitob qiladi: "Meni uning o'limi bilan tabriklaysizmi? Ammo siz tez orada buni qanday oqibatlariga olib kelishini anglaysiz, zero, Allohga qasamki, uning halokati, mo'g'ullarning islom mamlakatlariga bostirib kirishi degan gapdir. Chunki, endi mo'g'ullarga qarshi tura oladigan Xorazmshohga o'xshagan kuch yo'q!"²⁰¹.

Haqiqatan ham Damashq hukmdorining bu ogohlantirishi tez orada o'z isbotini topadi. Mo'g'ul-tatarlar Xorazmshoh halokatidan keyin Islom mamlakatlariga yurish qilishlariga to'siq bo'luvchi kuch ko'rmadilar. Qator mamlakatlarni bosib olib, xalifalikning poytaxti Bog'dod shahrini ham egalladilar. Musulmonlarni ayovsiz qirg'in qildilar. Demak, Sulton Jaloliddinning halokati Sharq mamlakatlari xalqlari uchun katta yo'qotish bo'lgan edi.

Sulton Jaloliddin hozirgi Turkiyaning sharqiy qismidagi Silvan viloyati (o'rta asrlardagi Mayafarikana viloyati)ga qarashli Ayn-Dar

²⁰¹ Shihobiddin an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent, 1999. – B. 319.

qishlog'ida 1231-yil 20-avgust atroflarida o'ldirilgan edi²⁰². Mayafarikana hokimi Shahobiddin G'oziy buyrug'i bilan Ayn-Dar qishlog'idagi barcha erkaklar qirib tashlanadi. Qishloq esa yoqib yuborilgan²⁰³.

Sultonning jasadini tanigan tog'asi Uturxon va boshqa Xorazm amirlari Mayafarikanaga yaqinroq joyga Sulton Jaloliddinning jasadini olib chiqishib, dafn qilishdi, qabrini mo'g'ullari toptamasligi va tahqirlamasliklari uchun yer bilan teng qilib, tekis qilib qo'ydilar²⁰⁴. Demak, Sulton Jaloliddinning jasadi, hozirgi Turkiya davlatining Sharqiy qismiga dafn qilingan va o'sha yerda qolib ketgan.

Shunday qilib, 11-yil davomida o'z davrining eng buyuk davlatlaridan hisoblangan Xorazmshohlar davlatiga, uning eng halokatli davrida hukmdorlik qilgan, mo'g'ul-tatarlarning hujumidan keyin parchalangan davlatni yangidan tiklashga muvaffaq bo'lgan, o'n yildan ortiqroq vaqt davomida mo'g'ullarning islom mamlakatlariga kirishiga qalqon bo'lib turgan, hozirgi Hindiston, Afg'oniston, Eron, Turkmaniston, Iroq, Armaniston, Gurjiston, Ozarbayjon, Turkiya, Suriya yerlarini birlashtirib Buyuk Xorazmshohlar davlatining shonshuhratini qaytadan ko'targan, o'z davrining buyuk bahodiri deb tan olingan shaxsning taqdiri shu tariqa fojiali yakunlangan edi. Ammo, Jaloliddinning tarixiy ibrati abadiydir.

²⁰² O'sha asar. – B. 363.

²⁰³ O'sha asar. – B. 363.

²⁰⁴ O'sha asar. – B. 363.

IV.BOB.XORAZM SHOSHLAR DAVRIDA IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

IV.I. Xorazmshohlar davrida iqtisodiy hayot

Xorazm davlati qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik rivojlangan hududlardan biri bo'lgan. Qadimgi davrlarda bu hududning rivojlanishining asosiy omillardan biri Buyuk ipak yo'lining bu hududdan o'tganligi edi. Xorazmshohlar davlati davrida-yirik siyosiy birlashmaning vujudga kelishi bilan davlatning siyosiy mavqei oshdi. Bu esa o'z navbatida hunarmandchilikning, savdoning rivojlanishiga, shaharlarning yuksalishiga zamin yaratdi. Ulkan mintaqada siyosiy yaxlitlik va barqarorlikka erishilishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi²⁰⁵. Arxeologik izlanishlar, yozma manbalar guvohligiga ko'ra sun'iy sug'orishga katta e'tibor berilib, vohalar imkonidan iloji boricha keng foydalanishga harakat qilingan. Natijada dehqonchilikni rivojlanishida uzilish bo'lmagan. Turli hil qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirilgan. Ulardan yuqori hosil olingan. Davlatning yer, qishloq xo'jaligi va chorvachilikka katta ahamiyat berganiga shubha yo'qdir. Xorazmshohlarning dehqonchilikka, qishloq xo'jaligiga bergan ahamiyatining bir ko'rsatkichi ham sug'orish kanallarini yaratishdagi yutuqidir. Davlatning oxirgi paytlarida qiyin kunlarni boshidan kechirgan Sulton Jaloladdin Xorazmshoh kanal barpo qilish bilan mashg'ul bo'lgan edi. Bundan tashqari vazir Sharafulmulk Aros daryosidan ikkita katta kanal qazdirib o'ziga oid boshqoli o'simliklar yetishtiriladigan mintaqalarning sug'orilishini ta'minlab mo'l-ko'l hosil olgan edi²⁰⁶.

Xorazmshohlar uchun tijorat iqtisodiy hayotning bosh unsuri va mintaqa boyligining manbai edi²⁰⁷. Xorazm mintaqasi jug'rofiy

²⁰⁵ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

²⁰⁶ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.251.

²⁰⁷ O'sha manba. – B.251

joylashish e'tibori bilan Osiyoni Janubiy Rusiya bilan bog'lovchi chorraha vazifasini bajargan. Chin (Xitoy) va Hindistondan kelgan mollarning Sibir va Skandinaviya mamlakatlariga yuborilishi uchun tarqaladigan markazni Xorazm tashkil qilgani. Bundan tashqari, Bag'dodga yetib boradigan mollar, quruqlik yo'llari orqali Misr va Afrikaga, dengiz yo'li orqali esa Ispaniyaga qadar yetib borar edi. Bu tranzit tijorat tarmog'ida, musulmon tujjorlar muhim rol o'ynaganlar²⁰⁸. O'rta Yer dengizi portlari, bandargohlari, zotan, musulmonlarning nazorati ostida edi. Xorazmliklar ham mohir tujjorlar o'laroq bu harakatda, faollikda muhim rol o'ynar edilar. XII asrgacha Sharqdan Xorazmga yetib kelgan mollar, tovarlar Qora dengizning shimolidan o'tgan xalqaro tijorat yo'li orqali tashlardi. Onado'lu tijorat yo'llarining ahamiyat kasb etishi turklarning Antoliya va Alaniya portlaridan oq dengizdan foydalanganlariga qadar ko'p faollikni taqdim qilmas edi. Bizni qiziqtirgan Sinop, Somsun va Trabzon bandargohlarining esa ortiqcha ko'rilmaganligi ayon bo'lmoqdadir²⁰⁹.

Bu davrda, shaharlarda hayot qaynab, savdo-sotiq, hunarmandchilik rivojlangan. Mamlakatda ishlab chiqarilgan turli hildagi gazlamalar, zargarlik buyumlari, kiyim-kechaklar, gilam, poyondozi, teri, jun, yog'-moy, sovun, qurol-aslaha, egar-jabdug'lar, ho'l meva, quruq meva, ipakliklar, javohirlar va boshqa ko'plab mahsulotlar ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda xaridorgir edi. Albatta, bunda tegishli davlat idoralarining hissasi ham katta bo'lgan. Chunonchi, doim bo'lganidek muhtasiblar bozorlardagi narx-navo, mahsulotlarning sifati, toshu tarozuning ahvolidan xabardor bo'lishni to'xtatmaganlar. Karvon yo'llarida to'xtash joylari, suv omborlari, havzalari qurilgan yo borlari ta'mirlangan, katta karvonlarni qo'riqlab borishga hatto sultonning shaxsiy pahlavonlari ham jalb etilgan²¹⁰.

²⁰⁸ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.252.

²⁰⁹ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.252.

²¹⁰ O'sha manba. – B.251

Xorazm mustaqil o'laroq muhim bir qishloq xo'jalik mintaqasi edi. Bunyodov haqli tarzdagi o'xshatishida ta'kidlaganidek, «sahro o'rtasidagi bir voaha» yaralgan edi²¹¹. Jayhun Daryosining (Amurdaryoning) qirg'oqlari ekinlar ekilgan dalalar bilan qoplangan edi va shunga bog'liq o'laroq bir-biriga juda yaqin qishloqlar bor²¹². Xorazmshohlar davlati markazi - Gurganj yirik savdo va madaniy markazga aylangan. Shuningdek, Xazarasp, Kat, Xushmusan, Darg'on, Savag'on, Mang'ishloq, Nuzkat kabi shaxarlari obod shaxarlar qatoriga kirgan. Naso, Xo'jand, Termiz, Shosh, Isfijob, Farg'ona, Balx, Vaxsh.... Xorazmshohlar davlati Xorazm mintaqasi markazi bo'lgani holda Movarounnahr, Xuroson, So'g'd, G'ur va G'azna mintaqasi bilan Iroqi Ajamni ham o'z ichiga olgan keng bir jo'g'rofiyada hukm surgan edi²¹³. Xorazmshohlar davlatida raiyat, ya'ni oddiy aholining ijtimoiy turmush tarzi yashi bo'lishi uchun hukmdorlar alohida ahamiyat berganlar. Jumladan, Xorazmshoh Takash o'z farmonlaridan birida raiyatga nisbatan adolatli bo'lishga, dehqonlarning manfaatini himoyaga qilishga, soliqlarni olish jarayonida qonunlarga to'liq rioya etishga amr qilgan. Jaloliddin Xorazmshoh ham urush natijasida qiyin ahvolga tushib qolgan aholini soliqlardan ozod etgan²¹⁴.

Hunarmandchilik yuksak darajada rijoqlangan bo'lib, xorazmliklar paxta va yungli kiyim-kechaklar, yopinchiqlar, gazlamalar va paxta yog'ini tayyorlab, ishlab chiqib ularni boshqa mamlakatlarga ixroj (eksport) qilganlar²¹⁵. Tijorat mollari orasida qullar ham bor edi. Xorazm qullar bilan savdo qiluvchi tujjorlarning markaz sifatida foydalangan mintaqalaridan biri edi²¹⁶. Xorazmshohlar

²¹¹ Ziyoy Bunyodov. Anushtakinlar Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 142..

²¹² Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.249

²¹³ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.246.

²¹⁴ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

²¹⁵ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.250.

²¹⁶ Osha joyda. – B.250.

davlati davrida ham mintaqa X asrni o'rtaga qo'yganimiz bu tijoriy ahamiyatini orttirishda davom ettirdi. Mo'g'ul istilosiga qadar Xorazmshohlar davlatining ta'minlagan barqaror va havfsiz muhitida tijoriy faoliyatlar to'xtovsiz davom etdi. Xorazm tijorat markazi edi va manbalarimizda karvonlarning tunda to'xtab tunab o'tadigan joyi sifatida ko'rsatilgan.

Davlat tijorat masalasida ham o'z zimmasiga tushgan ishni bajargan. Manbalardan ayon bo'lganidek yo'llarning havfsizligini ta'minlashga juda katta ahamiyat berardi. Misol uchun, bir iqto farmonidan yo'llar havfsizligining javobgarligi iqto egasiga topshirilgan²¹⁷. Xorazmshohlarda katta o'g'illarning aksariyat ko'pchiligi bu yerda xizmat qilishlari ham bir tasodif emasdi. Mintaqada saqlanadigan havfsizlikning tijoriy hayotga hissasi rejalashtirilgan, bu tatbiq qilishga davlatning tijoriy hayotga bergan e'tiborini yana bir marotaba ko'rsatmoqdadir. Chunki Jand mintaqasi to'g'ridan-to'g'ri Xorazmga yetishgan tijorat yo'li ustidagi bir tijoriy transit yo'l vazifasini bajargan. Jand mintaqasining tijoriy ahamiyatini juda ochiq tarzda o'rtaga qo'ygan asl hujjat esa Bag'dodiyning qayd qilgani va Sulton Alovuddin Takashning bu yerni o'g'li Nasiruddin Malikshohga berilganini ko'rsatilgan²¹⁸. Bu manbada: «yo'llarning havfsizligi saqlanishi, tujjorlarning moli va jonlarining himoya qilinishi, ularning jonlariga va mollariga kelishi mumkin bo'lgan hujumlarga imkon, maydon bermaslik kerakligi» ta'kidlanmoqda²¹⁹. Tujjor, savdogarlarning karvonlariga hujum qilish katta jinoyatlar orasida hisoblangani va jazosining ham shu nisbatda juda og'ir bo'lgan.

Xorazmshohlarning mo'g'ullar bilan munosabatlari ham davlat darajasida tijoriy aloqalar sifatida boshlangan edi. Chingizxonning kuchayishi va hokimiyat maydonini kengaytirishi Xorazmshohlar davlati chegaralarining tugagan joyida tijorat yo'llarini Chingiz nazorat

²¹⁷ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.253..

²¹⁸ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.255.

²¹⁹ O'saha manba va bet.

qilgan mintaqalarga berayotgan ediki, endi bu ikki kuch tijoriy o'laroq ham qo'shni edilar. Ikki o'lkaning rasmiy aloqalari tijoriy sohada boshlangan edi. Zotan, aloqalar, munosabatlarni boshlatgan, tugatgan va hatto mo'g'ullarning g'arbga harakatlarini sergaklantiradigan, piyoladagi suvni toshirgan oxirgi tomchidek bo'lgan hodisalar ham yana tijoriy mohiyat edi²²⁰. 1215 yilda Chingizxonning Pekinni zabt etishi va shuhratini eng yuqori cho'qqiga chiqargan bu xabarning yoyilishi sababli Sulton Alovuddin Muhammad Xorazmshoh bu kengayishning haqiqat ekanligini aniqlash maqsadida bir elchilik hay'atini yo'lga chiqardi²²¹. Abbas Iqbol, Bartold va Qafes o'g'li keltirgan ma'lumotga ko'ra, Sulton Alovuddin Muxammad Xorazmshoh Chingizxonning Chin (Xitoy)da qo'lga kiritgan yutuqlarini o'z rejalariga, «Jahongir» bo'lish savdosiga, orzusiga g'ov bo'lish deb o'ylayotgan edi va tijoriy, savdo manfaatlarni o'ylaydigan ahvolda emas edi²²². Va yana yuqoridagi aytilgan uchta olimga ko'ra, Sultonning bu holati ro'y bermoqchi bo'layotgan yomon voqealarning ham sababini shakllantirayotgan edi. Bahouddin-i Roziy raisligidagi bu elchilik hay'ati Chingizxon bilan uchrashgan edi. Chingizxon bilan bo'lgan bu uchrashuvni Juzjoniylar shaxsan Bahouddin-i Roziydan eshitgan edi. Unga ko'ra, Chingizxon o'zini sharqning, Sulton Alovuddin Muhammadni esa g'arbning hukmdori deb hisoblagan. Buning ustiga, qo'shimcha ravisada Chingizxon tijorat faoliyatlarining yuritilishi masalasiga ham to'xtalib har ikkala mamlakat karvonlarining bemalol harakatlanishlaridan xushnud bo'lishini bildirgan. Elchilik hay'atiga katta e'tibor ko'rsatgan Chingizxon bu hay'at (delegatsiya)ning kelishini o'z o'lkasi bilan Xorazmshohlar orasidagi tijoratning rivojlanishi uchun bir imkoniyat sifatida baholagan edi. Bu yerda bir nuqtaga to'xtalib o'tishimiz kerak. Mo'g'ullarning tushuntirishga harakat qilayotganimiz tijoriy faoliyatlarida olinib

²²⁰ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.256.

²²¹ O'saha manba va bet.

²²² Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.258.

sotilayotgan mollarga, tovarlarga yana-da ko‘p ehtiyojlari bor edi. Aslida ular bilan tijorat qilish benihoyat darajada foydali edi. Manbalarimizda bu holatga ishora qilgan tushuntirishlar bordir. Bunga ko‘ra, mo‘g‘ullarning shaharlarda yashamaganliklari va tartibli yashash joylarining bo‘lmaganligi, ularning gazlamadan tayyorlangan narsalarga doimiy ehtiyojlari bo‘lganligini ko‘rsatmoqda. Bu ehtiyojlarni savdogarlar ham bilganligi ma'lumdir. Mo‘g‘ullarga sotilgan mollar, tovarlar orasida gazlama mollari narx o‘laroq yanada qimmatli edi²²³. Chingizxon ham ehtiyoj materiallari ta'minlashda tijoratning ahamiyatini tushunib yo‘llarning havfsizligini ta'minlash uchun bir tizim yaratgan edi. Bunga ko‘ra, «qaroqchi» nomi berilgan yo‘l muhafizlari, qo‘riqchilari tijorat, savdo yo‘llari ustida ma'lum nuqtalarga joylashtirilib savdogarlarning havfsizligini saqlash majburiyati ularning zimmalariga yuklangan edi. Ilova o‘laroq, buning ustiga bu muhofizlar savdogarlarning mollarni sinchiklab ko‘rib chiqib Chingizxonning shaxsan o‘zi olishni xohlayotganliklarini tasdiqlab olib borardilar. Xorazmshohlar bilan mo‘g‘ullarning yuqorida gapirib o‘tganimiz Bahouddin Roziy rahbarligidagi hay'atning Chingizxon bilan uchrashuvi bilan boshlangan aloqalar rivojlanish ko‘rsatdi. Chingizxon bir savdo shartnomasi tuzish maqsadida kelgan bu elchilik hay'ati qaytib ketayotganida Sultonga yuborish uchun o‘z elchilarini ularga qo‘shib birga yo‘lga chiqardi. Elchilar Sulton Alovuddin Muhammadning huzuriga chiqib Chingizxonning maktubini topshirdilar. Bu elchilik hay'ati Chingizxon tomonidan tijoriy shartnoma shartlarini tasdiqlash uchun vazifalantirilgan edi. Hay'atda Mahmud al Xorazmiy, Ali Xoja-i Buxoriy va Yusuf Kanko-iy O‘troriy ismli musulmon va Xorazmlik savdogarlarning borligi alohida diqqatga loyiqdir²²⁴. Qafes o‘g‘lining ishorat qilganidek, manfaatlarining Chingizxon tomonidan himoya qilinishining natijasi o‘laroq Musulmon savdogarlar Mo‘g‘ul o‘lkasida bemaol faoliyat

²²³ O‘saha manba va bet.

²²⁴Meryam Gurbuz.Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.257.

ko'rsatardilar va hatto elchilik xizmati bilan vazifalantirilardilar¹⁰³². Sulton Alovuddin Muhammad Movarounnahrda qabul qilgan elchilar vositasida Chingizxon bilan tijoriy, savdo shartnomasini qabul qildi¹⁰³³. Mana shu tarzda 1218 yilda kelishuv kuchga kirdi va har ikkala mamlakat orasidagi savdo faoliyatlari tezlashdi, faollashdi. Sultonga kelgan elchilar qaytishda katta bir savdogarlar karvoni bilan yo'lga chiqqan edilar. Chingizxon bu karvonning olib kelgan mollari bilan yaqindan qiziqqandi va hatto mollarining narxlarini ortiqcha aytgan savdogarga uning haqiqiy bahosini aytib uni jazolagani haqida so'z yuritilgan. Bu savdogar karvoni qaytayotganida mo'g'ul savdogarlari ham ular bilan birga yo'lga chiqqan edilar. Chingizxon bu karvon bilan birgalikda Sultonga yuborgan maktubida «Sultonning mamlakatidan borgan savdogarlarni mamnun qilib sog'-salomat jo'natib yuborganligini» xabar qilib «savdo sotiq, oldi-sotdi qilib orqaga qaytishlari uchun ular bilan birgalikda o'zining savdogarlarini ham yo'lga chiqarganligini» ta'kidlagan edi. Ko'ringanidek, Chingizxon bilan Sulton Alovuddin Muhammad orasidagi kelishilgan shartnoma tijoratning rivojlanishi va har Sultonning butun diqqat e'tibori haliyam Chingizxonning kuch-qudrati haqidagi o'yg'a qaratilgan holda ekanligi ayon bo'lmoqda. Nasaviyning qayd etishiga ko'ra, u elchilik hay'ati tarkibida bo'lgan Mahmud al-Xorazmiy bilan tunda alohida yashirin bir uchrashuv uyushtirib bu Musulmon savdogardan mufassal ma'lumot olishga va hatto uni o'z tarafiga og'dirishga harakat qilgan.

Lekin bu sulh muhiti uzoq davom etmadi. 1218 yilning oxilarida O'troga yetib kelgan tijorat karvonidagi barcha savdogarlarning shahar voliysi - hokimi Inoljiq tomonidan o'ldirilishi va mollarining o'zlashtirilishi savdo – sotiq yakunning boshlanishi bo'ldi. Sulton Muhammad hokimni jazolamaganligi sababli Chingizxon katta jangga tayyorlanib g'arbga o'z harakatini boshlab yubordi. Bu harakatlar hayotning barcha sohalarida chuqur izlar qoldirmoqchi bo'lgan mo'g'ul istilosini boshlatdi. Savdoni, tijoriy hayotni falaj qildi. Tijoriy faoliyatlarning ahamiyatiga ishorat qilgan bir misol ham Sulton

Jaloliddin Xorazmshoh davriga oiddir. Sulton Turkiya Saljuqiy Sultoniga yaxshi munosabatlar o'rnatish maqsadida yuborgan elchilar orqali yetkazgan maktubida: «Bundan so'ngra oramizda maktublar almashinajak (kelib-ketajak), elchilar va savdogarlarning ziyoratlari ko'payajak»²²⁵. Ilk rasmiy munosabatda savdogarlarga o'rin berilishi masalaning muhimligini ko'rsatishga yetarlidir.

Xorazmshohlar davlatining daromadlari orasida to'plangan soliqlar ham muhim o'rin tutgan²²⁶. Xalqdan olingan soliqlardan tashqari shartnomalarda belgilangan va tobe bo'lganlarning to'lashi majburiy bo'lgan tovonlar ham bor edi. Bu misollardan iqtolardan yig'ilgan soliqlarni yana iqtolarning xarajatlari uchun sarflanganini, alohida markazga yuborilgan soliqlar ham bo'lganini tushunib olamiz. Hujjatlarda soliq rahbarlari haqida to'xtalib, tez-tez mana bu eslatmalar keltirilgan: «Omillarga aytginki, fasod va xiyonatdan qo'lini tortsinlar. Va raiyotga nisbatan amaldagi qonundan tashqari holda muomala qilmasinlar. Belgilangan soliqdan tashqari olmasinlar»²²⁷. Ko'rinib turganidek, soliq miqdorlari avvaldan belgilanardi va soliqning yig'ilishi paytida suiiste'molga ochiq bo'lgan omillar ogohlantirilardi. Davlat nazarida belgilangan soliqdan tashqariga chiqish «fasod va xiyonat» ma'nosini bildirardi. Davlat soliq olayotganida xalqning farovonlik saviyasini pasaytirmaslikni maqsad qilayotgan edi. Misol uchun, bir istifo manshurida «olinadigan soliqning xalq ahvoli e'tiborga olinib belgilanilishi va xalqning gullab yashnashi, farovonligi e'tiborda tutilishi kerakligiga» urg'u berilmoqda²²⁸. Tabiiyki, bu ideal bo'lganidir. Tatbiq qilishlar esa doimo bu haqida bo'lganini ayta olmaymiz. Bunga ilova o'laroq barcha soliqning yozma tarzda qayd qilinishi va bir nusxasi markazga yuborilishi kerak edi. Davlatning mamlakat ichidan to'plagan soliqlari haqida ortiqcha ma'lumotimiz

²²⁵ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.258.

²²⁶ O'saha manba va bet.

²²⁷. O'sha manba.

²²⁸ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.259.

yo‘q. Bularning turlarini va miqdorlarini aniqlay olmaymiz. Manbalarimiz ko‘proq janglar, urushlar natijasida yengilgan tomonning tovon to‘lashini qabul qilishi haqida so‘z yuritarkan ekan, bu masalada ma'lumot bermoqda. Mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan soliq olinganligi ayon bo‘lmoqda. Juvayniyga ko‘ra, Balx mintaqasi shu darajada barakatli tuproqlarga ega ediki, boshoqli g‘alla o‘simliklarining mo‘lligi bu mintaqada boshoqli g‘alla o‘simliklaridan olingan soliqning turlarga ajratilganiga sabab bo‘lgan edi. Balx bu nuqtada boshqa shaharlardan ko‘ra ko‘p soliq to‘lardi. Tushunilishiga ko‘ra, soliq nisbatlari mahsulot nisbatlari bilan mutanosibdir. Soliqlar yillik o‘laroq yig‘ilardi. Lekin favqulodda holatlarda bir yil ichida bir necha marotaba soliq olinganini ko‘rmoqdamiz. Sulton Alovuddin Muhammad Chingizxon harakatga o‘tganidan keyin mudofaa tayyorgarliklarini ko‘rishga qaror qilganida 1218-1219 yilgi soliqlarning yig‘ilishiga buyruq bergan ediki, bu o‘sha yil ichidagi uchinchi marotaba soliq olinishi edi. Sulton Alovuddin Muhammad davrida Nurdan olingan yillik soliqning miqdori «ming besh yuz dinor» bo‘lganligi ayon bo‘lmoqda. Chingizxon Nur shahriga yetib borganida Sultonga to‘langan miqdorda o‘ziga ham to‘lanilishiga buyruq berdi. Sulton Alovuddin Muhammad davrida davlatning xazinasiga daromad o‘laroq kirgan soliqlar orasida Ismoililarning to‘lagan soliqlari ham bor edi. Nasaviy Alamutga Sulton Jaloliddin Xorazmshoh tomonidan elchi sifatida yuborilishini tushuntirar ekan, shu haqida gapirib o‘tmoqda. Tobelik ko‘rsatkichi o‘laroq Sulton nomiga xutba o‘qitib tovon to‘lagan Ismoililarning soliq miqdori, Nasaviyga ko‘ra, «yuz ming dinor» edi va hozir, ya‘ni Jaloliddin Xorazmshoh davrida bu miqdor o‘ttiz mingga tushirilganligiga qaramasdan tovonni to‘lamaslik uchun bir qancha yo‘llarga bosh urdilar. Sulton Jaloliddin Xorazmshohning nomiga xutba o‘qitishga rozi bo‘lmagan Ismoililar aslida bu holatlari bilan endi Xorazmshohlarning tobesi emasliklarini ko‘rsatayotgan edilar. Davlat ham, zotan, eski kuch-qudratidan juda uzoqda edi. Sulton Alovuddin Muhammad davrida Fors otabegi Sa‘d ham tovon to‘laganlar orasida

edi. Mamlakat, o'lka daromadining uchdan birini Sultonga tovon o'laroq to'lash shartini o'z ichiga olgan bir shartnoma tuzilgan edi. Tovu to'lash va'dasi ko'pincha harbiy shartnomalarning birinchi sharti edi. Misol uchun, Xorazmshoh El-Arslon vafot etganida Gurganchda ukasi Sultonshohning taxtga chiqqanidan xabar topgan Alovuddin Takash kurash uchun kerakli kuchlarni ta'minlay olish maqsadida Qora Xitoyliklarga murojaat qilib, yordam so'rab qilgan shartnoma talabiga ko'ra qo'lga kiritadigan harbiy kuchlariga javoban tovon to'lashini qabul qilgan edi. Xorazmshohlar davlati qurilishidan oldin Saljuqiylarning Xorazm voliysi bo'lgan, Juvayniyga ko'ra, Xorazmshohlar otsiz davridan beri Xitoyga tovon to'lar edilar, xonadonining otasi mintaqaning soliqlarini, tovonlarini yig'ib markazga jo'natar edi. Xorazmshoh Qutbaddin Muhammad bir yil shaxsan o'zi Sulton Sanjarning huzuriga borar, boshqa bir yili esa o'g'li Otsizni ushbu majburiyatni bajarish uchun Saljuqiylarning poytaxtiga yuborar edi. Hukmdorlarning ba'zan soliq, tovonlarni to'lash muddatini kechiktirganliklari ham ko'rinmoqdadir. Misol uchun, Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Tabrizning ichida hukm surgan qiyin sharoitlarni va xalqning, qashshoqligini ko'rganidan keyin uch yillik soliq to'lovining kechiktirilishiga buyruq bergan edi²²⁹.

Mo'g'ul-tatarlar istilosi arafasida Xorazmda bo'lgan mashhur arab sayyohi Yoqut al-Hamaviy o'zining "Mu'jam al-buldon" ("Mamlakatlar lug'ati") asarida shunday deb yozgandi: "Men u yerga 616 yili (1219-1220) borgan edim. Hech qayerda bunday gavjum va yashnagan o'lkani ko'rmaganman. Ekinlari yoppasiga parvarish qilingan, qishloqlari bir-biriga yaqin qatorlashib ketgan, alohida hovli-yu-chorbog'lari ko'p. Dashtda ham qo'rayu qo'rg'onlar bor. O'lkaning rustoqlarida (dehqonchilik tumanlarida) parvarishlanmagan, noobod joyni topish qiyin. Yashil daraxtzorlar, ayniqsa, gujumu tut ko'p, chunki ular (aholi) qurilish yog'ochlariga muhtoj, tut bargi esa ipak qurtiga yemdir. Uning barcha viloyatlarida yurasanmi, yo bozorlarida

²²⁹ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.260.

yurasanmi (aholi ko‘pligi jihatidan) — buning farq yo‘q. Dunyoning hech bir yerida Xorazmdan farovon va aholisi gavjum yurt bo‘lmas kerak. Xorazmning ko‘pchilik aholi manzillari — bozorlarga, hayotiy zarur narsalarga mo‘l-ko‘l, rastalari ko‘p shaharlardir. Bozori bo‘lmagan qishloq kamdan-kamdir. Bularning hammasi umumiy xavfsizlikda va tinchlik-hotirjamlikda amalga oshmoqda»²³⁰.

Shunday qilib, mug‘ullar istilosi arafasida Xorazmshohlar davlati iqtisodiy jihatdan gullab yashnadi. Uning markazi - Gurganj yirik savdo va madaniy markazga aylangan. Shuningdek, Xazarasp, Kat, Xushmusan, Darg‘on, Savag‘on, Mang‘ishloq, Nuzkat kabi shaharlari obod shaharlar qatoriga kirgan. Xorazmshohlar davlatida raiyat, ya'ni oddiy aholining ijtimoiy turmush tarzi yaxshi bo‘lishi uchun hukmdorlar alohida ahamiyat berganlar. Jumladan, raiyatga nisbatan adolatli bo‘lishga, dehqonlarning manfaatini himoyaga qilishga, soliqlarni olish jarayonida qonunlarga to‘liq rioya etishga erishgansir. Xorazm - iqtisodiyotning asoslaridan hisoblangan xalqaro savdo-sotiqning transit markaziga aylandi.

IV.2. Xorazmshohlar davrida madaniy hayot

Anushtakinlar davrida ilm-fan va adabiyot yuksak darajada rivojlandi. Xususan, Xorazmshohlar poytaxti Gurganj iqtisodiy jihatdan nihoyatda gullab-yashnagan singari, ilm-fan va san'at markazi sifatida ham Sharqning yirik ilmiy-madaniy markazi sifatida shuhoat topgan va bu jihatdan Xurosonning buyuk shaharlarini ancha ortda qoldirib ketdi²³¹. Gurganch (Urganch) davlatning poytaxti bo‘lgani kabi madaniy markaz ham edi²³². Xorazmshohlar davri ilm va san'at faoliyatlari jihatidan

benihoya daraja sermahsul davrdir. Ilm va san'atning Xorazm tuproqlarida rivojlanishida o‘lkaning boyligi va farovonlik saviyasining

²³⁰ Ziyoyunov. Anushtakinlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 198.

²³¹ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

²³² Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.282.

yuqoriligi, shubhasiz, muhim rol o‘ynagan edi²³³. Bu davrda mashhur olimu-fozillari Gurganch shahriga oqib kela boshlaydilar. Ular orasida Mahmud az-Zamahshariy, Ismoil Jurjoniy, Abdulkarim Sam'oniy Marvaziy, Yusuf Sakkokiy, Mavlono Faxriddin ar-Roziy, Rashididdin Vatvot, Adib Sobir Termiziy va taniqli boshqa siymolar bor edi. Gurganchda Otsiz Xorazmshoh tashabbusi bilan filologiya (ilmi adab, ilmi naxv), falsafa, ilohiyot (teologiya), fiqh (islom huquqshunosligi), tabiiy fanlar, ilmi ziroat (dehqonchilik), tibbiyot, riyoziyot va falakaiyot, me'morchilik, suv inshootlari (to'g'onlar, chigirlar, koriz-qanotlar), kemasozlik, temirchilik va boshqa hunarmandchilik turlari (duradgorlik, misgarlik, kulolchilik, kunchilik va h.k.) nazariy asoslari va amaliyoti haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan²³⁴.

Sulton Sanjarning poytaxti bo‘lgani uchun gullab-yashnagan Marv Xorazmshohlar davrida ham o‘z mavqeini saqlab qoldi. Yoqut Hamaviy shaharda o‘sha vaqtda o‘nta kutubxona bo‘lganligi to‘g‘risida yozgan edi. Mo‘g‘ul istilosining boshlanishidan qisqa muddat oldin Marvda bo‘lgan Yoqut al-Hamaviy bu shaharning qanchalik muhim bir ilm markazi bo‘lgani haqida ma'lumotlar bergan. Uning qayd etishiga ko‘ra, shaharda bir qancha kutubxonalar mavjud bo‘lib, ularning ba'zidagi kitoblar soni o‘n ming jilddan oshiq edi²³⁵. Jome masjidi kutubxonasida 12 ming jild kitob bo‘lgan. Shahardagi barcha kutubxonalardan foydalangani va shu tufayligina asarlarini yoza olganini e'tirof etgan. Yoqut Marvda lozim bo‘lgan asar nusxalari ham ko‘p bo‘lganligini, asosiy e'tibori bilan dunyoning biror shahridagi kutubxona Marv bilan bellasha olmasligini qayd qilgan edi. Bu Xorazmshohlar davrida Mavrning buyuk bir madaniyat markaziga aylanganligidan dalolat beradi.

Somoniylar davridan e'tiboran, Xurosonning eng katta shahriga aylangan Nishopur ham Xorazmshohlar davrida o‘z mavqesini saqlab

²³³Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.281.

²³⁴ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/322>

²³⁵ Meryam Gurbuz. . – B.282.

qoldi. Xurosonning Hirot, Balx, Nishopur kabi buyuk shaharlarining deyarli barcha olimlari ilm va san'at faoliyatlari bilan dong taratgan markazlar edi²³⁶. Nishopur Somoniylar davridan beri bir ilm va san'at markazi edi va Xorazmshohlar davrida bu ahamiyatini davom ettirgandi. Xorazmshohlar xuddi Saljuqiy hukmdorlari kabi ilm va san'atga ahamiyat berganlar²³⁷. Karvon yo'llari ustida joylashgan bu shahar ayni vaqtda hunarmandchilik markazi ham edi. O'sha davrda Xorazmni ziyorat qilgan arab sayyohi Abu Xomid al-G'arnotiy (1080-1169) o'zining "Tuhfat al-albob va nuhat al-a'job" (Oqillar tuhfasini va ajoyibotlar sarasi) nomli asarida shunday yozadi: "... Xorazmda men o'zim ziyorat qilgan hech bir o'lkada ko'rmagan mevalar o'sadi. Uning ahli esa - fozil olimlari shoirlar va olijanob kishilardir"²³⁸.

Xorazmshohlarning hammasi bilimli kishi sifatida shuhrat qozonishgan, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotini ta'minlaganlar. Ularning bari Xuroson poytaxti Marvda yaxshi ma'rifat olgan adab va din ilmlarini o'rganganlar va ulomalarga va din arboblari homiylik qilganlar. Xorazmshohlar ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni egallaganlar. Masalan, Otsiz qasidalar, ruboiylar yozgan, ko'plab nazm namunalarini yoddan aytib bera olgan, san'at va ilmga katta ixlos bilan qaragan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ud musiqa asbobini chalishda o'z davrida shoh Alovuddin Takishga teng keladigan kishi bo'lmagan. Shu bilan birga u iqtidorli adib bo'lib, arab va fors tillarda ijod ham qilgan. Xorazmda al-Hanafiya mazhabidagi ilm toliblari uchun madrasa qurdirgani uning ma'rifatparvarligiga ishonchli bir dalildir. Alovuddin Takash hukmdorlik qilgan davrda ilm-fan va adabiyot shu tariqa ravnaq topadi²³⁹.

Takashning ilm toliblarini bilimli va ma'rifatli qilish maqsadida ko'plab madrasalar, masjidlar, kutubxona (dor ul-kutub)lar va jamoat binolari qurdirgani, hatto ba'zi madrasa talabalarini pul va oziq-ovqat,

²³⁶ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.282.

²³⁷ Meryam Gurbuz. . – B.282.

²³⁸ O'sha manba

²³⁹ Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 221.

kiyim-kechak bilan ham ta'minlab turgani tarixdan ma'lumdir. O'sha davrda yirik ilmiy va madaniy markazlardan biriga aylangan Gurganj va Katda ma'naviyatning bunday rivojida mahalliy olimu-adiblar, shoirlar bilan bir qatorda xorijiy yurtlardan Xorazmga kelib yashab, ijod qilgan olimu fozillar va shoirlarning ham hissasi katta bo'lgan, albatta.

Andaluziyalik olim va sayyoh Abu Hamid al-G'arnotiy (1080 - 1168) Ibn Aniyn nomi bilan tanilgan shomlik mashhur shoir Sharafiddin Muhammad ibn Nasr (1144-1232), shuningdek, 1153 yilda Xorazmga kelgan jandlik shoir al-qozi Yoqub ibn al-Jandiy, Xurosonning Niso shahridan kelgan Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Ahmad an-Nasaviy, al-Qassob nomi bilan mashhur Sariy' ul-Kaas laqabli nishopurlik adib Muhammad ibn al-Husayn, mashhur balxlik shoir va adib, mashhur kotib Muhammad ibn Abdujalil al-Umariy Rashididdin al-Vatvot kabi o'nlab olimu fozillar til va adabiyot, falsafa, mantiq falakiyot, fizika, ximiya, tabobat, jo'g'rofiya, tarix va boshqa fanlarni rivojlantirishga munosib hissa qo'shganlar²⁴⁰.

Xorazm madrasalariga mudarrislar va imomlar bevosita Sultonning yoki hokimning maxsus ko'rsatmasi bilan tayinlangan. Xorazmshohlar davlatida ko'zga ko'ringan mashhur davlat arbobi, ma'rifatparvar mudarris Sulton Alovuddin Muhammadning eng yaqin maslahatchisi Shihobiddin Abu Sa'd ibn Imron al-Xivaqiy beshta madrasada fiqhdan dars bergan. Mufti Shihobiddin Xorazmda birinchi bo'lib, masjid qoshida kutubxona qurdirgan. Bu kutubxona juda ham nodir kitoblar bilan boyitilgan.

Yoqut al-Hamaviy ta'kidlashicha, Abu Madar Mahmud Sharif al - Isfaxoniy tilshunoslik sohasida, ayniqsa nahvu sarfda beqiyos nom qozongan. Uning ilmiy qobiliyati va fazilatlarini haqida xalq orasida turli xil afsonalar, rivoyatlar tarqalgan. Al-Isfaxoniy teran bilimi va zakovati, nufuzi kattaligi tufayli mu'taziliy mazhabini xorazmliklar o'rtasida keng yoyishga erishadi.

²⁴⁰ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.284.

Xorazmshohlar saroyida xizmat qilgan balhlik Rashiduddin Muhammad ibn Abdujalil al-Umariy (1094-1191) kotiblik san'atida katta obro' qozonadi. U umrining oxirigacha Xorazmda yashab, arab va fors tillarida yigirmadan ortiq asarlar yaratgani tarixdan ma'lum. Uning "Hadoiq as-sehr fi daqoiq ash-she'r" ("She'riyat nafosatida sehrli bo'stonlar") asari alohida ahamiyatga molik. Xorazmshoh Otsizning nabirasi Sultonshoh Mahmudga (1172-1193) bag'ishlangan "Majmuat ar-rasoil" ("Maktublar to'plami") asari esa ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi xalifalar, sultonlar, xoqonlar, vaziru amirlar, hokimlar, qozi va muftilar nomiga jo'natilgan turli-tuman maktublardan tarkib topgan"²⁴¹.

Rashididdin al-Vatvot maktublari orqali Xorazmda o'sha paytda tinchlik va osoyishtalik hukm surganini anglaymiz. Shu boisdan Xorazmga xorijiy elu yurtlardan ko'chib keluvchilar ko'p bo'lgan. Xorazm shu darajaga borib yetdiki, - deb yozadi Rashididdin al-Vatvot, - u qo'rqqan va xavf-xatarga tushganlar uchun bexatar makon, elma-el kezib yuradiganlarga manzilgoh, darvishlar uchun panohjoy bo'lib qoldi. Odamlar Xorazmga har tarafdin o'z kulfatu musibatlaridan iztirobga tushib, hasratu nadomatlardan qalblari kuyib-yonib najot izlab keladilaru, bu joyda barcha illatlari shifo topgan, dardu alamlari bartaraf bo'lgan, jamiki yumushu tashvishlaridan qutilgan holda qaytadilar. Olloyi taologa bu o'lkaga keng qo'lamda bunday ulug'ligu bu darajadagi oliy himmatni muyassar ko'rganligi uchun behad hamdu sanolar bo'lsin". Shuningdek, al-Vatvot maktublaridan o'sha paytda Xorazmda yashagan olimlar, shoir va adiblar o'rtasida uyushtirilgan ilmiy munozaralar haqida ham boy tasavvurga ega bo'lamiz²⁴².

Demak, bu davrda ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti Xorazmda hunarmandchilik, dehqonchilik, me'morchilik, tashqi va ichki savdoning rivoji bilan uyg'unlashib ketadi. Iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hayotdagi ijobiy siljishlar mamlakat shaharlarining, ayniqsa,

²⁴¹ Ziyo Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. –Toshkent, 1998. – B. 174.

²⁴²Meryam Gurbuz.Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.284.

Gurganjning gullab- yashnashiga zamin hozirlaydi. Huddi shu olimlar hamda Xorazmning qulay jo'g'rofiy sharoitda joylashgani Sharqning yirik ilmiy-madaniy va savdo markazlaridan biriga aylanishida muhim o'rin tutdi. Qadimgi Xorazmdan "Ipak yo'li"ning o'tishi, Sharq bilan G'arbning bog'lanishi vohaning iqtisodiy va madaniy rivojiga ta'sir etgan, albatta²⁴³.

Fanning ijtimoiy sohalari qatorida tabiiy va aniq fanlar, jumladan, astranomiya, matematika va geografiyaga ham maxsus e'tibor qaratilgan. Mazkur sohalar mamlakatning amaliy ehtiyojlari, chunonchi, turli o'lkalar va karvon yo'llari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, xalqaro savdo - elchilik va madaniy aloqalarni rivojlantirish, mamlakatda sug'orish tarmoqlari barpo etish, obodonchilik ko'lamini kengaytirish kabilar uchun bevosita zarur edi. O'sha davrda Mahmud Chag'iniy astranomiya va matematika sohalari bo'yicha hamda Muhammad Najib Bakron geografiyaga oid asarlar yozib qoldirganlar. Ularning ijodida Abu Rayhon Beruniy ilmiy maktabining davomi kuzatiladi. Anushtaginlar – Xorazmshohlar davlati madaniy hayotida islom aqidalariga ham e'tibor kuchli bo'lgan²⁴⁴.

Islom dini peshvolari - sayidlar, ulamolar, mashoyixlarga xorazmshohlar juda katta iltifot ko'rsatganlar, elchilik munosabatlarida va turli nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda ular bilan bamaslahat ish tutganlar. Markazlashgan yirik siyosiy birlikning mavjudligi, iqtisodiyot, fan va madaniyat yo'nalishlaridagi umumiy o'sish o'z navbatida, ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etdi. Xususan, tasavvuf ta'limoti keng rivojlandi. Bu yerda Xuroson tasavvuf maktabining ta'siri kengayganligi kuzatiladi. Abdulla Ansoriy (1006-1089), Yusuf Hamadoniy (1049-1140), Ahmad Jom (1049-1142) uning yirik namoyondalari edilar. Tasavvufning qator mayda tariqatlari: muhosibiya, qassoriya, tayfuriya, junaydiya, nuriya, sahliya, hakimiya, xarroziya, xafifiya, sayyoriya va boshqalar yuzaga keldi. Yagona siyosiy birlik zaminida Xuroson tasavvuf maktabi bevosita

²⁴³ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

²⁴⁴ Ziyoy Bunyodov. Anushtaginlar Xorazmshohlar davlati. – Toshkent, 1998. – B. 174.

Movarounnahrda tasavvuf rivojiga sababchi bo'ldi. Jumladan, Yusuf Hamadoniy tasavvuf maktabi asosida yassaviya va xojagon-naqshbandiya tariqatlari vujudga kelgan. Anushtaginlar – Xorazmshohlar davlatida tasavvuf taraqqiyoti birinchi navbatda xorazmlik yirik mutasavvif olim Najmiddin Kubro (1145-1221) nomi bilan bog'liqdir. Uning asli ismi Ahmad ibn Umar al-Xeva'iy bo'lib, Xorazmda tug'ilib – o'sib keyin Eronzamin va Arab mamlakatlariga sayohat qilgan; uzoq vaqt o'sha tomonlarda yirik tasavvuf mashoyixlaridan ta'lim olib, o'zi ham yetuk tasavvuf ta'limotchisi darajasiga yetgan va Najmiddin Kubro laqabi bilan shuhrat qozongan. So'ngra u vataniga qaytib, Muhammad Xorazmshoh davrida Gurganjda yashab, tasavvuf ta'limotini rivojlantirgan, ko'plab shogirdlar orttirgan. Jumladan, taniqli shoir va tasavvuf namoyondasi Farididdin Attor ham uning shogirdlaridan edi. Najmiddin Kubroning ta'limoti tasavvufda kubraviya tariqati nomini olgan va mashhurdir. “Kubro tasavvuf tarixida keng fe'llik yo'lini tutgan shayxlardandir. Chunki, ul zotning xonaqosida sunniy mazhabli shogirdlar bilan birga shia mazhabli muridlar ham ta'lim olavergan”²⁴⁵.

Najmiddin Kubro ilmiy asarlar va ruboiylar yozgan. Ulardan asosiylari – “Favoih al-Jamol va fotih al-Jalol”, “Al-usul al-ashara”, “Risalat al-Xaif al-Xaim min-Laumon al-laim” va boshqalar. Najmiddin Kubro 1221 yili Xorazmda mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangda 600 dan ziyod murid izdoshlari bilan ishtirok etadi. Bu g'azotda og'ir yaralangan Kubro o'limi oldidan tig' tutgan mo'g'ul askariga tashlanib, shahid bo'ladi²⁴⁶.

Hukmdorlar, ayniqsa, Xorazmshoh Otsiz olimu, shoirlar va adiblarga hurmat bilan qarar, o'zi ham iste'dodli ma'rifatparvar, adabiyotga qiziqqan shaxs edi²⁴⁷. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo'lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Obodonchilik va madaniyat rivojiga e'tiborni so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin

²⁴⁵ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

²⁴⁶ Masharipov Ozod. Xorazm tarixidan sa'xifalar. – Toshkent, 1994. – B. 185.

²⁴⁷ O'sha asar va bet

Manguberdi faoliyatida ham kuzatish mumkin. U hayotining keyingi o'n yilini ona Vatanidan uzoqda, turli yurtlarda o'tkazgan va boz ustiga biror joyda uzoqroq muddat yashab qolmagan bo'lishiga qaramay, shahar va qo'rg'onlar obodonchiligi uchun hissa qo'shganligi, masjidlar barpo etganligi o'sha davr tarixiy manbalarida qayd etilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda Islom taraqqiy etib, mustahkam qaror topgach, hukmdorlar davlatning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy boshqaruvini Islom huquqi asosida tashkil qildilar. Bunda mahalliy huquqshunoslar - faqihlar muhim o'rin tutgan. Xorazmshohlar ham o'z saltanatini shu asosda boshqardilar. Natijada bu davrda ko'pgina faqihlar yetishib chiqdi. Jumladan, Muhammad az-Zamaxshariy (1075-1144), Ahmad ibn Muhammad Muvaffiq-ad-din xotib al-Xorazmiy (hij. 484-596), Dovud ibn Iso Abu Bakr ibn Ayub, Abu Muhammad Majid ad-din Sadir al-Afozil al-Xorazmiy (hij. 555-617), Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiy va boshqa ko'pgina yirik fuqaho va ulamolar yetishib chiqqan²⁴⁸.

Xorazmshohlar davlatida, ayniqsa, Sulton Takish va Alovuddin Muhammad davrlarida madaniy hayot ravnaq topgan. Ayniqsa, qasidago'y va dostonchi shoirlar ijodi gullab-yashnagan. Xorazm she'riyat maktabining deyarli barcha vakillari saroy shoirlari edilar. Xorazmshohlar davrida bir qancha muhim shoirlar yetishib chiqqan edi. Bulardan bir nechtasiga to'xtalib o'tmoqni istaymiz. Misol uchun, Sulton Alouddin Muhammad davrining «she'rda mohir» bo'lgan shaxslaridan biri «Xayrli kishilarning maqbuli» Sayyid Zulfiqori Shirvoniyydir. Shirvoniyy she'r san'atlaridan xabardor bo'lgan bir shoir edi va har baytida turli vaznlarni ishlata olardi shoir Sulton Alouddin Muhammad Iroqda bo'lgan paytda u bilan uchrashgan va Sulton unga hurmat ko'rsatgan edi. Sulton Alouddin Muhammad davrining so'z san'ati ustalaridan biri Shohfur Ashhar-i Nishopuriy (vaf 606/ 1208-1209 y)dir. Nishopuriy laqablar va inshoga doir risolalar yozgan edi. Xorazmshoh El-Arslon davridagi shoirlardan bo'lgan Mavlono

²⁴⁸ <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/116>

Sayfaddin-i Isfarangiy Movarounnaxrda yetishib chiqqan edi. Xorazmshoh El-Arslon saltanatining boshida Xorazmga kelib hukmdorning majlisida qasidalar o‘qidi. Mavlono Sayfaddin bir qancha shoirning qasidalariga javoblar yozar edi. Xorazmshoh El-Arslon ham Hoqoniyning bir qasidasiga javob yozishini xohlagandi, shoir ham bu istakni bajargan edi²⁴⁹.

Umuman olganda, Anushtaginlar – Xorazmshohlar saltanatida boy madaniy meros tarkib topganligini ko‘ramiz. Uning salmoqli qismini ismlari yuqorida sanab o‘tilgan olimlar yozib qoldirgan yozma meros tashkil etadi. Afsuski, mo‘g‘ullar bosqini yillarida bu madaniy yodgorliklarning katta qismi yo‘q qilindi. Lekin, uning saqlanib qolgan qismi ham keyingi asrlarda fan va madaniyat rivoji uchun muhim omil bo‘lganligi ma'lum. Xorazmshohlar davrida ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnaganligini biz o'tmish allomalarimizdan qolgan arab, fors va turkiy tillardagi qo'lyozmalar orqali bilamiz. Ushbu qo'lyozmalarni izlab topib, hozirgi avlodlarimizga yetkazish manbashunoslarning Mustaqil Vatanimiz oldidagi asosiy burchidir.

²⁴⁹ Meryam Gurbuz. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch, 2022 yil. – B.286.

Xulosa

Ta'kidlash joizki, uch yil ichida buyuk Xorazmshohlar davlati mo'g'ullar tomonidan istilo qilindi. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, Chingizxon bu davlatni bosib olish rejasini darrov amalga oshirmagan. Tarixiy jarayonlarga qaralsa shu hol namoyon bo'ladiki, 1215 yildagi sulton elchilariga Chingizxon Xorazmshoh qudratini tan olishini bayon qiladi. Keyingi uch yil ichida esa Xorazmshohlar davlati tarixiga bag'ishlangan mavzuda qayd etilganidek, Chingizxon ushbu saltanatning barcha zaif jihatlaridan voqif bo'ladi. Mo'g'ullarga sultonning o'z saltanatidagi mahalliy hokim va amaldorlarni davlat hokimiyatidan chetlashtirishi, Bag'dod xalifaligi bilan keskin munosabati, xorazmshohlarning ulkan (400 ming) lashkari amalda o'z mahoratini ancha yo'qotgani, ichki siyosiy nizolar, sultonning din arboblari bilan ixtilofi va boshqalar juda qo'l keldi. Janglarda mo'g'ullar harbiy taktikasi o'z ustunligini ham namoyon qilgan edi. Sultonning beqarorligi, mo'g'ullar kuch-qudratiga ortiqcha baho berishi, vaziyatni to'g'ri va sog'lom tarzda tahlil qila olmasligi, toju-taxt, mamlakat, saltanat taqdiri borasidagi ikkilanishlari va boshqalar ham davlat halokatini tezlashtirishga ko'mak berdi²⁵⁰. Mo'g'ullar esa aholini bo'ysundirishning yagona usuli sifatida faqat o'limga urg'u berdilar.

Anushtakinlar sulolasi tarix sahnasida to'satdan paydo bo'lmagan. Jahon tarixshunosligining yirik vakillari Xorazmshohlar – Anushtakinlar sulolasini “musulmon sharqining eng porloq sulolalaridan biri” deb baholaganlar. Sulola vakillari sabr-bardosh, puxta hisob-kitob, uzoqni ko'zlagan diplomatik mahorat va o'tkir siyosiy sezgi orqali o'z maqsadlariga bosqichma-bosqich erishganlar. Anushtakinlar Saljuqiylar sulolasining zaifliklaridan mohirona foydalangan holda, shuningdek, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar, G'uriylar va Abbosiy xalifaligi bilan muvozanatli diplomatik munosabatlar olib

²⁵⁰ Машарипов Қ.Ю. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни.Т.ф.д (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим қилинган диссертация. – Тошкент, 2021. – Б. 133.

borish orqali o'z saltanatlariga asos solganlar. Bu jarayonda ular ba'zida nozik diplomatik vositalarni, ba'zida esa harbiy kuchni ishga solganlar. XI asrning so'nggi choragi va XIII asrning birinchi yarmida Xorazm yirik siyosiy kurashlar maydoniga aylangan bo'lib, Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Anushtakinlar sulolasi asoschisi Anushtakin o'z faoliyati davomida Saljuqiylar ishonchiga sazovor bo'lgan. Shu ishonch tufayli uning avlodlari Xorazmda hukmronlik qilishni qonuniy meros sifatida qabul qilib olganlar. Anushtakinlar ma'lum bir davrgacha vaziyat taqozosi bilan Saljuqiylarga xizmatda sadoqat ko'rsatganlar. Chunki XI asr boshlaridan XII asr o'rtalarigacha butun Sharqda, musulmon dunyosida Saljuqiylardan qudratli biron bir sulola va davlat mavjud emas edi.

Shunday qilib, Anushtakinlar sulolasi o'z davrida nafaqat ichki boshqaruv tizimini takomillashtirgan, balki xalqaro maydonda ham muhim geosiyosiy o'rin egallab, musulmon dunyosining tarixida o'chmas iz qoldirgan. XI asrning so'nggi choragi va XIII asrning birinchi yarmida Xorazm Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatgan siyosiy kurashlar maydoniga aylandi. Ayniqsa, bu davr ichida Qoraxoniylar saltanatining asta-sekin kuchsizlana borishi, Saljuqiylar davlati bilan uning ziddiyatlari, nihoyat, Qoraxoniylar bilan Saljuqiylarning qo'shma lashkarlari koraxitoylar zarbasiga bardosh berolmay talofatga uchragani kabi voqea-xodisalardan Xorazmni mustaqil davlatga aylantirishga intilgan anushtakiniylar ustalik bilan foydalandilar. Anushtakinlar o'zlarining tadbirkorligi, usta diplomatligi, g'ayrat-shijoati bilan tez orada Saljuqiylardan mustaqil siyosat yo'lini tutdilar. Anushtakinlar XIII asr boshlariga kelib Osiyoning katta qismimni egallagan ulkan saltanatga asos soldilar.

Ammo, Xorazmshoh Sulton Muhammad atrofidagi arkoni davlatning beboshliklari, itoatsizliklari solik tushumlarini o'zboshimchalik bilan tasarruf etishlari, harbiy jihatdan muhim o'rinlarni egallab, shohga nisbatan bepisandliklari kabi salbiy omillar juda katta ichki noqulayliklarga olib keldi. Xorazmshohlar davlatidagi

murakkab ichki ziddiyatlar avj olayotgan bir davrda XIII asr boshida saltanatning sharqiy qo'shnisi bo'lmish Mo'g'uliston hududlarida kuchli davlat tashkil topib uning hukmdori Temuchin Chingizxon misli ko'rilmagan istilochilik va talon-taroj maydoniga aylandi. Bunday murakkab vaziyatda Xorazmshoh Muhammad jiddiy taktik va strategik xatolarga yo'l qo'ydi. Mamlakat mo'g'ullar asoratiga tusha boshladi.

Davomiy ichki tanazzul alomati mo'g'ullarning tinimsiz zarbalari ostida Xorazmshohlar saltanatining tarix sahnasidan tamom tushmog'i tomon davom etdi. 1221-1231 yillar davomida Sulton Jaloliddin Manguburni tomonidan mo'g'ul istilochilariga qarshi olib borilgan qahramonona kurashlar ham samara bermadi.

Ilovalar

XII-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar xronologik jadvali *Xalifalar*

Al-MustazXIr	1094-1118
Al-Mustarshid	1118-1135
Ar-Rashid	1135-1136
Al-Muktafiy	1136-1160
Al-Mustanjid	1160-1170
Al-Mustadiy	1170-1180
An-Nosir	1180-1225
Az-Zohir	1225-1226
Al-Mustansir	1226-1242
Al-Musta'sim	1242-1258

Ozarbayjon Otabeklari

Shams ad-Din Ildeniz	1175-1186
Qizil-Arslon	1186-1191
Abu Bakr	1191-1210
O'zbek	1211-1225
Xomush	1225-1230

Fors Iroki mamluklari

Izz ad-Din Ko'kcha	1204 y. v.e.
Shams ad-Din Oytug'mish	1213 y. v.e.
Nosir ad-Din Mungli	1215 y. v.e.
Sayf ad-Din O'g'limish	1218 y. v.e.

Mozandaron hukumdorlari

Shaxriyor ibn Qarin	1073-1109
Qarin ibn Shaxriyor	1109-1117
Ali ibn Shaxriyor	1117-1139
(Rustam ibn Qarin – nomzod	1117-1121)
Shoh-G'oziy Rustam ibn Ali	1139-1163
Ardasher ibn Xasan	1171-1205
Shoh-G'oziy Rustam ibn Ardasher	1205-1210

Guriylar (Afg'oniston)

Sayf ad-Din Muhammad	1161-1163
G'iyos ad-Din Muhammad	1163-1203
Shaxob ad-Din Muhammad	1203-1206
G'iyos ad-Din Mahmud	1206-1212
Baho ad-Din Sam	1212-1213
Alo ad-Din Otsiz	1213-1214
Ziyo ad-Din Muhammad	1214-1215

Xorazmshohar davrida davlat boshqaruviga oid nomlarning lugʻaviy maʼnolari

1. Taxt – (fors) - rasmiy qabul va boshqa tantanali marosimlarda shox oʻtirishi uchun Saroy toʻriga oʻrnatilgan, maxsus bezatilgan oʻrindik
2. Toj – (fors) - shohning hukmdorlik ramzi boʻlgan bosh kiyimi
3. Shamsiya – (arab) - «shams» soʻzidan yasalgan, taxt tepasida maxsus mulozim tomonidan turiladigan soyabon)
4. Tugʻ – (turk) - musulmonlarning yogʻoch dastaga oʻrnatilgan, qutos dumi va yarmi oy yoki kerilgan besh panja tasviridan iborat bayroksimon belgisi, bayroq
5. Oʻrdu – (turk) - qoʻshin, lashkar, armiya
6. Qamar - (arab – oy)- bu oʻrinda oy shaklidagi davlat belgisi
7. Sikka - (arab) - tanga, 2 muhr
8. Hojib - (arab) - mulozim, eshik ogʻasi, gʻulom, kamergar
9. Ustod - ud-dor - (arab) - soliq, ehson yigʻuvchi)
10. Amiri alam - (arab) - bayroqdor
11. Farrosh - (arab) - gʻulom, shohning shaxsiy koʻrikchisi boʻlgan harbiy
12. Fakix - (arab) - islom qonunshunosi
13. Mahram - (arab) - xos mulozim
14. Devon - (arab) - devonxona, davlat idorasi, mahkama
15. Sohibi devon - (arab) - devon maʼmuri administrator
16. Sohibi insho - (arab) - devonxona ishlarini yurituvchi, mirzaboshi
17. Devoni istifo - (arab) - moliya mahkamasi
18. Devoni arz - (arab) - yer ishlari mahkamasi
19. Devoni nazar - (arab) - taftish mahkamasi
20. Omil – (arab) - agent, hufiya, ishonchli vakil, soliq nazoratchisi
21. Muxtasib (arab) -tosh-tarozu, shariat amallarining bajarilishi nazoratchisi
22. Mazolim - (arab) - siquv, adolatsizlik, shikoyat
23. Akzol-kuzot (Qoziy-ul-quzot) - (arab) - qozilar qozisi, qozikalon, shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs
24. Xutba - (arab) - diniy maʼruza, daʼvat
25. Chodir (forcha) - chodir, oʻtov
26. Silohdor - (fors) - zobit yoki yaxshi qurollangan, qurol-aslaha uchun javobgar shaxs
27. Amiri oxur - otxonalar, transport vositalari boʻyicha masʼul

28. Amiri shikor - (fors) - ov ishlariga mas'ul
29. Tashtdor - (fors) - hukmdorning tanovuldan oddin qo'lini yuvishi uchun mo'ljallangan idishni olib yuruvchi
30. Amiri chashnagir - (arab, fors) - dasturxon tuzovchi, shoh taomini tatib ko'ruvchi
31. Sharobdor - (arab, fors) - may, sharob kabi ichimliklarni olib yuruvchi
32. Davotdor - (arab, fors) - hukmdor uchun qog'oz, qalam, siyoh kabi yozuv vositalarini olib yuruvchi
33. Dodhoh - (fors)- fuqarolardan tushgan arznomalarini shohga yetkazuvchi
34. Shihna (fors) - mirshabboshi
35. Sipohdor (fors) - qo'mondon, qo'shinboshi
36. Sarhang (fors) - qo'shin mudarrisi

**Xorazmshohlar davriga oid O‘zbekiston va xorij fondlarida^{*251}
saqlanayotgan artefaktlar ro‘yxati**



Jaloliddin Manguberdi faoliyatiga oid tosh bitik

Ushbu epigrafik yodgorlik toshga Jaloliddin Manguberdi sharafiga 1230(31) yilda uning ismlari, rutbalari va duolar o‘yib yozilgan. Toshbitikning balandligi 29 sm, kengligi 50 sm, qalinligi 32 sm, og‘irligi esa 35 kg.

Londondagi Britaniya muzeyi



Naqsh parchali koshinlar

Xorazm, Ko‘hna Urganch, Sulton Tekesh maqbarasi. Tahminan 1200 yil.

Gil, bosma kolip, sir.

O‘lchami:41,5 x 28 sm (1); 41,5x 29 sm (2);

34 x 28 sm (3); 42x 28,5 sm (4).

²⁵¹ Ilovalarni shakllantirishda amaliy yordam bergan PhD, dotsent Zokirov Behzodjonga alohida minnatdorchilik bildiraman

Sankt-Peterburg, Ermitaj muzeyi



Koshin parchasi

Xorazm, Koʻhna Urganch. XII-XIII asrlar.

Gil, uyma, sir

Oʻlchami: 19,5x12,2 sm.

Sankt-Peterburg, Ermitaj muzeyi



Koshin parchasi

Xorazm, Koʻhna Urganch. XIII-XIV asrlar.

Gil, uyma, sir.

Oʻlchami : 8,7 x 5,2 x 2,2 sm.

Sankt-Peterburg, Ermitaj muzeyi



Qamar taqilmalari.XII -XIII asrlar.

Tarkibi –mis

O'lchami :4.3 x 4.5 sm (plastinalar);

4.7 x 8.1 sm (tugma qismi)

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Qamar plastinasi. XII -XIII asrlar

Tarkibi – bronza

O'lchami :3.5 x 8 sm

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Firuza rangdagi shisha, qolipda yasalgan va relief usulida bosilgan Nishon (medalon). XII -XIII asrlar

O'lchami :diametri 9.1 sm
David Xalili onlayn kolleksiyasi



Bilakuzuk. XI -XII asrlar

Tarkibi – tilla

O'lchami :diametri — 6.7 sm;
og'irligi — 65.9 g
David Xalili onlayn kolleksiyasi



Sopol kosa. X -XI asrlar

O'lchami :15.5 x 31.8 sm

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Sopol kosa. X -XI asrlar

O'lchami: 15.5 x 31.8 sm

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Sopol kosa. X -XI asrlar

O'lchami: 13.4 x 39.4

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Sopol payola. XII asr

O'lchami: 15.1 x 23 sm

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Hayvon tasviri tushirilgan suv sepkich, stol favvorasi. XIII asr boshlari

Tarkibi: mis(Afg'oniston)

O'lchami: 45 x 43 x 47.5 sm

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Ko'p funsiyali chirog'. XII asr

O'lchami: 33.6 x 17.7 sm

Devid Xalili onlayn kolleksiyasi



Suv idish. 1204-1206

O'lchami: Bo'yi: $10 \frac{3}{4}$ dyuym (27.3 sm)

Og'iz qismi diametri: $2 \frac{7}{8}$ dyuym (7.3 sm)

Dastadan nosqishchagacha kenglik: 5 dyuym (12.7 sm)

Tana qismi diametri: $5 \frac{1}{2}$ dyuym (14 sm)

Tag qismi diametri: $4 \frac{3}{4}$ dyuym (12.1 sm)

Sent-Luis Muzeyi, Fransiya

Xorazmshohlar davriga oid O‘zbekiston va xorij fondlarida saqlanayotgan tangalar ro‘yxati



Alovuddin Muhammad ibn Takash tangasi. G‘azna

O‘lchami: diametri - 15 mm; og‘irligi 3.28 gm

Londondagi Britaniya muzeyi IOLC.7269



Alovuddin Muhammad ibn Takash tangasi. G‘azna

O‘lchami: diametri - 14 mm; og‘irligi 3.03 gm

Londondagi Britaniya muzeyi IOLC.7314



Sarkada Sharofbeg tangasi. Qobul

O‘lchami: diametri - 17 mm; og‘irligi 2.92 gm

Londondagi Britaniya muzeyi IOLC.7427



Sulton Jaloliddin Manguberdi tangasi. Gruziya.

O'Ichami: diametri - 15 mm; og'irligi 2.7 gm

Londondagi Britaniya muzeyi 1869,0709.96



Sulton Jaloliddin Manguberdi tangasi. Pokiston – Qurram

O'Ichami: diametri - 14 mm; og'irligi 3.38 gm

Londondagi Britaniya muzeyi IOLC.6861



Sulton Jaloliddin Manguberdi tangasi. Pokiston – Qurram

O'Ichami: diametri - 13 mm; og'irligi 3.46 gm

Londondagi Britaniya muzeyi IOLC.6859



Alovuddin Muhammad Otsiz oltin tangasi.

O'Ichami: diametri - 13 mm; og'irligi 2.34 gm

Numista onlayn katalogi N#385957



El-Arslon tangasi. Bomiyon

O'Ichami: diametri - 20 mm; og'irligi 3.04 gm

Numista onlayn katalogi N#225265



Sulton Jaloliddin Manguberdi tangasi.

O'Ichami: diametri - 14 mm; og'irligi 3.43 gm

Numista onlayn katalogi N#51599



**Alovuddin Muhammad ibn Takash tangasi. G'azna.
10 dinor.**

O'lchami: og'irligi 44.35 gm
Numista onlayn katalogi N#192731



Xorazmshoh Otsiz mis falsi (1132-1133)

O'lchami: diametri - 22 mm; og'irligi 3.54 gm

Amerika numismatika koleksiyasi

Xorazmshohlar davriga tegishli sifati foto, miniatyura, portret va boshqa vizual materiallar ro‘yxati



Xorazm askarlari

1227-yildagi Bolnisi jangida.

“Jome at-tavorix” dan keltirilgan miniatura.

O‘z RFA Sharqshunoslik Instituti № 1620,



Xorazmshoh El-Arslonning taxtga o‘tirish marosimi

“Jome at-tavorix” dan keltirilgan miniatura.

O‘z RFA Sharqshunoslik Instituti № 1620,



Muhammad Xorazmshohning vafoti sahnasi

“Jome at-tavorix” dan keltirilgan miniatura.

O‘z RFA Sharqshunoslik Instituti № 1620



Jaloliddin Manguberding Sind daryosidan sakrashi sahnasi

“Jome at-tavorix” dan keltirilgan miniatura.

O‘z RFA Sharqshunoslik Instituti № 1620



TEKKEK KHATUN, THE MOTHER OF SULTAN MUHAMMAD, BEING LED CAPTIVE BY THE MONGOLS

from a very old MS. of Rashid-ad-Din in the Bibliothèque Nationale

Sulton Muhammadning onasi Turkon Xotun mo‘g‘ullar tomonidan asir olib ketilmoqda.

“Jome at-tavorix” dan keltirilgan miniatura.

Fransiyadagi Bibliothèque Nationale (Milliy kutubxona)da saqlanadi.



Jaloliddin qal'a-muzeyi

Minoralarining balandligi 15 m.

Ushbu qal'a muzey Eronning Garmex shahridagi tepalik ustida joylashgan



Alovuddin Takash maqbarasi
Turkmaniston, Koʻhna Urganch shahri



El-Arslon maqbarasi
Turkmaniston, Koʻhna Urganch shahri



Najiddin Kubro maqbarasi
Turkmaniston, Koʻhna Urganch shahri

Xorazmshohlar saltanati (Anushteginiylar 1097-1231-yillar) tarixiy-madaniy xaritasi



*Ushbu xaritani shakllantirishda yordam bergan Xudoyazarov Isoga o'z minnatdorчилиgini bildiraman

4. Xorazmshohlar davriga oid qo‘lyozmalarning faksimil nashrlar ro‘yxati

№	Muallifi	Qo‘lyozma asar haqida qisqacha tavsif	saqlanish joyi
1	Rashididdin Votvot	« Абкоруъл – афкор фиър – расил ваъл - ашъор » oid Rashididdin Votvotning Xorazmshoh Otsiz nomiga to‘plangan bir majmuadir. «Abkoru'l –afkor» asari to‘rt qismdag iborat shaklda tuzilgandir. Bunga ko‘ra birinchi qismda o‘nta arabcha maktub (varaq 2 b-17 a), ikkinchi qismda o‘nta arabcha qasida va bir nechta qit‘a (varaq 17 a – 31 b), uchinchi qismda o‘nta forscha maktub va to‘rtinchi qismda o‘nta forscha qasida, olti dona forscha g‘azal va bir nechta qit‘a mavjuddir (varaq 46 a – 66 a)faksimil nashrlar ro‘yxati	Istanbul Unversiteti kutubxonasi, № F 424.
2	Rashididdin Votvot	« Aroisul – Havotir va nafoisu'n – navodir » (asosan Xorazmshohlarning maktublaridan iborat majmua) Rashididdin Votvotning arabcha va forscha maktublaridan tashkil topgan bu majmua Xorazmshohlar tarixi uchun juda qimmatli bir manbadir. Hukumdorlarning bir-biriga yozgan maktublarini o‘z ichiga olgani kabi tashkilotga doir dalillarni, hujjatlarni ham o‘ziga qamrab oladi. Buning ustiga ilova sifatida Xorazmshoh Otsiz tomonidan Sulton Sanjarga yuborilgan maktublar ham bu majmuada borki, siyosiy tarix ishlari uchun ega bo‘lgan ahamiyati bilan birga uslub o‘laroq ham o‘sha	Istanbul Unversiteti kutubxona, Ayo- Sofiyo, № 4138, Fotih kutubxonasi № 4070, Ayosofiyo № 4015

		davrning yozishma usullarini ko'rsatishi jihatidan benihoya darajada muhimdir.	
3	Rashididdin Votvot	« Umdatul-bulog'o » va « Uddatu'l – fusoho ». (asosan Xorazmshoh Alovuddin Takash maktublaridan iborat majmua) Bu majmuaning bir ahamiyati Rashididdin Votvotning Xorazmshohlar uchun yozgan bir qancha qasidalarini o'z ichiga olganligi katta ahamiyatga ega. Bularning orasida Xorazmshoh Alouddin Takashning taxtga o'tirish paytida uni qutlash, uchun so'zlagan qasidasi ham bor. Bundan tashqari Xorazmshoh Otsiz va Xorazmshoh El-Arslonning madhi uchun aytilgan bir qancha qasida ham mavjuddir.	Sulaymoniya kutubxonasi, Asad Afandi № 3302, № 4150
4	Rashididdin Votvot	“ Munshaot-i Rashididdin Votvot ” Rashididdin Votvotning maktublaridan tashkil topgan bu majmuaning Nurio'smaniya № 4294 da qaydli bir nusxasi bor. Rashididdin Votvotga oid bo'lgan bu to'rtta munshaot majmuasi yordamida Xorazmshohlar Davlatining qurilish davrini sinchiklab o'rganish mumkin.	Nur Osmaniya (Turkiyaning Istanbul shahridagi Sulton Ahmad majmuasi hududida joylashgan tarixiy kutubxona) № 4294
5	Rashididdin Votvot	« At-Tavassul-ila't – tarassul » Sulton Alouddin Takash Xonning insho Devonining boshida bo'lgan Bahouddin Muhammad b. Muayyad al-Bag'dodiyga oid bo'lgan bir munshaot majmuasidir. Bog'dodiyning munshaot majmuasi birinchi muqaddima, ikkinchi muqaddima, o'xshash fasl va uch qismdan tashkil topgandir. Muqaddima Alloh va Payg'ambarga Madh va Sultonga Madhiyani o'z	Bahouddin Muhammad b. Muayyad al-Bag'dodiy, at Tavassul ila't – Tarassul, Noshir – Ahmad Baxmanyol, Tehron 1315.

		ichiga oladi. Muqaddima mohiyatidagi ikkinchi faslda ozgina va asosiy mazmuni qisqa o'laroq forscha insho va turli munshiylarning uslubi namunalar bilan tushuntirilgan.	
6	Ibn al-Asir (1160-1234)	Ibn al-Asirning (1160-1234) “Al-komil fi-t tarix” (“Mufassal tarix”) asari Sharq mamlakatlari halqlari, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Asar 12-jilddan iborat bo'lib, dunyoning “yaratilishi”dan to 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni yilma-yil bayon etib beradi. Asarning VII-XII jildlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, 924-1231 yillar orasida Sharq mamlakatlarida, shuningdek, O'rta Osiyo va O'zbekistonda bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga oladi va asosan, qo'lyozma manbalar, shuningdek, voqealar guvohlari bergan axborot hamda muallifning shaxsiy kuzatuvlari bilan to'plangan aniq ma'lumotlar asosida yozilgan.	O'zFAShI №824 Britaniya muzeyi kutubxonasi MSP. 103. Parij Milliy kutubxonsai Sulaymoniya kutubxonasi (Istanbul) Misr (Dar al- Kutub, Qoxira)
7	Rashididdin ibn Fazlulloh	“Jome' ut-tavorix” Asar o'rta asr Sharq tarixchiligida yangi an'anani boshlab bergan asardir. Ma'lumki, Rashiduddindan avval o'tgan, shuningdek, undan keyingi davrlarda yashab ijod etgan tarixchilarning ko'pchiligi umumiy tarix deganda, faqat musulmon mamlakatlarining tarixini tushunganlar. Rashiduddin esa, ulardan farqli o'laroq, umumiy tarix deganda, Sharq mamlakatlari bilan bir qatorda, G'arb mamlakatlari, Xitoy hamda Hindiston tarixini ham	Qo'lyozma. O'z FAShI № 1620, Edinburg universiteti kutubxonasi Or Ms 20, Halili kolleksiyasi, London MSS 727, To'pqopi saroyi kutubxonasi H 1653, H 1654, B 282.

		<p>nazarda tutdi; Sharq mamlakatlar tarixini jahon tarixining bir qismi deb hisobladi.</p> <p>Asarning ayniqsa, turk-mo'g'ul xalqlari tarixini o'z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Asarning O'rta Osiyo, Eron va Kavkazorti xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham benihoyat qimmatlidir.</p>	
8	Abu Nasr Muhammad ibn Abdu-l-Jabbor Utbiy	<p>Abu Nasr Muhammad ibn Abdu-l-Jabbor Utbiy (taxm. 961-1077 yoki 1036 yy.)ning “Tarixi Yaminiy” (“Yamin ud-davla tarixi”) asari Sabuktagin va Sulton Mahmud davrida G'aznaviylar imperiyasi tarkibiga kirgan Afg'oniston, Xuroson, Xorazm va Movarounnahrning 975-1021 yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etuvchi hamda qoraxoniylarning Movarounnahrni bosib olishi (992-996 yillari) haqida ma'lumot beradi.</p>	<p>Qo'lyozma, O'zRFAShI № 3252/V Manchester universiteti kutubxonasi, MS 290, 291.</p>
9	Alouddin Otamalik Juvayniy (1226-1283)	<p>Tarixi jahongushoy.</p> <p>Alouddin Otamalik Juvayniy (1226-1283) Mo'g'uliston, O'rta Osiyo, O'zbekiston hamda Eronning XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi “Tarixi Jahongushoy” (“Jahongir (Chingizxon) tarixi”) nomli shoh asari bilan shuhrat topdi. Asar 1260 yilda yozib tamomlangan.</p> <p>Asar uch qismdan iborat: 1) Mo'g'ullar; ularning Chingizxon (1246-1249) davrigacha, shuningdek, Jo'chixon,</p>	<p>Qo'lyozma, O'zRFAShI № 12148; №610; № 4597. Britaniya muzeyi kutubxonasi №1211, 06. Parij Milliy kutubxonsai №205 Sulaymoniya kutubxonasi (Istanbul)</p>

		Chig‘atoyxon va avlodlarining tarixi; 2) Xorazmshohlar va Xurosonning mo‘g‘ul hukmdorlari davridagi (1258 yilgacha) tarixi; 3) Eronning 1256-1258 yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Ismoililarning diniy-harbiy uyushmasi va Ismoililar davlati (1090-1258 yy.) tarixi.	
10	Jamol Qarshiy	Jamol Qarshiyning “Al-Mulhaqot bi-s-Suroh” (“Suroh lug‘atig ilova”) asari ham nodir asarlar sirasiga kiradi. Unda Xorazmshohlar davlati tarixi, Chingizxon istilosi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.	Sankt-Peterburg Rossiya FA kutubxonasi fondi, M 514
11	Fahriddin Abu Sulaymon Dovud ibn Abu-l-Fazl Muhammad Banokatiy (? – 1330)	“Ravzat uli-l-albob fi tavorix al-akobir va-l - ansob (“Akobirlar va asil (kishilar”) tarixi xususida oqillar bog‘i”)	Qo‘lyozma, O‘zFAShI № 7330. London qirollik Osiyo jamiyati kutubxonasi Codrington/Reade Box 14, No 26 va 27 Eron, Tehron, Shuri-yi Islami kutubxonasi No. 5469/255.
12	Mirxond. “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo”	“Ravzat uli-l-albob fi tavorix al-akobir va-l - ansob (“Akobirlar va asil (kishilar”) tarixi xususida oqillar bog‘i”) Manbaning 4-bobi: Abbosiylar bilan hamasr bo‘lgan sulolalar (Tohiriylar, Safforiylar, Somoniylar, Xorazmshohlar va b. hamda 9-bobi: Mo‘g‘ullarning tarixi va ularning istilochilik yurishlari	Qo‘lyozma, O‘zFAShI № 5257. MakGil Universiteti (McGill University) kutubxonasi 0003-17009,

	<p>boblari Xorazmshohlar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan. Banokatiyning mazkur asari O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning XIII-XIV asrning birinchi choragidagi tarixi, geografik holati va aholisining turmushini o‘rganishda muhim manbalardan hisoblanadi. Mirxond (Mir Muhammad ibn Sayyid Burxonuddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy) (1433-1498)ning “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog‘i”) nomli asari bo‘lib, unda dunyoning yaratilishidan to 1523 yilga qadar O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida, shuningdek, O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan bo‘lib, Xorazmshohlar davlatining turli jihatlari bayon etiladi.</p>	<p>London qirollik Osiyo jamiyati kutubxonasi Codrington/Reade Box 29 (Box 17),</p>
--	---	---

Foydalanilgan manbalar

1. Abulg‘ozi Bahodirxon. Shajara turk. –Т.: , 1992 у. – 246 б.
2. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. Т. – 1994 у. – 324 б.
3. Ibn Al-Asir. Komil fit-tarix. Voku: 1940 у. – 115b.
4. Вамбери Армений. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Биринчи жилд, Тошкент: 2019 йил. – 270б.
5. Herman Vamberi. Vuxoro yohud Movarounnahr tarixi. Т.: – 1990 у. – 146 б.
5. Jaloliddin Manguberdi. Tarixiy manbalar tarjimasi. – Т.: 1999 у. – 175b.
6. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо. (Жаҳон фотиҳи тарихи). / Масъул муҳаррирлар: Ҳ. Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 504 б.
7. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та‘рих. Полный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.
8. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёқубов таржимаси. / – Т.: , 2006. – 384 б.

Ўзбек тилидаги адабиётлар (кирилл ёзуви)

9. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 302 б.
10. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012. – 256 б.
11. Бўриев О. Тошев Н. Жалолиддин Мангуберди (даври, саркардалиқ фаолияти, манбалар). – Т.: Фан, 1999. – 72 б.
12. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. (Қадимий тарих саҳифалари). // Масъул муҳаррир С.К. Камолов. – Т.: Шарқ, 1999. – 144 б.
13. Жалолиддин Мангуберди. Альбом / Масъул муҳаррир Ҳ. Кароматов. – Т.: Шарқ, 1999. – 173 б.
14. Хидоятлов Г.А. Менинг жонажон тарихим. – Тошкент, 1990. – 274б.
15. Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. // Туркчадан Назарбек Рафим таржимаси. – Тошкент: “Navro‘z” нашриёти. 2016. – 316 б.

16. Машарипов Қ.Ю. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни. Т.ф.д (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим қилинган диссертация. – Тошкент, 2021. – 323 б.
17. Мерям Гурбуз. Хоразмшоҳларда давлат ташкилоти, иқтисодий ва маданий ҳаёт. – Урганч, 2022 йил. – 317б.
18. Сабурова С. Ануштагин – Хоразмшоҳлар даврида Хоразм (1097-1231). – Т.: Nihol, 2008. – 162 б.
19. Саидов Ш. Султон Жалолиддин Мангуберди давлати ва жанговор ҳаракатлар харитаси. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 44 б.
20. Ойдин Тонарий. Жалолиддин Хоразмшоҳ ва унинг даври. (Турк тилидан Бобоҳон Муҳаммад Шариф таржимаси). – Т.: Шарқ, 1999. – 128 б.
21. Машарипов О.М. Хоразм тарихидан саҳифалар. – Т. – 1994 й.
22. Бўриев О.Б., Тошев Н.Т. Жалолиддин Мангуберди. – Т.: – 1999 й.
23. Ойдин Тонарий. Жалолиддин Хоразмшоҳ ва унинг даври. – Т.:, 1999 й.
24. Саидов Ш.Ж. Жалолиддин Мангуберди давлати. – Т.:, – 2000 й.

Рус тилидаги адабиётлар

25. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // В.В. Бартольд. Сочинения. – М.: Наука, 1963. Т. 1. – 760 с.
26. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. – Москва, 1964. – 538с.
27. Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии / Пер.: П.А. Грязневич. – М.: Главная редакция восточной литературы издательства “Наука”, 1971. – 324 с.
28. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.-Л.: Изд-во Академии наук СССР, 1948. – 328 с.
29. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2013. – 336 с.

MUNDARIJA

Muqaddima	3-4
I-BOB.MUG‘ULLAR ICTILOSII ARAFASIDA XORAZM	
I.1.Xorazmshohlar-Anushtakinlar davlatining tashkil topishi va yuksalishi.....	5-18
I.2.Xorazmshohlar davlati siyosiy hayotida Turkon Xotunning tutgan o‘rni.	18-25
I.3.Xorazmshohlar davlatida boshqaruv tizimi	25-39
II.BOB.XORAZMSHOHLAR-ANUSHTAKINLAR DAVLATININ INQIROZI	
II.1.Xorazmshohlar-Anushtakinlar davlati halokatining sabablari.....	40-60
II.2. Xorazmshoh Sulton Muhammad oilasining taqdiri.....	60-69
III.BOB. JALOLIDDIN MANGUDERDI – MILLAT QAHRAMONI	
III.1.Sulton Jaloliddin ozodlik kurashchisi	70-80
III.2.Sulton Jaloliddinning yuksalishi va halokati.....	80-96
IV.BOB..XORAZMSHOHLAR DAVRIDA IQTISODIY VA MADANIY	
IV.I. Xorazmshohlar davrida iqtisodiy hayot.....	97-107
IV.2. Xorazmshohlar davrida madaniy hayot	107-115
Xulosa	116-118
Ilovalar	119-145
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar	146-147

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

SAIDOV SHAVKAT

XORAZMSHOHLAR-ANUSHTAKINLAR

DAVLATI

(1077-1231)

Qayta ishlangan ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri

UO'K : 94(575.1)
KBK: 63.3(5)
S - 16
ISBN: 978-9910-8283-1-7

SAIDOV SHAVKAT
XORAZMSHOHLAR-ANUSHTAKINLAR DAVLATI
(1077-1231)

Qayta ishlangan ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri

Mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi:

Ishaqov Mirsodiq Mirsultanovich
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Raximov Navro'zbek Shoxnazarovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent

Alimov Zuxruddin
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dosent

ISBN: 978-9910-8283-1-7

Monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil
4-oktabrda kuni bo'lib o'tgan 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Bosishga ruxsat etildi:23.11.2025
Bichimi 60x84 1/16 Shartli 9,5 b.t.
50 nusxada bosildi. Buyurtma№
Toshkent davlat sharqshunoslik
universitetining kichik bosmaxonasi.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20 uy.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.



Saidov Shavkat Jumabayevich, 1963-yilda Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumani, G'ozovot qishlog'ida o'qituvchilar oilasida tavallud topgan. 1998 yildan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida faoliyat olib bormoqda. "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasida professor v.b, tarix fanlari doktori (DSc). Mazkur oliygohda 2003-2005 yillarda "Man'aviyat bo'limi" boshlig'i, 2007-2008 yillarda "Xalqaro iqtisod va aloqalar" fakultetida magistratura bo'yicha dekan o'rinbosari, 2008-2012 yillarda "Siyosatshunoslik" va "Jahon siyosati va tarix" fakultetlari dekani, 2012-2013 yillarda "Markaziy

Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasida mudiri lavozimlarida ishlagan. 2019 yildan Magistratura bo'limi boshlig'i lavozimida ishlab kelmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, Xalqaro munosabatlar tarixi, O'zbekiston tarixi, Xorazm tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. "Jaloliddin Manguberdi va uning davlati" (2000 y), "Xiva xonligining ag'darilishi: yangi qarash" (2006 y) nomli risolalar, "Xorazmshohlar-Anushteginlar davlatining yuksalishi va halokati" (2008 y), "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (eng qadimgi davrlardan – milodiy VIII asrgacha) – MOXT yo'nalishi talabalari uchun (2010 y), "O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan 1917-yilgacha)" – litsey o'quvchilari uchun (2020 y), "Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligining kontsepsiyalari" ("Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo xalqlari bo'yicha)" – mutaxassisligi talabalari uchun (2023 y) nomli o'quv qo'llanmalar, "Xorazm xalq sovet respublikasining tashqi munosabatlari va savdo aloqalari (1920-1924)" (2007 y), "XIX–XX asrning birinchi choragida Xorazm - Rossiya munosabatlari" (2024 y) nomli monografiyalar muallifi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixining qadimgi, o'rta asrlar va yangi davrlari bo'yicha respublikamiz va xorij ilmiy jurnallari, anjumanlarida 90 ga yaqin maqolalar nashr qilgan.

ISBN: 978-9910-8283-1-7



9975

